O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOShKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

"IQTISODIYOT" fakulteti

"MAKROIQTISODIYOT" kafedrasi

"HIMOYAGA RUXSAT ETILDI"
Kafedra mudiri i.f.n.,
dots.M.T.Asqarova
_____
«__» _____ 2013 yil

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini kompleks baholash (Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani misolida)

ILMIY RAHBAR:

i.f.n., dots. M.Qosimov

_____

BAJARDI: "Iqtisodiyot (makroiqtisodiyot)" ta'lim yo`nalishi
EKM –52 guruh
bitiruvchi kurs talabasi
Rizoqulov Mirolim Bahromovich

_____

Bitiruv malakaviy ishi dastlabki himoyadan o`tganligi 2013 yil
__1__ maydagi __4__ sonli bayonnoma bilan rasmiylashtirilgan.

Toshkent-2013

O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot vazirligi
Qashqadaryo viloyat
Iqtisodiyot bosh boshqarmasi
Kasbi tuman Iqtisodiyot
bolimi

Ўзбекистон Республикаси
Иқтисодиёт вазирлиги
Қашқадарё вилоят
иқтисодиёт бош
бошқармаси Касби туман
иқтисодиёт бўлими

Kasbi tumani, Mustaqillik ko'chasi, Kasbi tuman hokimligi binosi telefon: 6421876

Тошкент Давлат Иқтисодиёт Университети "Иқтисодиёт" факультети 4-босқич ЭКМ 52-гуруҳ талабаси Ризоқулов Миролим Бахромович томонидан ёзилган "Туманнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишини комплекс баҳолаш (Қашқадарё вилояти Касби туман мисолида)" мавзусидаги битирув малакавий ишига

ТАҚРИЗ

Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримов томонидан Вазирлар Маҳкамасининг 2013 йил 18 январдаги мажлисида белгилаб берилган энг муҳим устувор вазифаларни сўзсиз бажарилишини таъминлаш, ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш бўйича қабул қилинаётган дастурлар ижросини таъминлаш, фойдаланилмаётган захираларни ҳисобга олган ҳолда саноат, хизмат ва қишлоқ хўжалиги махсулотлари етиштиришни кўпайтириш ҳисобига ҳудудларда янги иш ўринларини яратиш аҳолини турмуш даражасини оширишга қаратилган.

Ҳудудларни комплекс ривожлантиришда асосан қишлоқ хўжалик инфратузилмасинингтараққиёти янги, замонавий ва асосийси бугунги кун бозор иқтисодиёти талабларига жавоб бера оладиган техника ва технологияларнинг жалб этилиши нафақат қишлоқ хўжалик корхоналарининг ривожланиши, кичик бизнес корхоналарини молиявий қўллаб- қувватлаш оркали қишлоқда янги иш уринларини яратиш, тасдиқланган инвестиция лойихаларини амалга оширилишини таъминлаш, ҳудуднинг қисқа ва узоқ муддатли ривожлантириш лойиҳаларини тасдиқлаш ва амалга ошириш, мавжуд саноат корхоналарини тўла қувватда ишлатиш, бўш турган бино ва иншоатларда ишлаб чиқаришни ташкил этиш, хизматлар соҳасини ривожлантириш, бундан ташқари, қишлоқда истиқомат қилувчи меҳнат ресурслари учун кафолатланган иш ўринлари ташкил этиш, айниқса ихтисослашган касб-хунартаълим муассаларини битирувчи ёшларни иш билан таъминлаш муҳим ахамият касб этади.

Талаба Ризокулов Миролим Бахромович томонидан ёзилган

бойс долзарбдир. Муаллиф битирув малакавий амалиёти даврида битирув малакавий ишига зарур бўладиган барча маълумотларни тўплаб, тахлилларни олиб борган ва синтез қилиш орқали амалий хулосалар қилишга муваффақ бўлган. Битирув малакавий иши юқори савияда бажарилган бўлиб, битирув малакавий ишининг мақсадини амалга оширишучун қўйилган вазифалар хал этилган. Тадқикотни амалга ошириш мобайнида талаба ҳудудларни комплекс ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришни Қашқадарё вилоят Касби тумани мисолида бугунги кундаги ижтимоий-иқтисодий ривожланиш ҳолатини ўрганиш, тегишли кўрсаткичларини тахлил қилиш орқали мавжуд ютук ва муаммоларни, бунинг сабабларини очиб беришга муваффақ бўлган. Шунингдек, ушбу маълумотлардан хулоса қилинган холда ҳудудни ижтимоий-иктисодий ривожлантиришдаги мавжуд камчилик ва муаммоларни бартараф этиш, уни истиқболдаги ривожлантириш йўналишлари юзасидан тегишли таклиф ва тавсияларни ишлаб чиқишга эришган.

Битирув малакавий ишининг кириш қисмида мазкурмавзунинг ахамияти, долзарблиги ёритилган ва мавзуни ўрганиш мақсади ва унга эришишдаги асосий вазифалар белгиланган. Мавзу объекти ва унинг таркибий мазмуни кўрсатилган.

Ишнинг асосий кисми биринчи бобида мавзу назарий жихатдан илмий-услубий асосланган ҳолда ёритиб берилган. Кейинги бобларда битирув малакавий амалиёти давомида тўпланган материаллар ва маълумотлар тахлил этилган, ҳудудни ижтимоий-иктисодий ривожлантиришдаги тегишли маълумотлар турли диаграмма, гистограмма ва графиклар орқали кўрсатиб берилган.

Шунингдек, ҳудудни ижтимоий-иктисодий ривожлантиришнинг истиқболлари миллий дастурлар ва хукумат карорлари орқали асосланган.

Битирув малакавий ишининг сўнгида олиб борилган тадкикот натижалари ва килинган тахлиллар асосида якуний илмий хулосалар килинган, хулосага мувофик таклиф ва тавсиялар ишлаб чикилган.

Ушбу битирув малакавий иши қўйилган талабларга жавоб беради ва муаллиф Ризоқулов Миролим Бахромовични “Иқтисодиёт”таълим йўналиши бўйича бакалавр даражасидаги дипломни олишга лойик - деб, хисоблайман.

Касби туман иқтисодиёт бўлими
Бош мутахассиси Ш.Зиётов

Кафедра мудири и.ф.н.,
доц. М.Т.Аскарова
_____
«__»_____2013 йил

ТДИУ Иқтисодиёт факультети “Иқтисодиёт (макроиқтисодиёт)” таълим йўналиши бўйича битирувчи курс талабасининг битирув малакавий ишлари тавсияларини ўқув жараёнларига қўлланиши бўйича

Д А Л О Л А Т Н О М А

«__»_____2013 йил

Тошкент шаҳри

Талаба_____нинг
(фамилияси, исми, отасининг исми)

_____
(битирув малакавий иши мавзуси)

Илмий раҳбари: _____

Битирув малакавий ишининг асосий натижалари боблар ва параграфлар бўйича бетлари кўрсатилган ҳолда фаннинг маъруза матнларида, амалий машғулотларида, лаборатория, компьютер ишларида ҳамда магистрлик дисссертацияларда ёки кейс стадилар тайёрлашда фойдаланишини аниқ кўрсатиш керак.

1.Маъруза матнларида (бетларини кўрсатинг):_____

2. Амалий машғулотларида (бетларини кўрсатинг):_____

3.Лаборатория ва компьютер ишларида (бетларини кўрсатинг)_____

4. Кейс стадиларда (бетларини кўрсатинг):_____

5. Битирув малакавий ишида (бетларини кўрсатинг):_____

Комиссия раиси_____

Аъзолари: 1._____
2._____
3._____

«Т А С Д И Қ Л А Й М А Н»
Кафедра мудири и.ф.н.,
доц. М.Т.Аскарова
_____
«__» _____2013 йил

БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШИГА ТОПШИРИҚ

Талабага _____
(Фамилияси, исми, отасининг исми)

Йўналиши: "Иқтисодиёт (макроиқтисодиёт)"

1.Битирув малакавий иши мавзуси _____

2.Малакавий амалиёт жойи _____

3.Иш раҳбари _____
(Фамилияси, исми, отасининг исми , илмий даражаси ва унвони)

4.Иш бўйича маслахатчи _____
(Фамилияси, исми, отасининг исми, илмий даражаси ва унвони)

5. Ишнинг мақсади _____

6. Иш мундарижаси (режаси) Бажариш муддати:

I - боб. _____ «__» ____ 20__ йил

II - боб. _____ «__» ____ 20__ йил

III - боб. _____ «__» ____ 20__ йил

Хулоса ва таклифлар.

7. Ишни бажариш учун зарур бўлган материаллар:

а) Адабиёт манбалари: _____

б) Ҳуқуқий актлар _____

в) Статистик ва бошқа ҳақиқий маълумотлар: _____

8. Тасвирий материаллар: _____

9. Ишни топшириш муддати «__» ____ 20__ йил.

Илмий раҳбар _____
(имзо)

Маслаҳатчи _____
(имзо)

Топшириқни бажариш учун олдим _____
(талаба имзоси)

Топшириқ берилган кун «__» ____ 20__ йил

ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ИҚТИСОДИЁТ УНИВЕРСИТЕТИ

“ИҚТИСОДИЁТ” факультети
“Макроиқтисодиёт” кафедраси

Талаба битирув малакавий ишининг дастлабки ҳимояси натижасининг хулосаси тўғрисида комиссия

ҳайъати йиғилишининг ___ сонли баённомасидан

К Ў Ч И Р М А

«__»_____2013 йил

Талаба_____нинг
(Фамилияси, исми, отасининг исми)

_____
(Битирув малакавий иши мавзуси ва мавзулар тўпламидаги раками)

Илмий раҳбари_____

Битирув малакавий ишининг мавзуси аввалги йилларга нисбатан ўзгарганми?_____

Битирув малакавий ишининг режаси аввалги йилларга нисбатан ўзгарганми?_____

Битирув малакавий ишининг 15 банддан иборат адабиётлар рўйхати янгиланганми?_____

Битирув малакавий ишининг асосий натижалари:

1._____
2._____
3._____

Битирув малакавий ишининг асосий камчиликлари:

1._____
2._____
3._____

Химояда иштирок этган талабага БМИнинг мавзуси бўйича берилган саволлар:

1._____
2._____
3._____
4._____
5._____

Битирув малакавий ишининг дастлабки ҳимояси тўғрисида комиссия ҳайъатининг якуний хулосаси:

(Ҳимояга тавсия этилади, ҳимояга тавсия этилмайди)_____

Комиссия раиси:_____

Аъзолари:1._____
2._____
3._____

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Fakultet: Iqtisodiyot
Kafedra: Makroiqtisodiyot
O'quv yili: 2012/2013

Talaba: Rizoqulov M.B.
Ilmiy rahbar: Qosimov M.S.

Tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini kompleks baholash (Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani misolida)

mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

ANNOTATSIYA

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekistonda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimizni makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlashga hamda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan. Mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda mavjud tabiiy-iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish asosida milliy iqtisodiyotning hududiy tarkibibni takomillashtirish, mintaqalar rivojlanish darajasidagi nomutanosibliklarni barataraf etish dolzarb muammo sanaladi. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda hududlar o'rtasida rivojlanish darajasi, tabiiy-iqtisodiy salohiyat, ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasining shakllanishi, tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida jiddiy farq borligini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Aynan ana shu masalalarda Prezidentimiz I.A.Karimov atroflicha to'xtalib, "Bugun mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilash, iqtisodiyotimizning sifat jihatidan yangi, zamonaviy tarkibiy tuzilmasini shakllantirish, hududlarimizni kompleks rivojlantirish bo'yicha barcha rejalarimizning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi infratuzilma tarmoqlarini yuksak sur'atlar bilan rivojlantirishga uzviy bog'liq ekani haqida gapirishning hojati yo'q, deb o'ylayman."[1] deb ta'kidlab o'tdilar. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishi sohalar tizimi va hududlarda yuzaga keladigan ijobiy o'zgarish hamda o'sish sur'atlariga bevosita bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan alohida hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ishning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalarining nazariy, uslubiy asoslari Respublikamizning bir qancha iqtisodchi olimlarining ilmiy izlanishlarida yoritilgan. Jumladan, hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining alohida masalalari G.K.Saidova, V.Golishev, A.Nabixodjaev, S.S.G'ulomov, N.To'xliyev, S.S.Hayitov, A.A.Abdug'aniyev, I.Q.Nazarov, A.A.Abdullayev, M.A.Oripov, R.U.Asadov, O.M.Hamroqulov, A.M.Sodiqov, G.P.Erkaeva va boshqalarning ilmiy ishlarida yoritilgan.

---

[1]I.A.Karimov Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza/ Xalq so'zi, 2013 yil 19 yanvar.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini hozirgi holatini kompleks baholash, kelajakda uni yanada rivojlantirish yo'nalishlarini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berishdir.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

–Milliy iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirishning nazariy asoslarini o'rganish;

–Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy usul va yo'llarini tadqiq qilish;

–Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy ahamiyati hamda uni rivojlantirishning istiqbollarini o'rganish;

–Bitiruv malakaviy ishining obyekti hisoblangan tumanning geografik mavqeyi va uning viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tutgan o'rnini belgilash;

–Tumanda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish darajasini baholash;

–Tumanda ijtimoiy sohani rivojlanishi va aholining turmush darajasi asosiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish;

–Tumanda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash tizimini investitsion jozibadorligini yuksaltirish yo'llarini aniqlash;

–Tumanning eksport salohiyatini oshirish va uning asosiy omil va yo'nalishlarini belgilash.

Tadqiqot obyekti bo'lib Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani xizmat qiladi.

Tadqiqot predmeti Iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish sharoitida hududlarni kompleks rivojlanishini ta'minlash masalalari tadqiqotning predmeti hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishi doirasida olib borilgan tadqiqotlar asosida tayyorlangan xulosa va takliflarning amalga tadbiq etilishi tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

Ilmiy rahbar: **i.f.n.dots.Qosimov M.S.**

Talaba: **Rizoqulov M.B.**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Iqtisodiyot" fakulteti EKM-52 guruhi talabasi M.Rizoqulovning "Tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini kompleks baholash (Qashqadaryo viloyati Kasbi tuman misolida)" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbar

TAQRIZI

Hudud iqtisodiyotining salohiyatini o'rganish va kompleks baholash milliy iqtisodiyotning dolzarb muammolaridan biridir. Ushbu muammoni Kasbi tumanida o'rganilishi ayni muddaodir, chunki Qashqadaryo viloyati va uning tumanlarida mavjud salohiyatlardan yetarli darajada foydalanish, dolzarb muammolardan biridir.

M.Rizoqulovning BMI kirish, 3 bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. BMI ning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, o'rganilganlik darajasi, ishning maqsad va vazifalari kabi ma'lumotlar berilgan.

BMI ning 1 bobida hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini kompleks baholashni nazariy-uslubiy asoslari ifodalangan. Unda asosiy ko'rsatkichlar, ularning xususiyatlari va hisoblash usullari berilgan.

BMI ning 2 bobida Kasbi tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini hozirgi bosqichdagi holati tahlil qilingan. Tumanning iqtisodiy va ijtimoiy holati, xususiyatlari, tarmoqlarni rivojlanish tendensiyalari, investitsiya va kichik biznesni rivojlanish darajasi aniq jadvallarda, grafiklarda va rasmlarda ko'rsatilgan. Tumanda ijtimoiy-iqtisodiy holatni baholash asosida xulosalar berilgan.

BMI ning 3 bobida kelgusida rivojlantirish bilan bog'liq muammolar aniqlab berilgan. Yaqin yillarda rivojlanish ko'rsatkichlari prognoz qilingan.

Ishni yozishda M.Rizoqulov nazariy va amaliy ma'lumotlarni tahlil qilib, xulosa va takliflar bergan.

Umuman olganda M.Rizoqulovning BMI belgilangan talablarga javob beradi, uning muallifiga mutaxassislik bo'yicha bakalavr ilmiy darajasini olishga loyiq, deb hisoblayman.

Ilmiy rahbar: **i.f.n.dots. Qosimov M.S.**

MUNDARIJA

KIRISH..... 3

I BOB. HUDUDLAR IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI KOMPLEKS BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI 6

1.1. Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solishning zaruriyati va o'ziga xos xususiyatlari 6

1.2. Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini kompleks baholashning asosiy ko'rsatkichlari va ularni hisoblash usullari 14

II BOB. QASHQADARYO VILOYATI KASBI TUMANINING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI HOZIRGI HOLATINI KOMPLEKS BAHOLASH 23

2.1. Tumanning umumiy tavsifi va xususiyatlari 23

2.2. Tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi ko'rsatkichlarining tahlili 27

2.3. Tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini baholash va kelgusi dasturlarda foydalanish yo'llari 41

III BOB. KASBI TUMANINING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI KOMPLEKS BAHOLASHNING ISTIQBOLLARI 49

3.1. Kasbi tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi asosiy muammolar 49

3.2. Kasbi tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlash 56

XULOSA VA TAKLIFLAR 69

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI 73

ILOVALAR

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekistonda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimizni makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlashga hamda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan. Mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda mavjud tabiiy-iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish asosida milliy iqtisodiyotning hududiy tarkibibni takomillashtirish, mintaqalar rivojlanish darajasidagi nomutanosibliklarni barataraf etish dolzarb muammo sanaladi. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda hududlar o'rtasida rivojlanish darajasi, tabiiy-iqtisodiy salohiyat, ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasining shakllanishi, tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida jiddiy farq borligini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Aynan ana shu masalalarda Prezidentimiz I.A.Karimov atroflicha to'xtalib, "Bugun mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilash, iqtisodiyotimizning sifat jihatidan yangi, zamonaviy tarkibiy tuzilmasini shakllantirish, hududlarimizni kompleks rivojlantirish bo'yicha barcha rejalarimizning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi infratuzilma tarmoqlarini yuksak sur'atlar bilan rivojlantirishga uzviy bog'liq ekani haqida gapirishning hojati yo'q, deb o'ylayman."[1] deb ta'kidlab o'tdilar. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishi sohalar tizimi va hududlarda yuzaga keladigan ijobiy o'zgarish hamda o'sish sur'atlariga bevosita bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan alohida hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ishning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalarining nazariy, uslubiy asoslari Respublikamizning bir qancha iqtisodchi olimlarining ilmiy izlanishlarida yoritilgan. Jumladan, hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining alohida masalalari G.K.Saidova, V.Golishev, A.Nabixodjaev, S.S.G'ulomov, N.To'xliyev, S.S.Hayitov, A.A.Abdug'aniyev, I.Q.Nazarov, A.A.Abdullayev, M.A.Oripov,

[1]I.A.Karimov Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza/ Xalq so'zi, 2013 yil 19 yanvar.

R.U.Asadov, O.M.Hamroqulov, A.M.Sodiqov, G.P.Erkaeva va boshqalarning ilmiy ishlarida yoritilgan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini hozirgi holatini kompleks baholash, kelajakda uni yanada rivojlantirish yo'nalishlarini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berishdir.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

–Milliy iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirishning nazariy asoslarini o'rganish;

–Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy usul va yo'llarini tadqiq qilish;

–Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy ahamiyati hamda uni rivojlantirishning istiqbollarini o'rganish;

–Bitiruv malakaviy ishining obyekti hisoblangan tumanning geografik mavqeyi va uning viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tutgan o'rnini belgilash;

–Tumanda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish darajasini baholash;

–Tumanda ijtimoiy sohani rivojlanishi va aholining turmush darajasi asosiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish;

–Tumanda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash tizimini investitsion jozibadorligini yuksaltirish yo'llarini aniqlash;

–Tumanning eksport salohiyatini oshirish va uning asosiy omil va yo'nalishlarini belgilash.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti bo'lib Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish sharoitida hududlarni kompleks rivojlanishini ta'minlash masalalari tadqiqotning predmeti hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslarini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning ilmiy asarlari va amalda qo'llanilayotgan O'zbekiston Respublikasi qonunlari tashkil qiladi. Shuningdek, ilmiy izlanishni olib borish uchun iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga oid Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonunlar, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari me'yoriy hujjatlar sifatida qabul qilindi.

Bitiruv malakaviy ishining yangiliklari quyidagilardan iborat:

–Tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga kompleks baho berilganligi;

–Tumanda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlanganligi;

–Tumanda ijtimoiy rivojlanish va aholi turmush darajasini tahlil qilinganligi hamda mazkur sohalarni rivojlantirish yuzasidan xulosa va takliflar ishlab chiqilganligi;

–Tumanda aholi bandlik darajasini yuksaltirish va yangi ish o'rinlarini yaratishda qo'shimcha imkoniyatlardan foydalanish yuzasidan tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqilganligi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishi doirasida olib borilgan tadqiqotlar asosida tayyorlangan xulosa va takliflarning amalga tadbiq etilishi tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

I BOB. HUDUDLAR IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI KOMPLEKS BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.

1.1Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solishning zaruriyati va o'ziga xos xususiyatlari.

Mamlakatning izchil iqtisodiy o'sishi ko'p jihatdan undagi hududlarning rivojlanish suratlari va darajasiga bog'liq bo'ladi. O'zbekiston hududlarining mutanosib barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi – makroiqtisodiy barqarorlikning, milliy iqtisodiyot tadrijiy rivojlanishining asosidir. Bu barcha hududlar manfaatlariga mos keladigan iqtisodiyotning samarali tuzilmasi shakllantirilishini taqozo etadi. Hududiy rivojlanishning nazariy jihatlarini chuqur o'rganish asosida erkinlashtirish sharoitida mamlakatimiz hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasi amalda ro'yobga chiqarilishi zarurligini belgilab beradi.

Mustaqillik yillarida sobiq SSSRdan qolgan hududiy nomutanosiblikni bartaraf etish, mintaqalarning tabiiy va mineral xomashyo resurslaridan, mavjud ishlab chiqarish, ilmiy-texnik va eksport salohiyatidan samarali va oqilona foydalanish maqsadida mintaqalarni proporsional, mutanosib rivojlantirishni ta'minlash O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishi deb belgilandi. Davlatimiz rahbari I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "Iqtisodiyotimizning hududiy tarkibini takomillashtirish, foydalanilmayotgan resurslar va iqtisodiy imkoniyatlardan yuqori darajada va samarali foydalanish, shakllanib qolgan hududiy nomutanosibliklarni bartaraf etish hozirgi kundagi eng muhim masala – ishsizlikka qarshi samarali kurashish imkonini beradi."[2]

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko'p omilli va shu bilan birga ziddiyatli jarayon hisoblanadi.Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish hech qachon bir tekis, yuqorilab boruvchi chiziq bo'yicha ro'y bermaydi. Hududlar ijtimoiy- iqtisodiy

---


[2] Karimov I.A.O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.- T.: O'zbekiston, 1997. – 206 – bet.

rivojlanishi to'g'risida fikr yuritganda ular bilan bog'liq nazariyalarni keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir.Hududiy o'sish nazariyalarini ko'rib chiqishda ikki xil asosiy yondashuv mavjud. Birinchisi – hududlarda iqtisodiy o'sish modellarini qo'llash. Bunday modellarni mamlakat iqtisodiyotining o'sishini izohlash uchun ishlab chiqilgan modellarga o'xshatish mumkin. Ikkinchisi esa, alohida korxona va firmalarning hatti – harakatlarini tahlil etishga asoslangan.Chunki hududlarning iqtisodiy rivojlanishini, avvalambor, ularning faoliyatigina aniqlab beradi.Ushbu nazariyalar bilan ham iqtisodiy geografiya mutaxassislari, ham iqtisodchilar shug'ullanishgan. Turli mamlakatlarda hududiy nazariyalarning turli yo'nalishlariga ustuvorlik berilgan. Hududiy nazariyalarni o'rganish mamlakatimizda ishlab chiqilayotgan va amalga oshirilayotgan hududiy tartibga solish tadbirlari uchun uslubiy vosita bo'lib xizmat qiladi. O'tgan asrning 70 – yillarigacha "iqtisodiy rivojlanish" deyilganda mamlakatning ishlab chiqarishni aholi o'sish suratlaridan yuqoriroq suratlarda oshirish qobiliyati tushunilar, rivojlanish jarayoninig miqdoriy o'lchovi sifatida "iqtisodiy rivojlanish darajasi" tushunchasi xizmat qilar, u mamlakat milliy daromadini uning aholi soniga bo'lish orqali aniqlanar edi.YaMM va YaIMning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan hajmining miqdoran tez o'sishi farovonlik mezoni deb hisoblandi. Kambag'allik, ishsizlik va daromadlar taqsimotini rivojlantirishni jadallashtirish masalalari keying o'rinlarga qoldirildi. Hozirgi kunga kelib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish deb, mamlakatda ishlab chiqarish, bandlik darajalarini orttirish va ishsizlik, inflyatsiya darajalarini pasaytirish imkoniyatlarining kengayishiga aytiladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tufayli mamlakatda iqtisodiy o'sish ta'minlanadi va shu asosda o'sib boruvchi ehtiyojlar qondira boriladi. Buning evaziga mamlakatda cheklangan turli xil resurslardan samarali foydalanib, ko'proq tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish ta'minlanadi. Bu esa bozorlarda mahsulot turlarining ko'payishi va narxlarning barqarorligini ta'minlaydi.Bundan tashqari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish aholini ish bilan ta'minlash, pulning qadrsizlanishini oldini olish, aholini ijtimoiy himoya qilishning asosiy shartidir.Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish nazariyasi makroiqtisodiyot darajasida tahlil qilinib, uning sohalari,

ko’rsatkichlari, omillari o’rtasidagi bog’lanishlarni, iqtisodiy o’sish yo’llarini aniqlab ko’rsatadi va davlatning ichki va tashqi iqtisodiy siyosatida ilmiy asos bo’lib xizmat qiladi. Shunday qilib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish – ko’p o’lchamli jarayon bo’lib, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy taraqqiyotida o’z ifodasini topadi.

Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish aholining turmush darajasini ko’tarish, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, hududlardagi xomashyo bazasi va mehnat salohiyatidan samarali foydalanish bilan bog’liq bo’lgan muammolarni faqat o’rta va uzoq muddatga mo’ljallangan dasturlar va istiqbol rejalari orqali hal etish imkonini beradi. Mamlakat doirasida ishlab chiqilgan hududlarni kompleks rivojlantirish yagona strategiyasi har bir hududning o’ziga xos tabiiy-iqtisodiy salohiyatiga to’g’ri keluvchi strategiyaga asoslangan bo’ladi(1.1.1- chizma).



1.1.1- chizma.Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solish strategiyasi

Manba: Erkaeva G.P. “Mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining strategik yo’nalishlari (Qashqadaryo viloyati misolida)” iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Samarqand,2008 yil. 25-bet.

Imiy asoslangan strategiyaning maqsadi – ma'lum ichki va tashqi mablag' va resurslarni jamlab safarbar qilgan holda, hududning tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish va uning barqaror iqtisodiy o'sishi hamda aholi turmush darajasini yuksaltirishga erishishdir. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish nafaqat miqdor, balki muayyan sifat o'zgarishlari shaklida ham namoyon bo'ladi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish suratlari uning mezonlariga va eng avvalo, sifat ko'rsatkichlariga ko'proq e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday o'sishlar iqtisodiyotimizda yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlar, uning izchil va barqaror rivoji uchun xizmat qilishi, xalqimizning hayot darajasini yuksaltirishga, bir so'z bilan aytganda, amaliy hayotimizni yaxshilashga olib keladi.

Jahon tajribasi ko'rsatmoqdaki, iqtisodiyotni davlat tomonidan samarali boshqarishga mahalliy xususiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar mahalliy hokimiyat organlari va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan hal etilgandagina erishiladi. Bunda respublika hokimiyat organlari e'tibori umummilliy xususiyatdagi qarorlarni qabul qilish, iqtisodiyot rivojlanishining istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash va shu asosida faoliyat ko'rsatish, qonunni himoya qilish va himoyalash kabi ishlarga qaratilgan bo'ladi. Hududlarning iqtisodiy rivojlanishini tartibga solish zaruriyati ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni (bandlik, ijtimoiy himoya, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va boshqalar) o'zlariga biriktirilgan daromadlar manbalari hisobiga hal etishda ko'proq erkinlik va vakolatlar berilganda yuzaga keladi. Ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti iqtisodiyotni rivojlantirish, aholining turmush farovonligini oshirish uchun sharoit yaratib beradi. Respublikamizda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti davlat mustaqilligining iqtisodiy asosi sifatida olingan bo'lib, ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi sharoitlariga eng ko'p darajada mos keladi. Bunday ko'rinishdagi bozor iqtisodiyoti korxonalarni va jismoniy shaxslarning ish faoliyatlarini erkin yurgizishlari uchun, ularning ishbilarmonlik, tadbirkorlik faoliyatlarini davlat qonunlari, huquqiy kafolatlar asosida, moddiy rag'batlantirishlar asosida olib borishni ta'minlashi lozim. Barcha turdagi mulklarning qonuniy va huquqiy asosda tengligini, ish yurituvchilar erkinligini,

respublikadagi milliy an'ana, urf-odat va qadriyatlarni e'tiborga olishi, insonlarning faoliyatlarini to'liq shart-sharoitlar bilan ta'minlashi lozim.

Prezidentimiz I.A.Karimov respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o'tish davri siyosatining tayanchi va iqtisodiyotni tubdan isloh qilishning asosi bo'lmish beshta muhim va mashhur tamoyilni ishlab chiqdi. Ularning asosiy mazmuni quyidagilardan iborat:

birinchidan, iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak; u biror mafkuraga bo'ysundirilishi mumkin emas. Buning ma'nosi shuki, iqtisod siyosatdan ustun turishi kerak. Ham ichki, ham tashqi iqtisodiy munosabatlarni mafkuradan holi qilish zarur;

ikkinchidan, davlat bosh islohotchi bo'lishi lozim. U islohotning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishi, o'zgartirishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchillik bilan o'tkazishi, jaholatparastlar (retogradlar) va konservatorlar qarshiligini bartaraf etishi shart;

uchinchidan, qonunlarga rioya etish ustuvor bo'lishi lozim. Buning ma'nosi shuki, demokratik yo'l bilan qabul qilingan yangi konstitutsiya va qonunlarni hech istisnosiz hamma hurmat qilishi va ularga og'ishmay rioya etish lozim;

to'rtinchidan, aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosatni o'tkazish. Bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta'sirchan choralar ko'rilishi lozim. Bu bozor iqtisodiyoti yo'lidagi eng dolzarb vazifa bo'lib qoldi va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi;

beshinchidan, bozor iqtisodiyotiga o'tish obyektiv iqtisodiy qonunlarning talablarini hisobga olgan holda, o'tmishdagi "Inqilobiy sakrashlarsiz", ya'ni evolyutsion yo'l bilan, puxta o'ylab, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak. Buning ma'nosi shundan iboratki, respublikada bozor iqtisodiyotiga o'tish, bozor munosabatlarini o'rnatish ma'lum qiyinchiliklarsiz amalga oshmaydi. Ammo bu davrda aholining manfaatlarini himoya qilish kuchayishi kerak. Buni faqat kuchli qayta taqsimlash vositasiga asoslangan davlatgina amalga oshirishi mumkin. Davlat iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda faol qatnashishi, uning

tashabbuskor bo'lishi va izchillik bilan amalga oshirilishi lozim. Buning uchun davlat iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishlarini ishlab uni tatbiq etishi, nazorat qilish kabi vazifalarni bajarish uchun maxsus idoralariga ega bo'lishi kerak. Shundagina davlat islohot jarayonining barcha bosqichlarida yetakchi islohotchi ekanligini tasdiqlashi mumkin. Davlat ishlab chiqarishga iqtisodiy vositalar bilan, iqtisodiyotni tushungan holda, belgilangan maqsad sari boshqara boradi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida O'zbekiston mintaqalari rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishning bosh maqsadi ijtimoy-iqtisodiy rivojlanish bo'yicha keskin tafovutlarga yo'l qo'ymaslik maqsadida hududlarni barqaror rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratish va qo'llab – quvvatlashdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalar ko'zda tutiladi:

— mamlakat barcha hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini imkon qadar bir-biriga yaqinlashtirish;

— hududlar tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish;

— ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishi va ularni joylashtirishdagi asossiz nomutanosibliklarni bartaraf etish;

— hududlarni oqilona xo'jalik ixtisoslashuvini ta'minlash va hududlararo iqtisodiy aloqalarni maqbullashtirish;

— mintaqalararo va tashqi iqtisodiy integratsiya, ayrim hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ajralib qolishiga yo'l qo'ymaslik va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Qonunlar va qonunosti hujjatlari hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solishning huquqiy shakllari hisoblanadi. Ammo, bozor munosabatlariga o'tish sharoitida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi iqtisodiyotning asosiy qonunlarini ishlab chiqish bilan mashg'ul ekanligi tufayli, mamlakatimiz hududlari rivojlanishini tartibga solishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, hukumat qarorlari va farmoyishlari hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Ijroiya hokimiyatining hududlar rivojlanishini tartibga solish bo'yicha tashkiliy-institutsional tuzilmasi bir qator vazirlik va idoralar ishtirokida Vazirlar Mahkamasi tomonidan shakllantiriladi. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy

rivojlantirishning yagona siyosati Iqtisodiyot vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Iqtisodiyotning ayrim sektorlari va tarmoqlari bo'yicha hududiy rivojlanish muammolari bilan Markaziy bank, Moliya vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi va boshqalar shug'ullanadi. Mustaqillik yillarida respublikamizda hududlarni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirildi:

— mintaqalar, tumanlar va bir guruh tumanlarning kompleks rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish;

— mineral xomashyo resurslarini kompleks o'zlashtirish, yer-suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish;

— sanoat tarmoqlarini rivojlantirishning respublika va hududiy dasturlarini ishlab chiqish, eski ishlab chiqarish quvvatlarini qayta ixtisoslashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish asosida yangi zamonaviy korxonalar qurish;

— mahalliy tabiiy-iqlim xususiyatlari asosida qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning respublika va hududiy dasturlarini ishlab chiqish, hududlar qishloq xo'jaligini ixtisoslashtirish;

— bandlik, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, qishloq aholisini tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan ta'minlash va boshqa respublika dasturlarini amalga oshirish;

— respublika va mahalliy boshqaruv tizimini takomillashtirish;

— mahalliy byudjetni mustahkamlash, hududlarga dotatsiya va subvensiyalar ajratish;

— qulay hududiy-xo'jalik boshqaruv tizimini tashkil etish maqsadida mamlakatning ma'muriy-hududiy bo'linishini takomillashtirish.

Hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishni tartibga solish makro-mikro darajada qo'llaniladigan turli bevosita va bilvosita, ma'muriy, huquqiy va iqtisodiy mexanizmlardan foydalangan holda turli vositalarni qo'llashni talab etadi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni tartibga solishda iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani isloh qilish

hamda yuksaltirishning respublika maqsadli tarmoq, tarmoqlararo va hududiy dasturlar ishlab chiqish va ular asosida mahalliy hokimiyat organlari tomonidan hududiy dasturlar ishlab chiqish muhim rol o'ynaydi. Ularni to'rt guruhga ajratish mumkin:

1. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish, hududlarda to'laqonli bozor infratuzilmasini tashkil etishga yo'naltirilgan institutsional o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan dasturlar.

2. Asosiy sanoat tarmoqlarini, qishloq xo'jaligi va iqtisodiyotning boshqa real sektorlarini rivojlantirish, investitsiya va tashqi iqtisodiy faoliyatni kengaytirish, tabiiy iqtisodiy salohiyatdan oqilona foydalanish, transport-kommunikatsiya va ishlab chiqarish infratuzilmasi hamda uning boshqa sohalarini to'liq shakllantirishga yo'naltirilgan dasturlar.

3. Ijtimoiy tarmoqni rivojlantirish dasturlari: Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, kasb-hunar kollejlari va litseylarini tashkil etish hamda ularning moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash, umumta'lim maktablarini rivojlantirish, sog'liqni saqlash va kommunal xo'jalikni qayta shakllantirish, qishloq ijtimoiy infratuzilmasini shakllantirish, chakana savdo korxonalari, umumiy ovqatlanish va maishiy xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirish.

4. Hududlar va ayrim tumanlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish.

Makroiqtisodiy dastaklar muayyan hududlarda iqtisodiy subyektlar faoliyatiga ta'sir qiluvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Bular sirasiga imtiyozli soliqlar, bojxona imtiyozlari, kredit berish va boshqalar kiradi. Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy iqtisodiy mexanizmi byudjet tizimi hisoblanadi. Joylarda mahalliy byudjet tushumlarining yangi manbalarini qidirib topish va byudjet intizomiga rioya qilish asosiy vazifalardan biridir. Hududlar iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishini tartibga solishda bevosita boshqaruv usullaridan keng foydalaniladi. Davlat tomonidan iqtisodiy islohotlarni rag'batlantirish va ularni chuqurlashtirishni qo'llab-quvvatlash respublika byudjeti,

hududlarga dotatsiyalar va subvensiyalar berish hisobiga maqsadli dasturlar va yirik investitsiya loyihalarini bajarish orqali hududlar rivojlanishiga davlat tomonidan ta'sir qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.Hududlar va tumanlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni tartibga solishda dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish bevosita boshqarishning asosiy uslublaridan biri hisoblanadi. Hududlarni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishni tartibga solishning asosiy dastaklari investitsiya va hududiy dasturlar hisoblanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, mamlakatimiz hududlarining barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash respublikamizda yuritilayotgan iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lmoqda. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishi, turmush sharoitlarining yaxshilanishi ham bevosita ularning iqtisodiyoti rivojlanishi bilan bog'liq. Mamlakat iqtisodiyoti hududlardan tarkib topgan bir butun tizimni tashkil etgani sababli, uning har bir mintaqasidagi rivojlanishni ta'minlash mamlakatimizning uzluksiz taraqqiyotiga zamin yaratadi.

1.2 Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini kompleks baholashning asosiy ko'rsatkichlari va ularni hisoblash usullari.

Endi mamlakatimiz hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini kompleks jihatdan baholovchi ko'rsatkichlar to'g'risida to'xtaladigan bo'lsak, hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich bo'lib, yalpi hududiy mahsulot (YaHM) hisoblanadi. Yalpi hududiy mahsulot (YaHM) – bu ma'lum bir hududda yil davomida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning bozor bahosi. Yalpi hududiy mahsulot (YaHM) quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$\mathbf{YaHM = YaICH - OI} \qquad \mathbf{(1)}$$

Bu yerda:

YaICH – yalpi ishlab chiqarish;

OI – oraliq iste'mol.

Yuqoridagi formula qo'shilgam qiymatni bildirib, hudud bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymatni aniqlaydi. Ma'lumki, yalpi ichki mahsulot (YaIM) va yalpi

qiymatga yalpi ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarga soliqlar qo'shib hisoblanadi va yuqoridagi formula quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\mathbf{YaHM = YaICH - OI + S_{mx}} \quad (2)$$

Bu yerda:

S_{mx} – mahsulot va xizmatlarga soliqlar.

Bundan tashqari hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini baholovchi ko'rsatkichlarga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, xalq istemoli mollari ishlab chiqarish, hududlar iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan investitsiyalar, chakana savdo aylanmasi hamda xizmat ko'rsatish va servis sohasi kabilarni kiritishimiz mumkin.

Har bir hudud, viloyat yoki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi avvalo, shu joyda yashovchi aholining mehnat faoliyatiga bog'liq. Mahalliy aholining mehnat madaniyati, jamoa ishlaridagi ijtimoiy faolligi, bilim va malakalari, oilaviy tarkibi, yoshi va jinsi shu hududda iqtisodiy taraqqiyotning rivojlanishida katta rol o'ynaydi. Ayniqsa hududdagi mehnat resurslarining soni, ish bilan band bo'lganlar, ishsizlik kabi ko'rsatkichlar muhim ahamiyatga ega. Ulardan ba'zilarining hisoblanishini quyidagi formula va misollar orqali ifodalashga harakat qilamiz. Hududdagi mehnat resurslari soni quyidagi formula orqali hisoblab topiladi:

$$\mathbf{MR = B + INF + MM} \quad (3)^3$$

Bu yerda:

B – ish bilan band aholi;

INF – iqtisodiy faol bo'lmagan aholi;

MM – ishga joylashtirishga muhtoj aholi (ishsizlar).

Yuqoridagi formulani quyidagi amaliy misolda ko'rib chiqamiz. 2013 yil 1 yanvar holatida Qashqadaryo viloyati aholisining umumiy soni 2830,4 ming.kishini tashkil etib, shundan iqtisodiy faol aholi soni viloyat bo'yicha 1094982 kishini, shu jumladan, iqtisodiyotda band aholi 1036662 kishi va ishsizlar 58320 kishini hamda

---

[3] Abdurahmonov Q.X., Shoyusupova N.T., "Mehnat iqtisodiyoti: ijtimoiy mehnat munosabatlari"- TDIU.Toshkent. 2011. 268-bet.

iqtisodiy nofaol aholi soni esa 523118 kishini tashkil qilgan. Ushbu ko'rsatkichlardan foydalangan holda, yuqoridagi formula orqali viloyatning jami mehnat resurslarini hisoblab chiqamiz. Demak, yuqoridagi formulaga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, hududdagi jami mehnat resurslari soni hududdagi ish bilan band aholi, iqtisodiy nofaol aholi hamda hududdagi ish bilan band bo'lmagan aholi sonining yig'indisi asosida topiladi. Yuqoridagi viloyat ko'rsatkichlarini formulaga joylashtirib chiqamiz va viloyat jami mehnat resurslarini hisoblaymiz:

$$MR = 1036662 + 523118 + 58320$$

Demak, viloyatning 2013 yil 1 yanvar holatidagi jami mehnat resurslari soni 1618100 kishini tashkil qilgan.

Hududdagi aholining savodxonlik darajasi, bilimi va ma'lumot darajasi kabi ko'rsatkichlar ham aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Har yili mamlakatimizda davlat byudjetidan YaIM ning 12 foizi miqdoridagi mablag'lar aynan ta'lim sohasini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Shu sababli hududlardagi aholining umumiy ma'lumot darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlarni hisoblash muhim hisoblanadi. Aholining umumiy ma'lumotlilik darajasi quyidagi formula orqali topiladi:

$$\mathbf{K_{um} = I_{om} / I_{ch}} \quad (4)^4$$

Bu yerda:

I_{om} – oliy ma'lumotlilar soni;

I_{ch} – band aholining soni.

Keyingi yillarda respublikamiz hududlari yalpi hududiy mahsulotlarida ham barqaror o'sish ko'rsatkichlari qayd etilmoqda. Quyidagi 1.2.1-jadval ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2012 yilning 9 oyi davomida respublikamizning yalpi ichki mahsuloti 108,2 %ga o'sgan bo'lsa, yalpi hududiy mahsulot ko'rsatkichlarida Qoraqalpog'iston Respublikasi (110,4 %), Sirdaryo (110,7 %), Xorazm (108,7 %), Namangan (109,6 %), Samarqand (109,7 %), Buxoro (108,6 %) viloyatlari hamda Toshkent shahrida (110,3 %) yuqori o'sish

---

[4] Yakubov I.O., Ochilov K.T., Abdusattorova H.M., Sitdikova L.A. "Strategik rejalashtirish"- TDIU. Toshkent,2004. 206-bet.

borilayotgan oqilona ijtimoiy-iqtisodiy siyosat, hududlarimizda iqtisodiyotimizni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish ishlarining izchillik bilan amalga oshirilishi, chuqur tarkibiy o'zgartirishlar natijasida sanoat mahsulotlari va xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmlari ortib borayotganligi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ijobiy tadbirlar natijasida ushbu tarmoqning yalpi hududiy mahsulotda tutgan o'rni yuqori bo'lib borayotganligi hamda qishloq xo'jaligini rivojlantirish, xizmat ko'rsatish va servis sohasining tobora rivojlanib borayotganligi va boshqalar hududlarimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Albatta, yuqoridagi ijobiy natijalarga o'z-o'zidan erishilgani yo'q. O'zbekiston mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, mintaqalar investitsiya muhitining jozibadorligini oshirish va investitsiya jarayonlarini jadallashtirish maqsadida qator me'yoriy hujjatlar qabul qilinib, ular doimiy tarzda takomillashtirilib borilmoqda. Bu boradagi ishlar yuzasidan to'xtalib, Prezidentimiz jumladan shunday dedilar: " Biz mamlakatimizda xorijiy investorlar uchun muhim ahamiyat kasb etadigan investitsiya loyihalarini amalga oshirish yo'lida zarur bo'lgan barcha ishlab chiqarish infratuzilmalarini davlat mablag'lari hisobidan ta'minlash prinsipini nafaqat qabul qildik, balki uni amalda joriy etmoqdamiz."[3] Bu esa, o'z navbatida, mamlakat ichki investitsiya salohiyatining yuksalishi va xorijiy investitsiyalarning hajmi yildan-yilga ortib borishini, shunga mos ravishda makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, shu jumladan, yalpi ichki mahsulot hajmi ham o'sishini ta'minlamoqda. Hukumatimiz qarorlari, Prezidentimiz farmonlari va qarorlari asosida olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida mamlakatimizda faol investitsiya siyosati amalga oshirib kelinmoqda. Bugungi kunda yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni jadal modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashni ta'minlash,yuksak texnologiyalar asosida ishlaydigan avtomobilsozlik va gaz-kimyo, elektrotexnika va to'qimachilik, oziq-ovqat va farmasevtika,

---

[3] I.A.Karimov Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qatiyat bilan davom ettirish. 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruza/ Xalq so'zi, 2013 yil 19 yanvar.

1.2.1 jadval

Respublikamiz mintaqalarida yalpi hududiy mahsulotning o'sish ko'rsatkichlari, foiz hisobida

Hududlar	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2011 I-IIIchorak	2012 I-IIIchorak
Qoraqalpog'iston Respublikasi	107,7	107,8	107,5	108.2	110.0	112.0	112.8	110.4
Viloyatlar								
Andijon	110,1	110,6	111.3	109.6	110.5	111.3	111.1	107.3
Buxoro	105,6	109,8	104.5	104.9	109.6	109.1	110.0	108.6
Jizzax	107,6	107,6	108.1	106.9	110.2	110.6	113.2	108.5
Qashqadaryo	110,0	109,2	111.2	108.2	103.9	106.3	107.1	103.1
Navoiy	105,6	104,3	105.0	108.2	102.5	106.1	106.1	104.7
Namangan	107,7	109,7	109.0	109.9	112.4	110.0	112.7	109.6
Samarqand	109,2	111,2	107.8	109.7	113.6	110.9	114.0	109.7
Surxondaryo	110,0	107,7	105.1	106.8	111.2	110.9	111.1	106.5
Sirdaryo	107,5	104,4	108.1	105.2	110.2	109.4	111.3	110.7
Toshkent vil.	108,5	108,9	102.7	106.4	110.1	109.2	109.3	104.9
Farg'ona	106,4	106,2	106.0	106.8	105.8	107.9	117.2	105.9
Xorazm	107,3	106,2	106.1	106.4	110.2	108.4	110.8	108.7
Toshkent shahri	109,5	118,5	118.6	113.0	112.4	116.7	114.1	110.3
O'zbekiston Respublikasi	107.5	109.5	109.0	108.1	108.5	108.3	108.2	108.2

Manba: *O'zbekiston iqtisodiyoti. Axborot-tahliliy byulleten. 2012 yil yanvar-sentabr.Toshkent 2012, 87-bet.*

axborot va telekommunikatsiyalar tarmog'i hamda boshqa yo'nalishlardagi yangi va zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini yuritishga alohida e'tibor berilmoqda. Eng muhimi, xorijiy va mahalliy sarmoyadorlar uchun qulay, har tomonlama imtiyozli investitsiya muhiti yaratilgan.Ushbu yaratilgan investitsiya muhiti iqtisodiyotimizga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar hajmini, yildan-yilga ko'payishiga hamda hududlarimiz ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.Shu o'rinda Prezidentimiz I.A.Karimov o'tgan yil yakunlari sarhisobi haqida to'xtalib, jumladan shunday dedilar: "2012-yilda mamlakatimizning yuqori sur'atlar bilan barqaror o'sishini ta'kidlar ekanmiz, buning boisi va omilini avvalambor iqtisodiyotimizga yo'naltirilgan kapital mablag'lar, investitsiyalar tobora o'sib borayotganida, bu ko'rsatkich yalpi ichki mahsulotga nisbatan 22,9 foizni tashkil etganida, deb hisoblashimiz zarur."[4] Hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiya loyihalarini amalga oshirishning ahamiyati benihoya kata bo'lib, birinchidan, xorijiy investitsiyalar ko'magida korxonalarga zamonaviy texnika-texnologiyalar joriy etilib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlantiriladi, ikkinchidan, import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo'naltirish va pirovardida aholining turmush darajasini oshirish imkoniyati yaratiladi, uchinchidan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish orqali o'sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta'minlashga ko'maklashadi, to'rtinchidan, korxonalarning eskirgan ishlab chiqarish quvvatlari, moddiy-texnik bazasi yangilanadi va texnik qayta qurollantiriladi, beshinchidan, tabiiy resurslarni qayta ishlovchi korxonalar barpo etiladi va hokazo. Hududlar eksport salohiyatini rivojlantirish, hududlarga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushini ko'paytirish, xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi

---

[4]I.A.Karimov Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qatiyat bilan davom ettirish. 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruza/ Xalq so'zi, 2013 yil 19 yanvar.

korxonalar faoliyatini yo'lga qo'yish ustuvor vazifalardan bo'lib kelmoqda. Shu maqsadda iqtisodiyotimizga kiritilayotgan investitsiyalar tarkibida xorijiy investitsiyalar ulushi yildan-yilga ortib bormoqda."O'tgan yilda iqtisodiyotimizga 11 milliard 700 million dollar miqdorida ichki va xorijiy investitsiyalar jalb etildi yoki bu boradagi ko'rsatkich 2011-yilga nisbatan 14 foizga o'sdi. Jami investitsiyalarning 22 foizdan yoki 2 milliard 500 million dollardan ortig'ini xorijiy investitsiyalar tashkil etdi, ularning 79 foizdan ko'prog'i to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir."[5]Bugungi kunda yurtimizda olib borilayotgan faol investitsiya siyosatidan asosiy maqsad hududlarimizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni jadal modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashni ta'minlash, yuksak texnologiyalar asosida ishlaydigan avtomobilsozlik va gaz-kimyo, elektr texnikasi va to'qimachilik, oziq-ovqat va farmasevtika, axborot telekommunikatsiyalar tarmog'i hamda boshqa yo'nalishlardagi yangi va zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga qaratilgandir.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlaning hozirgi bosqichi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, unga keng iqtisodiy erkinlik berish bilan tavsiflanadi. Shu jihatdan, hozirgi kunda respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirish hududiy nazariyalarni o'rganish mamlakatimizda ishlab chiqilayotgan va amalga oshirilayotgan hududiy tartibga solish tadbirlari uchun uslubiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Kichik biznes kapital taqchilligi sharoitida ko'p mablag' talab etmaydigan xo'jalik faoliyati sifatida resurslar aylanmasining yuqori suratlarini ta'minlaydi, iqtisodiyotni qayta qurish, iqtisodiy nobarqarorlik va resurslar cheklanganligi sharoitida iste'mol bozorini shakllantirish va uni to'ldirish muammosini tez hamda tejamli tarzda hal etadi. Kichik korxonalar iste'mol talabining o'zgarishiga darhol moslashadi va shu yo'l bilan iste'mol bozoridagi zaruriy muvozanatni ta'minlaydi.

---

[5] I.A.Karimov Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qatiyat bilan davom ettirish. 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruza/ Xalq so'zi. 2013 yil 19 yanvar.

Hozirgi paytda ushbu soha nafaqat iqtisodiyotning o'sish suratlarini jadallashtirishda, balki mamlakatimiz uchun nihoyatda muhim bo'lgan bandlik va aholi daromadlarini oshirish masalalarini hal etishda ham yetakchi o'rin tutmoqda. Zero, Prezidentimiz ta'birlari bilan aytganda, "Eng muhimi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti tarkibida hal qiluvchi tarmoqqa, ijtimoiy faol aholimizning kata qismini qamrab olgan sohaga aylandi. Hozirgi vaqtda – shunga urg'u berib aytmoqchiman – ish bilan band aholimizning 74 foizdan ortig'i aynan shu sohada mehnat qilayotgani buning yaqqol tasdig'idir"[6]. Ma'lumki, hududlar tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlash, aholi turmush darajasini oshirishning muhim shartlaridan biridir. Iqtisodiyot rivojlanishining yangi bosqichi raqobatli bozor muhitini yaratish muammosini tarmoq darajasidan mintaqa darajasiga o'tkazdi. Mamlakat iqtisodiyotining mintaqa tizimi tarmoq tizimiga qaraganda barqarordir. Biroq, ish bilan bandlik muammosining yumshatilishi, aholi real daromadlarining ortishi, soliq tushumlari ko'payishi, mahalliy byudjet daromadlari o'sishi, iqtisodiyotda sog'lom raqobat muhiti yaratilishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik orqali amalga oshishini hisobga olsak, shahar va tumanlar, turli sektorlar orasidagi o'zaro mutanosibliklarga erishish uchun maqsadli dasturlar qabul qilish, asosan hududiy omillarni hisobga olgan holda takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekistonning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish va mavqeyini mustahkamlashda ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va mamlakatimizdagi xom ashyo va resurslardan oqilona foydalanib, yuksak texnologik mahsulotlarni ishlab chiqarishni ta'minlaydigan iqtisodiyot tarmoqlari, ya'ni sanoatni rivojlantirish orqali erishiladi. "2011-2015 yillarda O'zbekiston sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida" gi dasturlarda ham, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini kamida 60 foizga oshirish, yalpi ichki

---

[6] I.A.Karimov. Bizning yo'limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza/Xalq so'zi, 2011 yil 8 dekabr.

mahsulotda uning ulushini 2010 yildagi 24 foizdan 2015 yilda 28 foizga ko'paytirish va mos ravishda ushbu sohada kichik biznesning ulushini oshirib borish ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi. Shunday qilib, kichik biznesning rivojlanishi hisobiga xususiy mulkchilik sohasi kengayadi, bu jamiyat va davlatning tayanchi bo'lib xizmat qiluvchi o'rta hollar sinfining shakllanishi, mamlakatda barqarorlikning muhim sharti bo'lib xizmat qiladi.

Hududlarni kompleks rivojlantirishda asosan, hududlar o'rtasidagi nomutanosibliklarni oldini olish, qishloq xo'jaligi infratuzilmasining taraqqiyoti yangi, zamonaviy va asosiysi bugungi kun bozor iqtisodiyoti talablariga javob bera oladigan texnika va texnologiyalarning jalb etilishi, nafaqat qishloq xo'jalik korxonalarining rivojlanishi, kichik biznes korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali qishloq joylarda yangi ish o'rinlarini yaratish, tasdiqlangan investitsiya loyihalarini amalga oshirilishini ta'minlash, hududning qisqa va uzoq muddatli rivojlantirish loyihalarini tasdiqlash va amalga oshirish, mavjud sanoat korxonalarini to'la quvvatda ishlatish, bo'sh turgan bino va inshootlarda ishlab chiqarishni tashkil etish, xizmatlar sohasini rivojlantirish, bundan tashqari, qishloqda istiqomat qiluvchi mehnatga layoqatli aholi uchun kafolatlangan ish o'rinlari tashkil etish, ayniqsa ixtisoslashgan kasb-hunar ta'lim muassasalarini bitiruvchi yoshlarni ish bilan ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

II BOB. QASHQADARYO VILOYATI KASBI TUMANINING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI HOZIRGI HOLATINI KOMPLEKS BAHOLASH.

2.1 Tumanning umumiy tavsifi va xususiyatlari.

Kasbi tumani 1970 yil 16 oktabrda (oldin tuman hududlari Qarshi tumani tasarrufida bo'lgan) tashkil etilgan.Tuman viloyatning janubi-g'arbiy qismida joylashib, viloyatning Koson tumani bilan 20 km.,Qarshi tumani bilan 27,5 km.,Mirishkor tumani bilan 51,5 km. va Muborak tumani bilan 29 km uzunlikdagi chegaralar bilan bog'langan.Tumanning umumiy yer maydoni 0,7 ming kv.km (viloyat hududining 2,4 foizini) ni yoki 73479 gektarni tashkil etadi.Tuman chegarasining umumiy uzunligi 128 kmdan iborat.Kasbi – qadimdan Buyuk Ipak yo'li ustida joylashgan shahar bo'lganligi uchun, tarixning shahodat berishicha eng obod va boy shahar, unda o'nlab karvonsaroylar, sardobalar hamda qadimda ilm-fan bilan birga hunarmandchilik, kosibchilik rivojlangan hududlardan biri bo'lgan.Tuman iqtisodiyoti asosan qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan.

Kasbining tarixi miloddan avvalgi yillarga borib taqaladi. Bu yerdan Buyuk Ipak yo'lining o'tganligi shaharning obodonchiligi va rivojlanishiga ijobiy ta'sirini ko'rsatgan. Uzun karvonlar turli davlatlarga o'tish va qaytishda o'nlab karvonsaroylarda to'xtab dam olishgan.Tarixiy manbalarga ko'ra qadimda Kasbi hunarmandchilik, kosibchilik rivojlangan shaharlardan biri bo'lgan. Bu yerda yashovchi aholi turli kasb va hunar bilan mashg'ul bo'lgan. Kulolchilik an'anasi hozirgi kunga qadar saqlanib kelgan.Kulolchilik sulolasining 6-7 avlodlari vakillari hozirgi kunda ham 20 ga yaqin mahsulotlar tayyorlamoqdalar.Bu mahsulotlar respublikamiz va xorijda ham o'z xaridorlariga ega.Shuningdek, temirchilik, zardo'zlik va gilamchilik an'analari ham davom ettirib kelinmoqda.

Tuman hududida XII-XVI asrlarga oid tarixiy obidalar mavjud.Ular o'rtasida "Hazrati Sulton Mir Haydar" tarixiy yodgorliklar ansambli alohida o'rin tutadi.Shuningdek ansambl hududida "Namozgoh", 2 ta yopiq va bitta ochiq sardobalar mavjud. Bundan tashqari tumanda "Murodbaxsh ota", "Muhammad Sadir Islom", "Sayido Nasafiy" kabi o'nlab ziyoratgoh va tarixiy obidalar

ro'yxatga olingan.Tarixiy manbalarda qayd etilishicha o'tmishda Abu Ahmad Iso ibn Husayn al-Kasbaviy, Abu Muhammad Jafar ibn Muhammad al-Kasbaviy, Abul Hasan Ali ibn Ibrohim al-Kasbaviy, Abul Muayyad Munir ibn Muhammad al-Kasbaviy, Abu Nasr Ahmad ibn Ismoil al-Kasbaviy kabi o'nlab buyuk olimlar Kasbi hududidan yetishib chiqqanlar.

Tumanning umumiy aholisi 2013 yil 1 yanvar holatiga 169,5 ming kishini (viloyat aholisining 6 foizi) tashkil etgan. Shundan erkaklarning umumiy soni 85,6 ming kishini va ayollar soni 83,9 ming kishidan iborat bo'lgan. Tumanda 65,1 ming (38,4 foiz) kishi shahar va shahar tipidagi posyolkalarda hamda 104,4 ming (61,6 foiz) kishi qishloqda istiqomat qiladi.Aholining 94,4 foizini o'zbeklar (160 ming kishi), 5 fozini tojiklar (8475 kishi) va 0,6 foizini (1025 kishi) rus, tatar va boshqa millat vakillari tashkil etadi.Tumanda 9 ta shahar tipidagi posyolka, 10 ta qishloq fuqarolar yig'ini va 26 ta mahalla fuqarolar yig'ini mavjud.Aholining 93,2 ming nafari (55 fozi) mehnatga layoqatli aholi bo'lib, shundan 56,8 ming nafari (61 fozi) iqtisodiyot tarmoqlarida faoliyat yuritmoqda.

Tumanning umumiy qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlari 51139 gektarga teng bo'lib, shundan cho'lli hududlar 262 ga, yaylovlar 4776 ga hamda boshqa yerlar 46363 gani tashkil etadi. Haydaladigan yerlarning umumiy maydoni 44472 ga dan iborat bo'lib, shundan sug'oriladigan yerlar 44515 ga va lalmikor yerlar 43 ga ni tashkil qiladi.Tumanda jami sho'rlangan yerlar maydoni 330 ga ni tashkil qilib, shundan 0,05 ga kuchli sho'rlangan yerlar, o'rta sho'rlangan yerlar 5,78 ga va kuchsiz sho'rlangan yerlar 22,53 ga dan iborat. Ko'p yillik daraxtzorlar egallagan umumiy maydon 1891 gektarga teng bo'lib, shundan 1085 gektarini mevali bog'lar tashkil qiladi.

Kasbi tumanining o'ziga xos tabiati bor. Bahor erta keladi. Yozi jazirama issiq. Harorat 45-50 darajagacha ko'tariladi. Kasbi tumani viloyatning boshqa tumanlaridan farqli ravishda, viloyatning eng kichik maydoniga ega bo'lib, cho'l, tog' mavjud bo'lmagan, lalmi yerlari kam, yer maydonlari tekis va unumdorligidan dehqonchilik uchun o'ta qulay, to'liq o'zlashtirilgan hududlardan biri hisoblanadi.Tuman hududining asosiy qismini tekislik va unumdor, o'zlashtirilgan

yerlar tashkil etganligi hisobiga dehqonchilik va chorvachilik rivojlanishiga asos bo'lgan. Kasbilik dehqonlar paxta va g'alla yetishtirishning siru-asrorlarini puxta o'zlashtirishgan. Hozirgi kunda tumanda 510 ta fermer xo'jaligi hamda 30300 ta dehqon xo'jaligi faoliyat yuritmoqda. Tuman dehqonlari bu borada nafaqat viloyatimizda, qolaversa respublikamizda etakchilardan hisoblanadi. Jumladan, tumanda 2012 yilda 22350 ga maydonga paxta ekilib 61714 tonna paxta va 15953 ga maydonga g'alla ekilib 87290 tonna g'alla xirmoni bunyod etildi. Bugungi kunda tuman viloyatda chorvachilik sohasida ham o'z mavqeyiga ega. Jumladan, viloyatdagi qoramollarning 8,2 foizi (97904 bosh), shundan sigirlarning 7,5 foizi (35324 bosh), qo'y va echkilarning 3,7 foizi (137753 bosh), parrandaning 4 fozi (113313 bosh) va yilqilarning 4,8 foizi (1151 bosh) tuman hissasiga to'g'ri keladi.Tumanda "Yurt rizqi", "Amonov Suyun", "THE WEST STAR", "Oq-buloq" kabi chorvachilik fermer xo'jaliklari naslchilik yo'nalishiga ixtisoslashtirilib, har yili chorvachilik fermer xo'jaliklarida 300-310 bosh naslli qoramollar tayyorlanib sotilmoqda.

Tumanda ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratilib, yoshlarning o'qib bilim olishlari uchun zamonaviy sharoitlar yaratib berilmoqda.Tumanda bugungi kunda 59 ta umumta'lim maktablari faoliyat ko'rsatib, undagi o'quvchilar soni 28500 kishini, undagi o'qituvchilar soni 3100 tani tashkil etadi.Tumandagi maktabgacha ta'lim muassasalari soni 23 tani tashkil etib, unda 1500 nafar bolalar tarbiyalanmoqda. Ushbu muassasalarda 146 nafar tarbiyachi faoliyat ko'rsatmoqda. Tumanda 8 ta kasb-hunar kollejlari faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularda 6900 nafar yigit-qiz tahsil olmoqda. Kollejlarda 504 nafar pedagog o'qituvchilar faoliyat yuritib yoshlarga turli fanlardan saboq berib kelmoqdalar.

Tumanda aholi salomatligini yaxshilash, uning ijtimoiy hayotdagi mavqeyini oshirish maqsadida bir qancha ijobiy ishlar amalga oshirib kelinmoqda.Tumanda 420 o'ringa mo'ljallangan keng tarmoqli kasalxona faoliyat yuritib, undagi vrachlar soni har 10 ming kishiga 10,8 va tibbiy hamshiralar soni har 10 ming kishiga 91,7 kishini tashkil etadi. Tumanda qishloq vrachlik punktlari soni 30 tani tashkil etib, ularning qabul quvvatlari 1580 ga tengdir.

Tumanda jami avtomobil yo'llarining uzunligi 1018,2 km. ni tashkil qilib, shu jumladan respublika ahamiyatidagi yo'llar 83 km, hudud (viloyat) ahamiyatidagi yo'llar 130 km va mahalliy xo'jaliklararo yo'llar 805,2 km ni tashkil qiladi.


Tuman sanoati haqida to'xtaladigan bo'lsak, tumanda 77 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib, ularning 35 tasi xalq iste'mol tovarlari, shundan 25 tasi oziq-ovqat va 10 tasi nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarini tashkil qiladi. Korxonalarda 15 turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Sanoatda asosan paxta tolasi, sut, pishloq va brinza mahsulotlari, makaron, mebel va boshqa turdagi mahsulotlar ishlab chiqariladi. Tumanda 2013 yil 1 yanvar holatiga ro'yxatdan o'tgan xo'jalik yurituvchi subyektlar soni 5268 ta bo'lib, shundan kichik biznes subyektlari soni 5091 tani tashkil etdi.

Tumanda keyingi 20 yil davomida ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda ulkan yutuqlarga erishilmoqda. Jumladan, tumanda 1991 yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 7 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2013 yil 1 yanvar holatiga bu ko'rsatkich 56,1 mlrd. so'mga yetdi. Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish 2000 yilda 0,3 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2012 yilga kelib bu ko'rsatkich 3,5 mlrd.so'mni tashkil etmoqda. Aholi jon boshiga hisoblaganda bu ko'rsatkich 2000 yilda 1800 so'mga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2012 yilda 21000 so'mni tashkil etgan. 2000 yilda 600 ta kichik biznes korxonalari ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, 2013 yil 1 yanvar holatiga ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlik subyektlari soni 5091 tani tashkil qildi. Maishiy xizmat ko'rsatish shaxobchalari soni 2000 yilda 219 tani tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilga kelib ularning soni 550 tani tashkil etdi. Milliy hunarmandchilik sohasida 2012 yilda 260 dan ortiq kashtado'zlar, chevarlar, zardo'zlar, etikdo'zlar, gilamdo'zlar, kulollar, temirchilar, yog'ochga bezak beruvchilar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2000 yilga nisbatan 2 marta ko'p demakdir. 2012 yilda tumanda 6150 ta avtomobil bo'lib, aholi jon boshiga hisoblaganda har 27 kishiga 1 ta avtomobil to'g'ri kelgan. Tuman aholisiga 38930 ta televizor har to'rt kishiga 1 ta televizor, 31853 ta muzlatkich har besh kishiga 1 ta muzlatgich, 53155 ta boshqa maishiy jihozlar har uch kishiga 1 ta

maishiy jihozlar to'g'ri kelmoqda. 1991 yili tumanda 45 millat va elatga mansub 97 mingdan ortiq aholi istiqomat qilgan bo'lsa, 2013 yil 1 yanvar holati bo'yicha tumanda 5 millatga mansub 169,5 ming aholi istiqomat qilishi qayd etildi.1991 yili aholining 41 foizi ichimlik suvi va 19,6 foizi tabiiy gaz bilan taminlangandi. 2012 yilda esa tabiiy gaz ta'minoti 83 foizga va ichimlik suvi ta'minoti 75 foizga yetdi.

2.2 Tumanning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish darajasi ko'rsatkichlarining tahlili.

Tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini tahlil qilar ekanmiz, mustaqillik yillarida tumanda barcha sohalarda ijobiy ishlar amalga oshirilayotganining guvohi bo'lamiz. Jumladan mamlakatimizni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash jarayonlari ketayotgan bir paytda tumanda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish yildan-yilga oshib, sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lib bormoqda.



2.2.1-rasm. 2008-2012 yillar davomida Kasbi tumanida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mln.so'mda

Manba: *Kasbi tuman Iqtisodiyot bo'limi ma'lumotlari*

Yuqoridagi rasm ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, tumanda yalpi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2008 yilda 42598,6 mln.so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2012 yilga kelib 56173,1 mln.so'mga yoki o'sish 2008 yilga nisbatan 132 % ga oshganligini ko'rsatmoqda.

2.2.1-jadval

Tumanda iste'mol mollari ishlab chiqarish, yangi sanoat korxonalarini ishga tushirish va modernizatsiya qilish ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2008	2009	2010	2011	2012
Iste'mol mollari ishlab chiqarish	mln. so'm	2008,4	2066,0	2571,1	2969,3	3430,2
O'sish surati o'tgan yilga nisbatan	%	119,3	102,9	103,3	119,9	111,7
Yangi sanoat korxonalarini ishga tushirish	birlikda	7	11	16	14	22
Modernizatsiya qilingan korxonalar	birlikda	0	4	4	2	1

Manba:*Kasbi tuman Iqtisodiyot bo'limi ma'lumotlari*

Tumanda 2008 yilda iste'mol mollari ishlab chiqarish 2008,4 mln.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilda bu ko'rsatkich 3430,2 mln.so'mga oshib, o'sish 2008 yilga nisbatan 170 % ga yetganligini ko'rsatmoqda. Yangi sanoat korxonalarini tashkil etish 2008 yilda 7 tani tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunga kelib ularning soni 22 tani tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. Ammo korxonalarni modernizatsiya qilish ishlari tumanda qoniqarli ahvolda emas. Jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki,tumanda 2009 yilda 4 ta korxona modernizatsiya qilingan bo'lsa, 2012 yilga kelib bu ko'rsatkich atigi 1 tani tashkil

qilgan. Yangi sanoat korxonalarini tashkil etilishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirilishi, zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqarishni yo'lga qo'yilishi,qishloq joylarda mahalliy xomashyoda ishlovchi iste'mol mollari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan kichik korxonalar tashkil etilishi hamda sanoat ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi korxonalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlanishi natijasida ushbu ijobiy ko'rsatkichlarga erishilmoqda.

2.2.2-jadval

Tumanda kapital qurilish va asosiy kapitalga qilingan investitsiyalar

Ko'rsatkichlar	**O'lchov birligi**	**2008**	**2009**	**2010**	**2011**	**2012**
Kapital mablag'larni o'zlashtirish	mln. so'm	15973,5	19604,0	24232,0	30743,4	27732,6
O'sish surati	%	174,7	101,5	107,5	111,1	77,8
Puratchilar tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari	mln. so'm	12642,0	14702,7	22081,7	35116,6	41621,0
O'sish surati	%	183,7	105,1	140,9	151,2	117,5

Manba:*Kasbi tuman Iqtisodiyot bo'limi ma'lumotlari*

Tuman iqtisodiyotiga o'zlashtirilgan kapital mablag'larning so'ngi besh yildagi o'sish suratlari turlicha bo'lib, bunda oldingi yillarga nisbatan o'sish va pasayish tendensiyalari kuzatilmoqda (2.2.2-jadval). Tahlillarimizni yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida davom ettiradigan bo'lsak, tumanda 2008 yilda o'zlashtirilgan kapital mablag'lar 15793,5 mln.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilga kelib bu ko'rsatkich salkam 2 barobarga oshganini ko'rishimiz mumkin. Pudratchilar tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari xususida to'xtaladigan

bo'lsak, 2008 yilda bajarilgan qurilish pudrat ishlari 12642,0 mln.so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2012 yilga kelib 41621,0 mln.so'mni yoki keyingi besh yildagi o'sish 3,3 barobarga oshgan. Ushbu ko'rsatkichlarning yuqori o'sish suratlariga erishishiga asosiy sabablardan biri bu O'zbekiston Respublikasi Prezidentinining 2009 yil 3 avgustdagi "Qishloq joylarida uy-joylarni qurishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1167-sonli qaroriga asosan tumanda namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan uylarning soni ortib borayotganligidadir. Chunki tumanda 2009 yilda 20 ta, 2010 yilda 35 ta, 2011 yilda 80 ta va 2012 yilda 10 ta jami 4 yil davomida 145 ta uy-joylar qurilib egalariga topshirilgan.

Respublikamiz hududlarida, ayniqsa qishloq joylarda, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini – suv ta'minoti, kanalizatsiya elektrlashtirish tizimlari va boshqalarni qurish, modernizatsiya va rekonstruksiya qilishni kengaytirish, shu asosda aholini va xo'jalik yurituvchi subyektlarni suv va elektr energiyasi bilan ta'minlash darajasi hamda sifatini oshirish, umumfoydalanishdagi yo'llarni qurish, mavjudlarini ta'mirlash hamda ijtimoiy-madaniy xizmat obyektlarini qurib foydalanishga topshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Tumanda ham aholini ichimlik suvi va gaz bilan ta'minlash, yangidan qurilgan, kapital ta'mirlangan va rekonstruksiya qilingan ijtimoiy-madaniy xizmat obyektlarini foydalanishga topshirish borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Quyidagi 2.2. 3- jadval ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu sohada amalga oshirilgan ishlar yillar davomida bir xilda kechmagan. Xususan, gaz va suv quvurlarini olib qaraydigan bo'lsak, gaz quvurlarini qurish va ta'mirlash 1 km dan oshmagan. Suv quvurlari esa 2012 yilga kelib biroz ijobiy ko'rsatkichga ega bo'lgan. Ko'rib chiqilayotgan yillar davomida 4 ta bolalar sporti inshootlari qurib foydalanishga topshirilgan. Tumanda aholini tabiiy gaz bilan ta'minlanishi yildan yilga pasayib bormoqda. Jadval ma'lumotlariga e'tibor beradigan bo'lsak, 2008 yilda gaz bilan ta'minlanish 83,1 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2012 yilga kelib 78,6 foizga tushib qolgan. Bu gazni yetkazib berishda turli uzilib qolishlar, aholi va korxonalarning foydalanilgan gaz haqini to'lab borishlaridagi muammolar hamda tumanning ba'zi hududlarida gaz quvurlarining

talab darajasida emasligi oqibatida vujudga kelgan. Toza ichimlik suvi bilan ta'minlanish bir xil darajada ushlab qolinmoqda. Ushbu yillar davomida tumanda 1200 ta o'ringa mo'ljallangan 3 ta kasb-hunar kollejlari qurilib foydalanishga topshirilgan. Ushbu kollejlar uchun 50 o'ringa mo'ljallangan 1 ta yotoqxona qurilgan. Bu davrda tumanda sog'liqni saqlash muassasalari qurish yoki ularni kapital ta'mirlash borasida hech qanday tadbir amalga oshirilmagan. Chunki tumandagi ko'p tarmoqli markaziy kasalxona va qishloq vrachlik punktlari talab darajasidagi holatga ega. Shuning uchun ushbu muassasalarni kapital ta'mirlash va rekonstruksiya qilish ishlari tumanning keyingi rivojlanish dasturlariga kiritilgan.

2.2.3-jadval


Tumanda ijtimoiy-madaniy xizmat obyektlarini qurib foydalanishga topshirish

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2008	2009	2010	2011	2012
Suv quvurlari	km	1	1	1	-	-
Gaz quvurlari	km	-	5,4	1	-	13,1
Tabiiy gaz bilan ta'minlanish	%	83,1	81,9	80,6	80,7	78,6
Ichimlik suvi bilan ta'minlanish	%	69,7	70,2	69,6	68,8	69,6
Uy-joylar	ming.kv.m.	60,2	60,8	59,1	60,4	55
Kasb-hunar kollejlari qurilishi	soni/o'quv o'rni	-	2/1020	-	-	1/180
Maktablar qurilishi	soni/o'quv o'rni	1/315	1/216	-	-	1/214
Yo'l qurilishi	km	-	-	-	15,2	13,4
Bolalar sporti inshootlari qurilishi	soni	-	2	1	1	-
Kasb-hunar kollejlari uchun yotoqxonalar	soni/o'rin	-	1/50	-	-	-
Kasalxonalar	soni/o'rin	-	-	-	-	-
Chaqiruv punkti	soni	-	-	1	-	-
Bolalar musiqa va sanat maktabi		-	-	-	1	-

Manba: *Kasbi tuman Iqtisodiyot bo'limi ma'lumotlari*

Tumanda yangidan qurilgan maktablarga to'xtaladigan bo'lsak, tumanda ushbu yillar davomida 745 o'ringa mo'ljallangan 3 ta yangi maktab bunyod etilgan. Yo'l qurilishlariga dastlab e'tibor berilmagan bo'lsada, lekin 2011-2012 yillar davomida 28,6 km uzunlikdagi yo'l yangidan barpo etildi. 2010 yilda tuman Mudofaa ishlari bo'limiga qarashli bitta chaqiruv punkti qurib foydalanishga topshirildi va 2011 yilda bitta Bolalar musiqa va sanat maktabi barpo etildi. Ushbu ishlarning amalga oshirilishi tumanda avvalambor, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, uning turmush farovonligini oshirish, tumanda mavjud infratuzilma holatini yaxshilash hamda tuman iqtisodiyotini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek tuman iqtisodiyoti asosan qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan. Tumanda yalpi qishloq xo'jalik mahsuloti ishlab chiqarishning so'ngi besh yildagi o'sish suratlari turlicha bo'lib, bunda oldingi yillardagiga nisbatan o'sish va pasayish tendensiyalari kuzatilmoqda (2.2.2-rasm).



2.2.2-rasm. 2008-2012 yillarda Kasbi tumanida yalpi qishloq xo'jalik mahsuloti ishlab chiqarishning o'sish suratlari, foizda

Manba: *Kasbi tuman Qishloq va suv xo'jaligi bo'limi ma'lumotlari*

Yuqoridagi tahlillarimizni quyidagi 2.2.4-jadval ma'lumotlari asosida davom ettiradigan bo'lsak, tumanda 2008 yil davomida 87389,9 mln.so'mlik qishloq

xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2012 yilga kelib bu ko'rsatkich 166548,0 mln.so'mga yoki qariyb 2 barobarga oshgan. Lekin shunday bo'lsada tumanning viloyatdagi qishloq xo'jaligi sohasidagi ulushi kamayib bormoqda.

2.2.4-jadval

Tumanda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2008	2009	2010	2011	2012
Yalpi qishloq xo'jalik mahsuloti	mln. so'm	87389,9	96716,9	115917,0	131653,3	166548,0
Viloyatdagi ulushi	%	9,2	8,9	8,7	8,3	7,9
shu jumladan						
Dehqonchilik mahsulotlari	mln. so'm	53140,1	56553,8	69539,0	68791,6	92843,3
Chorvachilik mahsulotlari	mln. so'm	34249,8	40163,1	46377,9	62861,7	73704,7

Manba: *Kasbi tuman Iqtisodiyot bo'limi ma'lumotlari*

Buni shu bilan izohlash mumkinki, tumanda ba'zi bir qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishdagi prognoz rejalari bajarilmay qolmoqda. Birgina paxta xomashyosini olib qaraydigan bo'lsak, tumanda 2011-2012 yillarda belgilangan reja topshiriqlari bajarilmagan. Tumanda jami yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari 2008 yilda 53140,1 mln.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilda tahlillar bu ko'rsatkichni 92843,3 mln.so'mga yoki 2008 yilga nisbatan 174 % ga oshganligini ko'rsatmoqda. Chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishga keladigan bo'lsak, 2008 yilda bu ko'rsatkich 34249,8 mln.so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2012 yilda bu ko'rsatkichni 73704,7 mln.so'mga yoki 2 barobarga ortganligini ko'rishimiz mumkin.

Tumanda qishloq xo'jaligida yetishtiriladigan mahsulotlar turlarida ham ijobiy natijalar ko'zga tashlanmoqda (2.2.5-jadval). Lekin, davlat ehtiyojlari uchun

yetishtiriladigan paxta va g'alla xomashyosi yetishtirishda yalpi hosil yillar davomida pasayib borgan. Jumladan, 2008 yilda 71000 tonna paxta va 97337,2 tonna g'alla yetishirilgan bo'lsa, 2012 yilga kelib paxta xomashyosini yetishtirish 61714 tonnaga, g'alla yetishtirish esa 87290 tonnaga tushib qolgan. Ya'ni ikkala mahsulotda ham qariyb 10000 tonna miqdorda hosil kamaygan. Bunday holat yuzaga kelishiga ushbu ekinlar yer maydonlarining qisqartirilganligi, noqulay ob-havo sharoitlari hamda ushbu mahsulotlar yetishtirilishida ba'zi bir kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi sabab bo'lgan.

Jadval ma'lumotlari tahlilini davom ettiradigan bo'lasak, tumanda 2008 yilda 2400,6 tonna kartoshka yetishtirilgan bo'lsa, 2009 yilga kelib bu ko'rsatkich 1585 tonnaga tushib qolgan. Lekin, 2010 yildan boshlab ushbu mahsulotni yetishtirishda o'sish suratlari qayd etilmoqda. Shuningdek, 2008-2012 yillar davomida tumanda sabzavot yetishtirish 8538,5 tonnadan 13449 tonnaga yoki 157 %ga, poliz 5245 tonnadan 6506 tonnaga yoki 124 %ga, meva 3211,5 tonnadan 4909 tonnaga yoki 152 %ga, uzum 992 tonnadan 1176 tonnaga yoki 118 % ga oshgan. Chorvachilik mahsulotlariga keladigan bo'lsak, go'sht yetishtirish tahlil qilinayotgan yillar davomida 10296 tonnadan 13927 tonnaga yoki 135 %ga, sut 56119 tonnadan 69646 tonnaga yoki 124 %ga, tuxum 8468 ming donadan 10484 ming donaga yoki 124 %ga, jun 246 tonnadan 314 tonnaga yoki 127 %ga va qorako'lteri 9050 donadan 10423 donaga yoki 115 %ga mutassil o'sib borish suratiga ega bo'lgan. Tumanda pilla yetishtirishda ham ijobiy natijalarga erishilmoqda. Jumladan, 2008 yilda 220,1 tonna pilla yetishtirilgan bo'lsa, 2011 yilda bu ko'rsatkich 249 tonnaga yoki 113 %ga oshgan. Lekin 2012 yilda pilla yetishtirishda biroz pasayish holati kuzatilgan. Bunga sabab yil davomida pilla yetishtirishga nisbatan biroz kamchiliklarga yo'l qo'yilgan. Biroq tumanda keyingi rivojlantirish dasturlarida yuqoridagi pilla yetishtirish borasidagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Jadval ma'lumotlari tahlillariga umumiy xulosa beradigan bo'lsak, tumanda qishloq xo'jaligi sohasidagi bunday ijobiy natijalarga avvalo, yerlarning meliorativ holati yaxshilanganligi, fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalar

faoliyatining rivojlantirilganligi, tuproq unumdorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning ko'rilganligi, qishloq xo'jaligida ekinlarni almashlab ekish texnologiyasiga amal qilinganligi sababli chorvachilikni rivojlantirishda qo'shimcha imkoniyatlar yaratilganligi va boshqa omillar hisobidan erishilgan.

2.2.5-jadval

Tumanda qishloq xo'jaligida yetishtiriladigan mahsulot turlarining o'sishi

Mahsulot turlari	**O'lchov birligi**	**2008**	**2009**	**2010**	**2011**	**2012**
Dehqonchilik mahsulotlari						
Paxta	tonna	71000	66659	68153	64141	61714
G'alla	tonna	97337,2	97598,5	99013	86425	87290
Kartoshka	tonna	2400,6	1585	1735	1862	2081
Sabzavot	tonna	8538,5	12254	12644	13205	13449
Poliz	tonna	5245	4793	5104	6312	6506
Meva	tonna	3211,5	3749	3897	4739	4909
Uzum	tonna	992	1010	1101	1146	1176
Chorvachilik mahsulotlari						
Go'sht	tonna	10296	12211	12369	13436	13927
Sut	tonna	56119	61205	62963	68685	69646
Tuxum	ming dona	8468	9710	9805	10175	10484
Jun	tonna	246	293	305	306	314
Qorako'lteri	dona	9050	9220	9299	9350	10423
Pilla	tonna	220,1	229,6	240	249	240

Manba: *Kasbi tuman Statistika bo'limi ma'lumotlari*

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tumanda qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmini oshishi faqat ekin maydonlarining kengayishi hisobiga emas, balki asosan intensiv rivojlanish, ya'ni ekinlar hosildorligi va chorva mollari mahsuldorligini oshirish hisobidan ta'minlanmoqda.

Tumanda xizmat ko'rsatish va servis sohasida olib borilayotgan ishlar xususida to'xtaladigan bo'lsak, 2008 yilda tumanning chakana savdo aylanmasi 15548,5 mln.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilga kelib bu ko'rsatkich 81692,7 mln.so'mga yoki 5,2 barobarga oshganligini ko'rsatmoqda (2.2.6-jadval).

2.2.6-jadval

Tumanda 2008-2012 yillarda savdo va xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi

Ko'rsatkichlar	**O'lchov birligi**	**2008**	**2009**	**2010**	**2011**	**2012**
Chakana savdo aylanmasi	mln.so'm	15548,5	17910,4	23000	55049,6	81692,7
O'sish surati o'tgan yilga nisbatan	%	107,8	103,8	120,5	130,6	117,5
Bozor xizmatlari	mln.so'm	18100	21115,9	33800	51917,6	58328,7
O'sish surati o'tgan yilga nisbatan	%	115,7	115,3	127,5	124,8	105,7
Pulli xizmatlar	mln.so'm	4305,8	5709,5	8200	19778,1	28957,2
O'sish surati o'tgan yilga nisbatan	%	114,3	110,9	114,0	104,0	107,4

Manba: *Kasbi tuman Iqtisodiyot bo'limi ma'lumotlari*

Shuningdek, tahlil etilayotgan yillar davomida bozor xizmatlari 18100 mln.so'mdan 58328,7 mln.so'mga yoki 3,2 barobarga, pulli xizmatlar 4305,8 mln.so'mdan 28957,2 mln.so'mga yoki 6,7 barobarga mutassil ravishda oshib borgan. Tumanda ushbu sohadagi yutuqlarga savdo madaniyati va sifatini oshirilganligi, aholini sifatli oziq-ovqat va iste'mol mahsulotlari bilan ta'minlash maqsadida tuman markazida va mahalla guzarlarida zamonaviy tipdagi minimarketlar va savdo shaxobchalari tashkil etilganligi, aholiga madaniy va

maishiy xizmatlar ko'rsatish yaxshilanganligi, pullik xizmatlar ko'rsatish hajmini ko'paytirish maqsadida mahallalarda aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish shaxobchalari tashkil etilganligi va shu asosda mahallalar byudjetining shakllantirilganligi va boshqa omillar hisobidan erishilmoqda. Birgina tumanda 2012 yilni olib qaraydigan bo'lsak, ushbu yilda tumanda jami 78 ta savdo va xizmat ko'rsatish shaxobchalari tashkil etilgan. Yaratilgan shaxobchalardan 25 tasi chakana savdo va umumiy ovqatlanish, 53 ta xizmat ko'rsatish shaxobchalarini (4 ta tikuvchilik, 4 ta sartaroshxona, 2 ta suratxona, 2 ta poyafzal ta'mirlash, 1 ta metal buyumlar yasash, 1 ta mebel yasash va ta'mirlash, 8 ta avtomobillarga xizmat ko'rsatish shaxobchalari va 32 ta boshqa xizmatlar) tashkil etadi. Keyingi yillarda tumanda xizmat ko'rsatish va servis sohasining rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati yuqori bo'lib bormoqda. Chunki tumanda 2008 yilda faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari soni 2008 yilda 4726 tani tashkil qilgan bo'lsa, 2012 yilga kelib bu ko'rsatkich 5091 tani tashkil qilmoqda. Ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda 5,9 foizni, qishloq xo'jaligida 100,0 foiz, chakana savdo aylanmasida 44 foiz, aholiga pullik xizmat ko'rsatishda 74,7 foiz, jami xizmat ko'rsatishda 72,3 foizni tashkil etmoqda.

Bunga sabab qilib, tumanda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun imtiyozli kredit mablag'lari ajratilayotgani, yangidan-yangi loyihalarning amalga oshirilishi, kichik biznes subyektlarining huquqiy muhofazasi kuchaytirilganligi va ular faoliyatiga boshqaruv organlarining asossiz tarzda aralashuvi cheklanganligi va boshqa omillarni keltirishimiz mumkin.

Tumanning tashqi savdo aylanmasi borasidagi ma'lumotlarga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, tumanda faoliyat ko'rsatuvchi Kasbi paxta tozalash OHJ jamiyati tomonidan asosan paxta xomashyosidan tola tayyorlanib eksport qilinadi. Tumanning asosiy eksport mahsuloti bo'lib paxta tolasi hisoblanadi. Jadval ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2008 yilda tumanning umumiy tashqi

savdo aylanmasi 22900 ming dollarni tashkil qilgan bo'lsa, 2011 yilga kelib bu ko'rsatkich 43807,9 ming dollarga yoki qariyb 2 barobarga oshgan.

2.2.7-jadval

Tumanning tashqi savdo aylanmasi

Ko'rsatkichlar	**O'lchov birligi**	**2008**	**2009**	**2010**	**2011**	**2012**
Tashqi savdo aylanmasi	ming. doll.	22900	23971,1	31428,6	43807,9	24737,8
Eksport	ming. doll.	22900	23715,6	31428	43796	24380
Import	ming. doll.	x	255,5	0,6	11,9	357,8

Manba: *Kasbi tuman Iqtisodiyot bo'limi ma'lumotlari*

Tahlillarni davom ettiradigan bo'lsak, 2012 yilda bu ko'rsatkichni kamayganligini ko'ramiz. Buni shu bilan izohlash mumkinki, paxta xomashyosini tolaga aylantirish ishlari noyabr oyidan boshlanadi va yilning mart oylariga qadar davom etadi. Shu sababli bizdagi mavjud ma'lumotlar 2013 yil 1 yanvar holatiga ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, tumanning tashqi savdo aylanmasi bu ko'rsatkichdan yuqori bo'lishi mumkin. Jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, tumanning tashqi savdo aylanmasida eksportning ulushi yuqori. Import masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, yuqoridagi jadvalda aks etgan ma'lumotlar asosida aytishimiz mumkinki, 2009 yilda tuman iqtisodiyotiga 255,5 ming dollarlik mahsulotlar import qilingan bo'lsa, 2010 yilda atigi 600 dollar, 2011 yilda 11,9 ming dollar va 2012 yilda bu ko'rsatkichlar biroz oshib 357,8 ming dollarni tashkil qilgan. Qilingan import mahsulotlari tarkibini faqat yangidan qurilgan maktab va kollejlarga olib kelingan jihozlar, kompyuter texnologiyalari hamda boshqalar tashkil etadi.

Mamlakatimizda aholining ish bilan bandligini ta'minlashni yanada yaxshilash va uning farovonligini oshirish eng muhim ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib kelmoqda. Hech kimga sir emas, mamlakatimizning o'ziga xos

xususiyatlari, avvalo, demografik jihatlariga ko'ra, aholi bandligi masalalari o'zining dolzarbligi va o'tkirligini saqlab qolmoqda, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi.[7] Shu maqsadda joylarda ish o'rinlarini yaratish bo'yicha hududiy dasturlar tasdiqlanib, bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Kasbi tumanida ham bu borada amalga oshirilayotgan ishlar alohida tahsinga sazovordir.

2.2.8-jadval

Tumanda 2008-2012 yillar davomida yaratilgan yangi ish o'rinlari

Ko'rsatkichlar	**O'lchov birligi**	**2008**	**2009**	**2010**	**2011**	**2012**
Yaratilgan yangi ish o'rinlari soni	birlik	3172	4711	5409	5350	5461
Yillik dasturning bajarilishi	%	104,4	100,1	100,1	101,0	101,0

Manba: *Kasbi tuman BK va AIMQ markazi ma'lumotlari*

Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, tumanda 2008 yilda 3172 ta ish o'rni yaratilgan bo'lsa, 2012 yilga kelib bu ko'rsatkich 5461tani yoki 172 %ga oshganligini ko'rsatmoqda. Yaratilayotgan ish o'rinlarining asosiy qismi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hissasiga to'g'ri kelmoqda. Birgina 2012 yilning o'zida yaratilgan 5461 ta ish o'rnidan, 363 tasi mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish va kengaytirish, 1835 tasi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etish, 278 tasi yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish, 427 tasi oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, 1451 tasi uy mehnatining barcha shakllarini tashkil etish, 783 tasi fermer xo'jaliklarini rivojlantirish va 265 tasi ishlab chiqarish, ijtimoiy va bozor infratuzilmasini rivojlantirish hisobiga to'g'ri kelgan. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, respublikamizda yoshlarning ish bilan bandligini ta'minlash uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Ayniqsa, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlashga alohida e'tibor berilmoqda.

---

[7] I.A.Karimov 2012- yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. 2011 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2012 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruza/ Xalq so'zi, 2012 yil 20 yanvar.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 28 iyuldagi “Ta’lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish borasidagi qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” PF-4232-sonli Farmoni bu borada boshlangan ishlarga dasturamal bo’ldi. Shu maqsadda Kasbi tumanida ham 2011-2012 o’quv yili davomida kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish bo’yicha ijobiy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, ushbu o’quv yili davomida tumanda 2206 nafar o’quvchi kasb-hunar kollejlarini tamomlagan. Shulardan 2152 tasining bandligi ta’minlanib, dastur 97,6 %ga bajarilgan. Ish bilan ta’minlanganlarning 920 tasi o’zi biriktirilgan korxonalarga, 1202 tasi boshqa korxonalarga ishga joylashtirilgan va 30 tasi oliy ta’lim muassasalariga o’qishga kirgan.

2.2.9-jadval

Tuman mahalliy byudjetining daromadlar va xarajatlar ko’rsatkichlari

Ko’rsatkichlar	**O’lchov birligi**	**2008**	**2009**	**2010**	**2011**	**2012**
Daromadlar rejasi	mln. so’m	7868,0	7506,4	11222,7	14496,6	14906,2
haqiqatda	mln. so’m	8205,6	7646,4	11230,7	14555,7	15028,9
rejaning bajarilishi	%	104,3	101,9	100,1	100,4	100,8
Xarajatlar rejasi	mln. so’m	16639,9	22376,6	30124,1	35192,2	47662,8
haqiqatda	mln. so’m	16809,7	22413,7	29718,3	35215,1	47710,3
rejaning bajarilishi	%	101,0	100,2	98,7	100,1	100,1

Manba: *Kasbi tuman Moliya bo’limi ma’lumotlari*

Tuman mahalliy byudjeti xususida to’xtaladigan bo’lsak, yuqoridagi 2.2.9-jadval ma’lumotlaridan ko’rishimiz mumkinki, tumanning mahalliy byudjet

daromadlari 2008-2012 yillar davomida 1,8 barobarga oshgan. Mahalliy byudjet daromadlari asosan aholidan olinadigan daromad solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, yer solig'i, korxonalar yalpi daromad solig'i, yagona soliq to'lovi hamda boshqa turli to'lovlar va yig'imlar hisobidan shakllantiriladi. Tumanning mahalliy byudjet xarajatlari 2008-2012 yillarda 2,8 barobarga ortgan. Bunga sabab, keyingi yillarda mamlakatimizda aholini ijtimoiy muhofaza qilishga qaratilayotgan keng e'tibor natijasida davlat byudjetining 60 foizi aynan shu sohani moliyalashtirishga yo'naltirilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda tuman mahalliy byudjetida ham ushbu sohaga yo'naltirilayotgan mablag'lar muhim o'rin tutadi. Mahalliy byudjet xarajatlari tarkibida maorif, sog'liqni saqlash, ijtimoiy-madaniy tadbir xarajatlari, turmush farovonligini oshirish bilan bog'liq xarajatlar, 16 yoshgacha bolalari bo'lgan oilalarga oylik nafaqa va boshqa xarajatlar muhim o'rin tutadi.

Tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi ko'rsatkichlarini tahlil qilar ekanmiz, mamlakatimizda iqtisodiyotimizni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash ishlari olib borilayotgan bir paytda tuman iqtisodiyotida ham sezilarli o'zgarishlar ro'y berayotganligining guvohi bo'ldik. Keyingi yillarda tuman iqtisodiyotining rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar, xizmat ko'rsatish va servis sohasining tumaṇ iqtisodiyotida salmoqli o'ringa ega bo'layotganligi va boshqa omillar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2.3 Tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini baholash va kelgusi dasturlarda foydalanish yo'llari.

Tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini baholovchi ko'rasatkichlarga asosan quyidagi ko'rsatkichlar keltiriladi:

- tumanda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish;
- xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish;
- kapital mablag'larni o'zlashtirish;
- pudratchilar tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlari;

- tumanning infratuzilma holati;
- yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish;
- chorva mollari va parrandalar bosh soni;
- chakana savdo aylanmasi;
- bozor xizmatlari;
- pullik xizmatlar;
- yangi ish o'rinlarining yaratilishi;
- mahalliy byudjetning ijrosi;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi;
- tumanning tashqi savdo aylanmasi;
- tumandagi qo'shma korxonalar faoliyati.

Biz tadqiqot ishining oldingi savollarida ushbu baholovchi ko'rsatkichlarning har biri bilan bog'liq ma'lumotlar bilan yaqindan tanishib, ularni bugungacha bo'lgan tahlillarini ko'rib chiqdik. Endi shu tahlillarga asosan tumanning keyingi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarida ushbu baholovchi ko'rsatkichlardan foydalanish yo'llarini tadqiq etishga harakat qilamiz. Tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini baholovchi asosiy ko'rsatkich bo'lib, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hisoblanadi. Sanoatni rivojlantirish o'z navbatida tumanda iqtisodiyotning yuksalishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi, eksport salohiyatining yuksalishi kabilar bilan bevosita bog'liq. Oldingi tahlillarimizda tumanning sanoat salohiyati bilan yaqindan tanishdik. Albatta, tumanning bugungi kundagi sanoat salohiyatini ijobiy deb baholash mumkin. Lekin, tumanda sanoatni bundanda rivojlantirish uchun, avvalambor, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turlarini ko'paytirish, korxonalarning rentabellilik darajasini oshirish, mahsulot tannarxini pasaytirib iloji boricha foydani maksimallashtirish yo'llarini izlash, mehnat unumdorligini yaxshilash uchun zamonaviy texnika-texnologiyalardan foydalanish, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, mahalliy xom-ashyo asosida ishlovchi yangi sanoat korxonalarini tashkil etish o'ylaymizki muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari eksportga yo'naltirilgan qo'shma korxona faoliyatini

yo'lga qo'yish, negaki tumanda hozirgi kunda birorta ham qo'shma korxona faoliyat ko'rsatmayapti. Buning uchun chet el investitsiyasini jalb etish holda, tumanda istiqbolli hisoblangan paxtani qayta ishlash, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hamda qurilish sohalarida qo'shma korxonalar faoliyatini yo'lga qo'yish, imkon qadar ushbu korxonalarni qishloq joylarida tashkil etilsa, qishloq aholisi ish bilan bandligini oshishiga, turmush farovonligi yaxshilanishiga xizmat qilgan bo'lur edi.

Tumanda keyingi asosiy va muhim tarmoq bu qishloq xo'jaligidir.Tuman iqtisodiyotining asosan qishloq xo'jaligiga ixtisoslashganini hisobga oladigan bo'lsak, ushbu tarmoqning keying dasturlarda rivojlantirish tuman uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi tahlillar davomida shunga guvoh bo'ldikki, tumanda qishloq xo'jaligida ba'zi bir muammolar ham mavjud. Qishloq xo'jaligining asosiy ekini paxta yetishtirishda tumanda ba'zi bir muammolar ko'zga tashlanmoqda. Ya'ni 2 yil mobaynida paxta yetishtirish bo'yicha yillik reja topshiriqlari bajarilmasdan kelinmoqda. Buni yuqorida ham ko'rdik. 2011 yilda tumanda 22300 ga maydonga paxta ekilgan bo'lsa, hosildorlik gektariga 28,8 sentnerdan to'g'ri kelib, 64141 tonna paxta xomashyosi yetishtirilgan. 2012 yilda esa paxta ekiladigan maydonlar biroz kengaytirilib, ya'ni 2011 yildagi 22300 ga o'rniga 22350 ga maydonga paxta ekilgan. Lekin, shunday bo'lsada tumanda 2012 yilda yetishtirilgan paxta xomashyosi o'tgan yildagiga nisbatan yana kamayishda davom etgan . Chunki paxtani yetishtirishdagi hosildorlik pasayib 2011 yildagi 28,8 sentnerdan 2012 yilda 27,6 sentnerga tushib qolgan yoki o'tgan yildagiga nisbatan 1,2 sentnerga kamaygan. Prezidentimiz I.A.Karimov Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasida qilgan ma'ruzalarida, ushbu muammolarga atroflicha to'xtalib jumladan shunday deb ta'kidladilar: " Xususan, qishloq xo'jaligini oladigan bo'lsak, islohotlarni amalga oshirish, sohani modernizatsiya qilish va unga zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish masalalarida jiddiy kamchiliklar mavjudligi yaqqol kuzatilmoqda. Joriy yilda o'tgan yilga nisbatan 32 ming tonna paxta, 164 ming tonna g'alla kam yetishtirilgani bu boradagi ana shunday oqsoqlikka misol bo'la oladi. Paxtachilikda

5 ta tuman va 950 dan ortiq fermer xo‘jaligi yoki jami fermer xo‘jaliklarining 19 foizi shartnoma majburiyatlarini bajarmagani tufayli 18 ming tonnadan ko‘proq paxta xomashyosi yetkazib berilmadi. Paxta hosildorligi esa 8 ta tumanda o‘tgan yilga nisbatan o‘rtacha 2 sentnergacha kamayib ketdi. G‘alla bo‘yicha ham shunday ahvolni ko‘rish mumkin. Ya’ni, 270 ta fermer xo‘jaligi tomonidan shartnomada belgilanganidan 10 ming tonna don kam yetkazib berilgan ”[8] Lekin shunday bo’lsada, tumanda dehqonchilik mahsulotlarining boshqa turlarini yetishtirish bo’yicha ijobiy natijalar ko’zga tashlanmoqda. Jumladan, tumanda 2011 yilda 205 ga maydonga kartoshka ekilib, hosildorlik gektariga 90,8 sentnerni tashkil qilgan holda yalpi mahsulot 1862 tonnani, 2012 yilda 200 ga maydonga kartoshka ekilib, hosildorlik 104,1 sentnerni tashkil qilib, yalpi hosil 2081 tonnaga yetkazilgan. Shuningdek, sabzavot mahsulotlarini yetishtirishda ham hosildorlik ko’rsatkichlari yuqori bo’lib bormoqda. 2011 yilda 610 ga maydonga sabzavot mahsulotlari ekilib, yalpi hosil 13205 tonnani va hosildorlik gektariga 216,5 sentnerni, 2012 yilda xuddi shu hajmdagi yer maydonida yalpi hosil 13449 tonnani hosildorlik esa 220,5 sentnerni tashkil qilgani yuqoridagi fikrlarimizning tasdig’idir.

2.3.1-jadval

2008-2012 yillarda tumanda chorva mollari va parrandalar bosh sonining o’zgarishi, bosh hisobida

Ko’rsatkichlar	2008	2009	2010	2011	2012
Qoramollar	65575	75534	74818	93110	97904
Sigirlar	27092	29581	30312	35155	35324
Qo’y va echkilar	110130	116047	116050	127465	137753
Otlar	1123	1123	1123	1125	1151
Cho’chqalar	67	30	30	32	32
Parrandalar	91460	99350	99400	105970	113313

Manba: *Kasbi tuman Statistika bo’limi ma’lumotlari*

[8] I.A.Karimovning Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi ma’ruzasidan/ Xalq so’zi, 2011 yil 1 dekabr.

Tumanda chorvachilik mahsulotlari yetishtirish borasidagi mavjud vaziyatni yuqoridagi savolda tahlil qilib chiqdik. Chorvachilikdagi mahsuldorlik asosan tumanda chorva mollari bosh sonining ko'payishi hisobidan amalga oshirilmoqda. Jadval ma'lumotlariga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, 2008-2012 yillar davomida tumanda qoramollar bosh soni 32329 boshga yoki 1,5 barobarga, sigirlar 8232 boshga yoki 1.3 barobarga, qo'y va echkilar 27623 boshga yoki 1,25 barobarga, otlar 28 taga va parrandalar 21853 boshga yoki 1,25 barobarga ortgan. Tumanda cho'chqa go'shtiga talabning pastligi natijasida ushbu yillar davomida tumanda cho'chqalar bosh soni 2 barobarga kamaygan. Yuqoridagi ma'lumotlar orqali shuni aytish mumkinki, tumanda faqat chorva mollari bosh sonini ko'paytirish va shu orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga erishilgan. Lekin, bugungi iqtisodiyotimizni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish sharoitida faqat son emas, balki sifat jihatdan o'zgarishlar muhim o'rin tutmoqda. Tumanda chorva mollari sonining ko'paytirilishi hisobiga, ularning mahsuldorligi kamayib ketgan. Mamlakatimizda chorvachilik sohasida mahsuldorlikni oshirish borasidagi masalalar yuzasidan to'xtalar ekanmiz, bu borada Prezidentimiz tomonidan bildirilgan ushbu fikrlar beixtiyor e'tiborimizni tortadi: "Masalan, chorvachilik sohasini oladigan bo'lsak, bu borada ishga solinmagan kata imkoniyatlar mavjudligini ta'kidlash o'rinlidir. Taqqoslash uchun quyidagi bir misolni keltiraman: Daniya va Janubiy Koreyada sut sog'ib olish bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 8-9,5 ming kilogrammni, Vengriya, Germaniya, Gollandiyada esa 6-7 ming kilogrammni tashkil qilayotgan bir paytda, bizda keyingi besh yilda bu raqam 1,7 ming kilogramm darajasida saqlanib qolmoqda"[9].

Qishloq xo'jaligining tuman iqtisodiyotida tutgan o'rnini hisobga olgan holda, uni kelgusi dasturlarda rivojlantirish uchun quyidagi muhim tadbirlar amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi:

---

[9] I.A.Karimov Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruza/ Xalq so'zi, 2011 yil 22 yanvar.

— yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va tuproq unumdorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'rish;

— qishloq xo'jaligi yerlarining sho'rlanishini oldini olish maqsadida yopiq va ochiq zovurlarni tozalash;

— tumanning iqlim va tuproq sharoitlarini hisobga olgan holda qishloq xo'jaligini asosan zanjirli texnikalar bilan ta'minlanishini yo'lga qo'yish;

— drenaj tizimini qayta ta'mirlash, suv resurslaridan oqilona foydalanishda tejamkor texnologiyalarni qo'llash;

— ekinlarning yuqori hosildor, tezpishar, kasallik va zararkunandalarga chidamli, yangi va istiqbolli, mahsulot sifati bozor talablariga javob beradigan navlarini tuman iqlim va tuproq sharoitlariga moslashtirish;

— paxtachilik va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlarining istiqbolli navlari birlamchi urug'chiligini tashkil qilish tizimini takomillashtirish;

— chorvachilik tarmog'ining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

— naslchilikni tubdan yaxshilash;

— tarmoqda servis, jumladan, zooveterenariya xizmatlari ko'rsatish sifati va assortimentini oshirish;

— parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik va pillachilik sohalarini rivojlantirish;

— xorijdan keltirilgan naslli urug'lar asosida yuqori mahsuldor mahalliy chorva mollari, parrandalar, pilla qurti zotlarini yaratish.

Tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini kompleks baholovchi keyingi asosiy ko'rsatkich bo'lib, bu tumanda xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishidir. Yuqoridagi tahlillardan bizga yaxshi ma'lumki, tumanda xizmat ko'rsatish sohasi yillar davomida mutassil o'sish ko'rsatkichlariga ega bo'lgan. Tumanning kelgusi dasturlarida xizmat ko'rsatishni yanada rivojlantirish uchun, ushbu sohada kichik biznesning ulushini ko'paytirish, aholiga madaniy-maishiy xizmatlar ko'rsatilishini yaxshilash, pullik xizmatlar hajmini ko'paytirish maqsadida mahallalarda pullik xizmat ko'rsatish shaxobchalarini tashkil etish, sug'urta xizmatlarini takomillashtirish va boshqalar ijobiy samara berishi mumkin.

Tumanda kelgusi dasturlarda rivojlantirilishi kerak bo'lgan muhim sohalardan biri bu ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishdir. Negaki, bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida infratuzilmani rivojlantirmasdan turib, hech qanday yuksak marralarga erishib bo'lmasligi bugun hech kimga sir emas. Bu borada davlatimiz rahbari I.A.Karimovning bildirgan ushbu so'zlari, "Bizning 2011 yilgi va istiqbolga mo'ljallangan iqtisodiy dasturimizni amalga oshirishda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini kompleks va jadal ravishda rivojlantirish ustuvor yo'nalishga aylanishi darkor."[10] yuqoridagi fikrlarimizning tasdig'idir. Tumanda kelgusida ushbu soha rivoji uchun birinchi navbatda, aholini tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan ta'minlanishini yaxshilash, yo'l qurilishiga va uni rekonstruksiya qilishga e'tibor qaratish, aloqa xizmatlari sifatini oshirish, elektr energiyasidagi mavjud muammolarni barataraf qilish, internet xizmatlaridan kengroq foydalanishni yo'lga qo'yish o'ylaymizki maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tumanning keyingi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarida eng muhim va tuman iqtisodiyotining keyingi istiqbolini belgilab beradigan soha bu – kichik biznes va xususiy tadbirkorlikdir. Negaki, ushbu soha mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotida muhim o'ringa ega bo'lib borayotganli, yalpi ichki mahsulot tarkibida ushbu sohaning ulushi 54 foizni tashkil qilayotganining o'zi yuqoridagi fikrlarimizning tasdig'idir. Yuqorida tumanning ushbu soha bo'yicha salohiyatini tahlil qildik. Tumanda bu sohada erishilayotgan yutuqlar bilan tanishdik. Lekin tumanda hali bu soha bo'yicha foydalanilmayotgan imkoniyatlar talaygina. Jumladan, tumanda eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqaruvchi birorta ham kichik biznes korxonasi faoliyati yo'lga qo'yilmagan. Tumanda keyingi dasturlarda aynan shu masalaga e'tiborni qaratish lozim. Bizning fikrimizcha, tumanda mavjud imkoniyatlardan foydalangan holda, tumandagi "Kasbi paxta tozalash" OHJ bilan hamkorlikda zavoddan chiqarilgan tolani tumanda qayta ishlab, kiyim-kechak mahsulotlari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish ham

---

[10] I.A.Karimov Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruza/ Xalq so'zi, 2011 yil 22 yanvar.

o'ylaymizki yuqoridagi muammoning yechimi bo'lishi mumkin. Bundan tashqari tumanda internetdan foydalanish masalasida ham jiddiy kamchiliklar ko'zga tashlanadi. Chunki tumanda internet xizmati ko'rsatuvchi birorta ham muassasa faoliyat ko'rsatmayapti. Bu muammoni hal qilish uchun tuman markazida yoki qishloq joylarda internet kafe xizmatini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. Tumandagi axborot-texnologiyalari kasb-hunar kolleji talabalarini bu ishga safarbar qilinsa, ularning ish bilan bandligi ta'minlanib, tumanda xizmat ko'rsatishning rivojlanishiga munosib hissa qo'shilgan bo'lar edi. Shunday qilib, tumanda ushbu sohani rivojlantirish uchun foydalanilmagan imkoniyatlardan keng foydalanish, ushbu soha rivoji uchun infratuzilma sharoitlarini yaxshilash, nafaqat tumanning balki viloyatning rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tumanda keyingi yillarda qurilish sohasi ham rivojlanib bormoqda. O'zlashtirilayotgan kapital mablag'lar hajmi yildan-yilga ortayotganligi to'g'risida yuqorida batafsil ma'lumotga ega bo'ldik. Tumanda ikkita "Kasbi ixtisoslashgan maxsus qurilish" hamda "Rivojkapital" MITK qurilish korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu koxonalar tuman va viloyat qurilish tenderlarida ishtirok etadi hamda ijtimoiy-madaniy xizmat obyektlarini qurish, kapital ta'mirlash va rekonstruksiya qilish bilan shug'ullanadi. Tumanda bugungi kunda namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan uy-joylar yuqoridagi qurilish tashkilotlari tomonidan qurilmoqda. Lekin, yuqoridagi tahlillarda tumanda 2012 yilda kapital qo'yilmalar o'tgan yillarga nisbatan pasayib ketgan. Bu yuqoridagi tashkilotlarning qurilish tenderlarida faol qatnashmaganligi, tumanda faqat namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan uy-joylar bilan shug'ullanib qolganliklaridadir.

Tumanning keyingi dasturlarida yuqoridagi muammolarga jiddiy yondashib, tumanda qurilish sohasidagi ishlarni takomillashtirilishi muhimdir. Buning uchun tumanda o'zlashtirilayotgan kapital mablag'lar miqdorini ko'paytirish, yuqoridagi tashkilotlar tenderlarda faol qatnashishlari maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi bildirilgan tavsiya va takliflardan tumanning keyingi dasturlarida foydalanish tuman iqtisodiyotining istiqboldagi rivoji uchun munosib hissa qo'shadi deb o'ylaymiz.

III BOB. KASBI TUMANINING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI KOMPLEKS BAHOLASHNING ISTIQBOLLARI.

3.1 Kasbi tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi asosiy muammolar.

Tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yuqorida keltirib o'tilgan yutuqlar bilan bir qatorda ba'zi bir muammolar ham mavjud. Jumladan, tumanda elektr energiyasi ta'minotidagi uzilishlar xususida to'xtaladigan bo'lsak, tumanda bu boradagi vaziyatni qoniqarli deb baholab bo'lmaydi. Chunki elektr energiyasini yetkazib berishdagi muammolar oqibatida infratuzilmaning yomonlashuvi (ayniqsa qishloq joylarda), sanoat korxonalari ish faoliyatidagi uzilib qolish holatlari ro'y bermoqda. Bundan ham eng yomoni tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirmoqchi bo'lgan shaxslar uchun eng jiddiy muammolardan biri bu elektr energiyasi muammosidir. Buni birgina misolda ko'rishimiz mumkin. Deylik, tumanda sutni qayta ishlovchi korxona faoliyati yo'lga qo'yildi. Elektr energiyasidagi muammo shu tarzda davom etaversa korxonaning ish faoliyatini tasavvur qilishning o'zi mushkul bo'lib qoladi. Ushbu muammoning kelib chiqish sabablari quyidagilar:

birinchidan, aholi va korxonalarning tuman elektr tarmoqlari korxonasi oldidagi kreditorlik qarzlarining ko'payib ketganligi;

ikkinchidan, elektr energiyasini yetkazib beruvchi transformatorlarning texnik holati talab darajasida emasligi.

Ushbu muammoni bartaraf qilishda quyidagi ishlar amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'lur edi:

– Tumanda aholi va korxonalarning elektr tarmoqlari korxonasi oldidagi kreditorlik qarzdorligini bartaraf qilish bo'yicha maxsus ishchi guruh tuzib, mahalliy davlat hokimlik, huquqni muhofaza qilish hamda fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlari bilan birgalikda bu muammoni qisqa fursatda hal etish bo'yicha maxsus dastur ishlab chiqish va uni amalga oshirish;

– Tuman elektr tarmoqlari korxonasi tumanda mavjud elektr energiyasi yetkazib beruvchi transformatorlarning texnik holatini tekshirib, zarur bo'lsa ularni ta'mirlash choralarini ko'rish;

– Tumanda elektr energiyasidan tejab-tergab foydalanishni doimiy nazoratga olish;

– Tumanda innovatsiya yutuqlaridan foydalangan holda, quyosh energiyasidan foydalanishni yo'lga qo'yish va boshqalar.

Avvalgi boblarda ta'kidlaganimizdek tuman iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi muhim o'rin tutadi. Aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, bandligini oshirish va qishloq xo'jaligi infratuzilmasini yaxshilash dolzarb masalalardan biridir. Tumanda ushbu masalalar yuzasidan muayyan ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Lekin, shunday bo'lsada bu sohada ham ba'zi bir muammolar vujudga kelmoqda. Xususan, ayrim hollarda fermer xo'jaliklari tomonidan yer maydonlarining samarasiz foydalanilayotganligi, moliyaviy-iqtisodiy ahvolning surunkali og'irligi, moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlanmaganligi, yer ajratishda tuproq-iqlim sharoitiga va aholi zichligi va bandligi masalalari shular jumlasidandir. Mana shu omillar tufayli tuman qishloq xo'jaligida jiddiy kamchiliklar kelib chiqmoqda. Birgina 2011-2012 yillar davomida tumanda asosiy qishloq xo'jaligi ekini hisoblangan paxta xomashyosini yetishtirishda belgilangan reja topshiriqlari bajarilmagan. Ikkala yil uchun ham reja topshirig'i 65400 tonna qilib belgilangan bo'lib, bu topshiriq 2011 yil uchun 64141 tonna yoki 98 %ga va 2012 yil uchun 61714 tonna yoki 94 % qilib bajarilgan. Tumanda dehqonchilik sohasi bilan bir qatorda, chorvachilik sohasida ham o'z yechimini kutayotgan ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, chorva mollarining mahsuldor va kasalliklarga chidamli zotlarini yetishmasligi, chorvachilikning mustahkam ozuqa bazasini yaratish borasidagi muammolar. Bu muammolarning yuzaga kelishiga quyidagi omillar sabab bo'lmoqda:

– Tumanda agrotexnik tadbirlarning o'z vaqtida va sifatli o'tkazilmasligi;

– Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning meliorativ holatining yomonlashuvi;

– Noqulay iqlim sharoiti;

– Tuman Qishloq va suv xo'jaligi bo'limi tomonidan ushbu masalalar yuzasidan sustkashliklarga yo'l qo'yilganligi;

– Fermer xo’jaliklarining moliyaviy-iqtisodiy ahvoli og’irligi, ya’ni ularning davlat oldidagi kreditorlik qarzdorligining ko’payib ketganligi va natijada fermer xo’jaliklari o’zlariga biriktirilgan yer maydonlari uchun zarur bo’lgan o’g’itlar va texnikalarni o’z vaqtida ololmayotganliklari;

– Sug’orish tizimidagi muammolar, ya’ni suv chiqarib beruvchi nasoslarning ishlashida uzilib qolishlar;

– Tijorat banklaridan kreditlar olishdagi sansolarliklar;

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

birinchidan, tumanda yerlardan oqilona va samarali foydalanish hamda ularning meliorativ holatini yaxshilash bo’yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqib amaliyotga joriy etish;

ikkinchidan, qishloq xo’jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, fermer xo’jaliklariga minitexnologiyalarni olib kelish va ishlatishda ko’maklashish;

uchinchidan, qishloq xo’jaligiga investitsiyalarni keng jalb etish, bu borada tijorat banklari faolligini oshirish;

to’rtinchidan, nasos agregatlarini sozlash, yaroqsizlarini yuqori unumli, tejamkor nasos agregatlariga almashtirish;

beshinchidan, qishloq xo’jalik mahsulotlarini qayta ishlaydigan korxonalar faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratish (aylanma mablag’larini shakllantirish uchun imtiyozli kreditlar ajratish, soliq imtiyozlari, fyuchers shartnomalari mexanizmini rivojlantirish);

oltinchidan, paxta xom-ashyosi, don yetishtirish hajmlarini kamaytirmagan holda, ularning hosildorligini oshirish hisobiga chorva hayvonlari, parrandalar uchun ozuqa ekinlari maydonlarini kengaytirish, qayta ishlash korxonalarini yetarli miqdorda meva, sabzavot, poliz mahsulotlari bilan ta’minlash;

yettinchidan, tuman Qishloq va suv xo’jaligi bo’limi tuman mashina-traktor parklari, tuman “Qishloqxo’jalikkimyo” MChJ, tuman fermerlariga xizmat

ko'rsatuvchi markaz hamda boshqa korxona va tashkilotlar faoliyatini chuqur o'rganib chiqib, mavjud muammolar yuzasidan tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

sakkizinchidan, tuman "Naslchilik" bo'limi, tuman Veterenariya bo'limi va tuman "Omuxta yem, shrot va sheluxa yetkazib berishga ixtisoslashtirilgan birlashmasi" hamkorlikda chorvachilik sohasidagi muammolar bilan yaqindan tanishib chiqib, tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqqan holda mavjud imkoniyatlardan foydalanish yo'llarini joriy etish.

Tuman qishloq xo'jaligini yuksaltirishda yuqorida bildirilgan takliflar va tavsiyalar o'z o'rnida amalga oshirilsa, o'ylaymizki, tuman iqtisodiyotining keyingi yillardagi rivojlanishiga ko'mak bo'ladi.

Hammamizga yaxshi ma'lumki, bugungi kun taraqqiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirmasdan turib hech qanday ijobiy yutuqlarga erishib bo'lmaydi. Hududlarimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati haqida oldingi boblarda batafsil to'xtalib o'tdik. Shunday ekan, biz o'rganib tahlil qilayotgan Kasbi tumanida ham bu sohaning rivojlanishi bilan bir qatorda, jiddiy muammolarga ham duch kelinmoqda. Bu muammo nafaqat tuman, balki viloyat miqyosida ham dolzarb bo'lib kelmoqda. Jumladan, Prezidentimiz I.Karimov 2011 yil 30 noyabr kuni bo'lib o'tgan Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlagan nutqlarida ushbu muammoga atroflicha to'xtalib jumladan shunday dedilar: "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, soha rivoji uchun yanada qulay ishbilarmonlik muhiti yaratish bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar natijasida kichik biznesning viloyat iqtisodiyotidagi ulushi 5 yil mobaynida 39,5 foizdan 55 foizga o'sgani ijobiy baholashga arziydi. Ayni vaqtda ko'rilgan choralarga qaramasdan, ayrim tarmoqlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivoji past darajada qolayotganini aytishga to'g'ri keladi. Masalan, sanoatda bu sohaning ulushi 25 foizni tashkil etmoqda. Tumanlar miqyosida olib qaraydigan bo'lsak, Mirishkor va Nishon tumanlarida bu raqam 5-7 foizni, G'uzor tumanida esa 0,3

foizni tashkil etayotgani bu boradagi haqiqiy ahvolni ko‘rsatib turibdi.”[11] Shuningdek viloyatda qulay ishbilarmonlik muhitining yaratilishida ham jiddiy kamchiliklar kuzatilmoqda. Buni asosli misolda ko’rishimiz mumkin. 2012 yil 20 aprelda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida ishbilarmonlik muhitining holati va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish indikatorlarini har chorakda baholash tizimini tasdiqlash to’g’risida”gi 117-sonli Qarori e’lon qilindi. Ushbu qaror mazmuniga ko’ra hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini bir nechta indikatorlar yordamida baholash keltirib o’tilgan. Quyida ularni keltirib o’tamiz:

1. Makroiqtisodiy ko’rsatkichlarning muvozanatlilik indikatorlari.
2. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash darajasi indikatorlari.
3. Ishbilarmonlik muhitini shakllantirish darajasi indekslari, bu indikator o’z navbatida ikkiga bo’linadi:
   - 3.1. Raqobat muhitini rivojlantirish indeksi.
   - 3.2. Ishbilarmonlik muhiti holatining indeksi.
4. Iqtisodiyotning xususiy sektorini rivojlantirish indikatorlari.
5. Moliya-bank sektorini rivojlantirish indikatorlari.
6. Mintaqani ijtimoiy rivojlantirish indikatorlari.

Ushbu qaror ijrosini ta’minlash yuzasidan joylarda nodavlat, notijorat institutlari tomonidan so’rovnomalar o’tkazib borilmoqda. So’rovnomalar natijalariga ko’ra, 2012 yilning birinchi yarim yilligi bo’yicha Qashqadaryo viloyati respublikada 11- o’rinni, Kasbi tumani esa viloyat ko’rsatkichi bo’yicha 13 o’ringa tushib qolgan (3.1.1-jadval). Bu esa yuqorida prezidentimiz tomonidan bildirilgan fikrlarning yaqqol tasdig’idir. Xo’sh, viloyat va tuman nega bunday ahvolga tushib qoldi mazmunidagi savol tug’ilishi tabiiy hol albatta. Buning sabablarini bir nechta omillar bilan ko’rsatish mumkin. Bular quyidagilardir:

---

[11] I.A.Karimovning Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi ma’ruzasidan/ Xalq so’zi, 2011 yil 1 dekabr.

– Jadval ma’lumotlari asosida olib qaraydigan bo’lsak, birinchi indikator ko’rsatkichi bo’yicha tuman eng kam ballni to’plagan. Bu degani tumanda baholanayotgan davrda jalb qilingan investitsiyalar miqdorining kamayganligi, sanoat va xizmat ko’rsatish sohalarida o’sish suratlarining pasayganligi hamda bu ko’rsatkichlarning aholi jon boshiga to’g’ri kelishi ham kamayganligi;

– Iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish indikatori bo’yicha baholanganda tumanda 2012 yilda atigi 1 ta korxonaning modernizatsiya qilinganligi va eksport hajmining kamayganligi bu ko’rsatkich bo’yicha ham tumanni oxirgi o’ringa tushib qolishiga sabab bo’lgan;

– Tumanda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda ta’magirlik va byurokratik to’siqlarning ko’pligi, tadbirkorlik subyektlari murojaat qiluvchi soliq organlari, tijorat banklari, tadbirkorlarni ro’yxatga olish inspeksiyasi, statistika bo’limi, tuman epidimologiya nazorat markazi, arxitektura, elektr, gaz va boshqa tashkilotlarda qaror talablari lozim darajada bajarilmayotganligi;

– Tumanda aholining kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasidan oladigan daromadlarining kamligi, aholini ish bilan ta’minlashdagi muammolar, ya’ni ish bilan band bo’lmagan aholini doimiy ish o’rinlari bilan ta’minlash maqsadida tashkil etilayotgan “Mehnat yarmarkalari” nomigagina o’tkazilib kelinayotgani;

Ushbu muammolarning yechimi qilib, quyidagi takliflarni keltiramiz:

birinchidan, tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko’rsatadigan infratuzilmalar mutaxassislari uchun doimiy malaka oshirish tizimini va ushbu markazlarga malakali kadrlarni jalb qilish mexanizmini yaratish;

ikkinchidan, tadbirkorlarga xizmat ko’rsatadigan infratuzilma tashkilotlarini tashkil etish va moddiy-texnik bazasini yangilash maqsadlariga imtiyozli kreditlar berishni joriy etish;

uchinchidan, bank tizimiga muqobil bo’lgan kredit tashkilotlarini, ya’ni kredit uyushmalari, mikrokredit tashkilotlari, lizing kompaniyalarini tashkil etish;

3.1.1-jadval

Qashqadaryo viloyatida ishbilarmonlik muhitining holati va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish darajasi indikatorlarini har chorakda baholash tizimining 2012 yil 1 yarim yillikda baholanishi

Shahar va tumanlar	Jami		Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning muvozanati indikatorlari		Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash indikatorlari		Ishbilarmonlik muhitini shakllantirish darajasi indikatorlari		Iqtisodiyotning xususiy sektorini rivojlantirish indikatorlari		Mintaqani ijtimoiy rivojlantirish indikatorlari	
	Ball	O'rin	O'rtacha ball	O'rin	O'rtacha ball	O'rin	O'rtacha ball	O'rin	O'rtacha ball	O'rin	O'rtacha ball	O'rin
Viloyat	2,61	11	1,80		2,20		2,90		2,65		2,40	
G'uzor	2,717	10	2,00	7	2,00	3	2,8	2	2,50	2	3	4
Dehqonobod	3,238	1	3,50	1	3,5	1	2,6	4	2,50	2	3,33	2
Qarshi	3,150	2	3,25	2	3,5	1	3,4	1	1,75	4	3	4
Koson	2,675	11	2,50	5	2,00	3	2,8	2	2,25	3	2,5	5
Qamashi	2,550	12	1,75	8	2,00	3	2,8	2	1,75	4	3	4
Kitob	3,078	4	3,50	1	2,50	2	2,8	2	2,50	2	3,17	3
Kasbi	2,362	13	1,25	9	2,00	3	2,17	8	2,25	3	2,5	5
Muborak	3,028	6	2,75	4	3,50	1	2,5	5	2,25	3	3,17	3
Mirishkor	2,975	8	2,25	6	3,50	1	2,6	4	2,50	2	3	4
Nishon	3,100	3	3,00	3	3,50	1	2,6	4	2,50	2	3	4
Chiroqchi	2,792	9	2,25	6	2,00	3	2,5	5	2,50	2	3,5	1
Shahrisabz	2,995	7	2,25	6	3,50	1	2,8	6	2,25	3	3,17	3
Yakkabog'	2,995	7	3,00	3	3,50	1	2,8	2	1,50	5	3,17	3
Qarshi sh.	3,033	5	2,75	4	3,50	1	2,2	3	2,75	1	3	4

Manba: *Qashqadaryo viloyati Iqtisodiyot Bosh boshqarmasi ma'lumotlari*

to'rtinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturiga kiritilgan loyihalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda ushbu masalalar yuzasidan javobgar tashkilotlar va shaxslarning ma'suliyatini oshirish;

beshinchidan, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun imtiyozli kredit mablag'lari ajratilishini va ushbu sohadagi loyihalarni ko'paytirish;

oltinchidan, kichik biznes subyektlarining huquqiy muhofazasini kuchaytirish va ular faoliyatiga boshqaruv organlarining asossiz tarzda aralashuvini cheklash;

yettinchidan, qishloq xo'jalik mahsulotlari va mahalliy xom-ashyo asosida ishlovchi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etilishini yanada takomillashtirish;

sakkizinchidan, kichik biznes subyektlari faoliyatining meyorda bo'lishini ta'minlash, reklama xizmatlarini jonlantirish;

to'qqizinchidan, fuqarolar ongida tadbirkorlik va kasb ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida biznes maktablari va o'quv markazlari tashkil etish.

Yuqorida keltirib o'tilgan taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilsa o'ylaymizki tuman iqtisodiyotidagi muammolarning bartaraf etilishiga biroz bo'lsada ko'maklashgan bo'lur edi.

3.2 Kasbi tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlash.

Tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini kelgusi istiqbollari va prognozlari to'g'risida to'xtaladigan bo'lsak, tumanning kelgusi istiqbollari va prognoz rejalarini belgilab beruvchi 2013-2015 yillarga mo'ljallangan ijtimoy-iqtisodiy dastur ishlab chiqilgan. Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 18 yanvardagi majlisida belgilab berilgan eng muhim ustuvor vazifalarni so'zsiz bajarilishi, ular yuzasidan amalga oshirilishi kerak bo'lgan chora-tadbirlarning ijrosini ta'minlash maqsadida

ishlab chiqilgan bo'lib, Qashqadaryo viloyati Kasbi tumanini 2013-2015 yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda uslubiy yondashuvlarni, prinsiplarni, maqsad va vazifalarini hamda asosiy ustuvor maqsadli yo'nalishlarini belgilab beradi.Shuningdek, dastur tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni ta'minlash asosida aholi turmush darajasini ko'tarish, ijtimoiy-iqtisodiy mutanosiblikni, muntazam iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, kengaytirish va mustahkamlash maqsadlariga yo'naltirilgan.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida tuman iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda huduiy omillar va shart-sharoitlarga alohida e'tibor qaratiladi. Tuman iqtisodiyoti sohalaridagi nomutanosibliklarni bartaraf etish, hududda investitsion faollikni jonlantirish, samarali bandlikni ta'minlash, aholi turmush darajasini yaxshilash, hududiy iqtisodiy imkoniyatlardan oqilona foydalanish orqali tumanning viloyat iqtisodiyotida tutgan o'rnini mustahkamlash, tumanni 2013-2015 yillarda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqaradi.

Kasbi tumanining 2013-2015 yillarga mo'ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish Dasturining asosiy maqsadi yaqin kelajakda tumanning bararor ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, tuman aholisini turmush farovonligini oshirish, jamiyat hayotida yangi demokratik tamoyillar, qadriyatlar tizimining mustahkamlanishi hamda umumdavlat va mintaqaviy manfaatlarning mushtarakligini ta'minlashdan iboratdir.

Tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining kompleks Dasturi quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutadi:

– tuman taraqqiyotining asosiy istiqbolli parametrlarini aniqlash va asoslab berish;

– iqtisodiy va ijtimoiy sohalarning o'zaro mushtarak holdagi rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

– har bir soha va tarmoq miqyosida yetakchi yo'nalishlarni aniqlash;

– dasturni amalga oshirishda umumdavlat va hududiy rivojlanish dasturining o'zaro uyg'unligiga erishish;

– dasturni amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqish.

Ushbu dasturning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, tumanda 2013-2015 yillar davomida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi.

Jumladan, tumanda asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning barqaror o'sish suratlari ta'minlanadi (3.2.1-jadval). 2013-2015 yillarda tuman sanoatining o'sish suratlariga erishishda yangi sanoat korxonalarining qurilishi hamda ishga tushirilishi natijasida istiqbol ko'rsatkichlarga erishiladi. Sanoatni rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi, kichik sanoat korxonalarini tashkil etish, korxonalarni modernizatsiya qilish, tumanda yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarish, meva sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash, qurilish materiallari va yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish yo'lga qo'yiladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan 2013-2015 yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturiga muvofiq, tumanda ushbu yillar davomida qiymati 4442,5 ming dollar bo'lgan jami 73 ta loyihani amalga oshirish ko'zda tutilmoqda. Ushbu loyihalarning 19 tasi sanoat sohasidagi loyihalar bo'lib, ularning jami qiymati 1393 ming dollarni tashkil etadi. Dastur bo'yicha tumanda sanoat sohasini rivojlantirilishi natijasida – 2013 yilda 61 mlrd.so'm, 2014 yilda 65,8 mlrd.so'm va 2015 yilda 71,7 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqariladi. Shuningdek, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish 2012 yilda 3,5 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2015 yilga kelib bu ko'rsatkich 4,4 mlrd.so'mga yoki 1,2 martaga o'sishini ta'minlash ko'zda tutilgan. Tumanda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, korxonalarning mahsulot ishlab chiqarish assortimentlarini ko'paytirish hisobiga xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish hajmining oshishiga erishiladi. Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasidagi kooperatsiya kengaytiriladi. . Sanoat tarmog'ida ushbu muhim maqsadli dasturni amalga oshirish bo'yicha doimiy monitoring tizimi tashkil etiladi.

3.2.1-jadval

Kasbi tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ko'rsatkichlarining 2013-2015 yilardagi prognozi

Asosiy ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2013 yil	2014 yil	2015 yil
Sanoat mahsulotlari	mlrd. so'm	61	65,8	71,7
O'sish surati o'tgan yilga nisbatan	%	107,9	108,2	108,8
Xalq iste'moli mollari harakatdagi bahoda	mlrd. so'm	3,8	4,1	4,4
O'sish surati o'tgan yilga nisbatan	%	106,0	108,4	109,0
Kapital mablag'larni o'zlashtirish	mlrd. so'm	29,1	30,8	33
O'sish surati o'tgan yilga nisbatan	%	104,9	106,0	107,0
Pudratchilar tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlari	mlrd. so'm	49,1	58,2	69,8
O'sish surati o'tgan yilga nisbatan	%	118,1	118,3	118,4
Yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish	mlrd. so'm	168,1	172,3	179,2
O'sish surati o'tgan yilga nisbatan	%	104,1	104,4	104,6
Chakana savdo aylanmasi	mlrd. so'm	96,4	115,2	139,4
O'sish surati o'tgan yilga nisbatan	%	118	119,5	121,0
Bozor xizmatlari	mlrd. so'm	62,4	67,3	74,0
O'sish surati o'tgan yilga nisbatan	%	105,9	106,2	106,9
Pulli xizmatlar	mlrd. so'm	31,5	35,0	39,5
O'sish surati o'tgan yilga nisbatan	%	108,8	111,1	112,9
Kichik biznes subyektlariga ajratiladigan kreditlar	mlrd. so'm	10,1	13,9	19,3
O'sish surati o'tgan yilga nisbatan	%	135,2	137,3	138,8

Manba: *Kasbi tuman Iqtisodiyot bo'limi ma'lumotlari*

Tumanda 2013-2015 yillarda kapital qurilish sohasida jami 93 mlrd.so'mlik kapital mablag'larni o'zlashtirish ko'zda tutilgan bo'lib, ushbu mablag'larning 63 mlrd. so'mi noishlab chiqarish qurilishlari va 30 mlrd.so'mi ishlab chiqarish qurilishlari hisobiga to'g'ri keladi. Pudratchilar tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari 2012 yildagi 41,6 mlrd.so'mdan 2015 yilda 69,8 mlrd.so'mga yoki

167 foizga yetkazish rejalashtirilgan. 2013-2015 yillarda tumanda 8 ta maktab, 7 ta kollej hamda 2 ta tibbiyot muassasasi kapital rekonstruksiya qilinadi. 3 ta sport zal, 1 ta yopiq suzish havzasi, 1 ta maktab va 2 ta kollej filiali quriladi. Sog'liqni saqlash muassasalariga aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish, onalar va bolalar salomatligini yaxshilash maqsadida zamonaviy tibbiy jihozlar yetkazib beriladi. Tuman aholisini toza ichimlik suvi bilan ta'minlashda 10 km suv tarmoqlari, 10 km gaz tarmoqlari o'tkaziladi. Qishloq aholisining zamonaviy shart-sharoitlarga ega bo'lgan, namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan uy-joylarni qurish ishlari ham tumanning kelgusi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarda muhim yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi. Zero, Prezidentimiz ushbu masalaga alohida to'xtalib jumladan shunday dedilar: "Joriy yilda ham qishloq joylarida uy-joylarni keng ko'lamda qurish ishlari ko'zda tutilgan. 353 ta qishloq massivi hududida boshlangan qurilish ishlari jadal davom ettirilmoqda. Ularda namunaviy loyihalar asosida umumiy maydoni 1,4 million kvadrat metr bo'lgan 10 mingta barcha qulay shart-sharoitlarga ega uy-joy qurish ko'zda tutilgan bo'lib, bu o'tgan yilga nisbatan 17,5 foiz ko'pdir." [12] Shu maqsadda 2013 yil davomida tumanning 5 ta qishloq massivida jami 92 ta uy-joylar qurib foydalanishga topshirilishi rejalshtirilmoqda. Shuningdek, uy-joy kommunal xo'jaligida islohotlar chuqurlashtiriladi, uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyati samaradorligi oshiriladi, ta'mirlash va kommunal xizmatlarning real bozori shakllantiriladi.

Tuman iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining alohida o'rin tutishini hisobga olib, qishloq xo'jaligida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tariladi. Qishloq xo'jaligida irrigatsiya-melioratsiya tizimlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish hisobiga yer unumdorligi va suv bilan ta'minlanish darajasi oshiriladi. Natijada, 2013-2015 yillarda iqtisodiy rivojlanishning maqsadli yo'nalishlari bo'yicha yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti 2012 yildagi 166,4 mlrd.so'mdan, 2015yilga borib 179,2 mlrd.so'mga yoki 108

---

[12] I.A.Karimov "Zamonaviy uy-joy qurilishi – qishloq joylarini kompleks rivojlantirish va qiyofasini o'zgartirish hamda aholi hayotining sifatini yaxshilash omili" mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi so'zlangan nutq. Xalq so'zi, 2013 yil 18 aprel.

foizga o'sishi rejalashtirilgan. Meva va sabzavotchilikda hosildorlikni, chorvachilikda esa mahsuldorlikni oshirish hamda chorva naslchiligi va seleksiya ishlari tubdan yaxshilanib, qorako'lchilik rivojlantiriladi. Qishloq xo'jaligi ekinlari ekiladigan yer maydonlarining meliorativ holati yaxshilanadi. Qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori hosil olish maqsadida tuproq unumdorligini tiklash va yaxshilash, sug'oriladigan yerlarda qishloq xo'jalik ekinlarini ilg'or ilmiy texnologiyalarga asoslangan almashlab ekish sistemasini joriy qilish, urug'chilik va seleksiya ishlarini rivojlantirish chora-tadbirlari amalga oshiriladi. Tumandagi mavjud biolaboratoriyalar qayta inventarizatsiyadan o'tkazilib, ular zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta'minlanadi hamda malakali mutaxassislar ishga jalb etiladi. Naslchilik xizmatini takomillashtirish maqsadida, tumanda 2 ta naslli qoramollar yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari tashkil etiladi va mavjud meyorlarga asosan ularga yetarli shart-sharoitlar yaratib beriladi. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ham ijobiy ishlar amalga oshiriladi. Jumladan, tumanda 2012 yilda 61714 tonna paxta xomashyosi va 87290 tonna g'alla yetishtirilgan bo'lsa, 2013 yilda bu ko'rsatkichlarni paxta uchun 66033 tonnaga va g'alla uchun 93400 tonnaga yetkazish maqsad qilib qo'yilmoqda. Shuningdek, tumanda 2013 yil davomida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari yetishtirishda ham salmoqli ishlar amalga oshirilishi ko'zda tutilmoqda. Bu davrda dehqonchilik mahsulotlaridan kartoshka yetishtirish 2012 yildagi 2081 tonnadan 2226 tonnaga, sabzavot 13449 tonnadan 14390 tonnaga, poliz mahsulotlari yetishtirish 6506 tonnadan 6961 tonnaga, meva 4909 tonnadan 5252 tonnaga va uzum yetishtirish 1176 tonnadan 1258 tonnaga yetkazilishi ko'zda tutilmoqda. Chorvachilik mahsulotlari yetishtirishga keladigan bo'lsak, tumanda 2012 yilda 13927 tonna go'sht yetishtirilgan bo'lsa 2013 yilda bu ko'rsatkich 14901 tonnaga, sut yetishtirish 69646 tonnadan 74521 tonnaga, tuxum 10484 ming donadan 11218 donaga, jun 314 tonnadan 335 tonnaga va qorako'lteri 10423 donadan 11153 donaga yetkazilishi rejalashtirilmoqda.

Tumanda ushbu maqsadlarga erisish uchun shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida dehqonchilik mahsulotlari hosildorligini, chorva mollarini

mahsuldorligini oshirishni rag'batlantirish, hamda chorva mollari bosh sonini ko'paytirish hisobidan amalga oshiriladi. Shuningdek, tumanning 2013-2015 yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturida qishloq xo'jaligi sohasida qiymati 1013 ming dollarlik jami 24 ta loyiha amalga oshiriladi va natijada 170 ta yangi ish o'rinlari yaratilishiga erishiladi.

Tumanda savdo va xizmat ko'rsatish sohasiga alohida e'tibor beriladi. Tumanda ushbu sohani rivojlantirish hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 maydagi "2012-2016 yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish Dasturi to'g'risida"gi PQ-1754-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida keng ko'lamdagi ishlar amalga oshiriladi. Ushbu qaror yuzasidan tumanda 2012-2016 yillarga mo'ljallangan tumanda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish dasturi ishlab chiqilgan. Tumanda ushbu dasturga asosan xizmatlar sohasining o'sish suratlari 2012-2016 yillarda 2,3 barobarga ortishi prognoz qilinmoqda. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun "Mikrokreditbank" OATB mablag'lari hisobidan 1185 mln.so'm imtiyozli kredit mablag'lari yo'naltiriladi. Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, tumanda xizmat ko'rsatish hajmi 2013 yilda 62,4 mlrd.so'm, 2014 yilda 67,3 mlrd.so'm va 2015 yilda 74 mlrd.so'mni tashkil etadi. Shuningdek, chakana savdo aylanmasi 2015 yilga borib 139,4 mlrd.so'mga yoki 1,5 barobarga ortadi. Pullik xizmat ko'rsatish hajmi 2015 yilda 39,5 mlrd.so'mga yoki 125 foizga o'sishi ta'minlanadi.

Tumanda ushbu maqsadlarga erishish uchun, oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari bilan savdo qiluvchi chakana savdo korxonalari tarmoqlari kengaytiriladi, ayniqsa qishloq joylaridagi chakana savdo faoliyati rivojlantiriladi, umumiy ovqatlanish korxonalari tarmoqlari tashkillashtiriladi, umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari tizimidagi oshxonalar va bufetlar xizmati kengaytiriladi. 2013-2015 yillardagi tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturiga muvofiq qiymati 2036,5 ming dollarlik jami 30 ta loyiha amalga oshirilishi va 178 ta yangi ish o'rnining yaratilishiga erishish ko'zda tutilmoqda.

3.2.2-jadval

Kasbi tumanida 2013-2015 yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning maqsadli parametrlari, foiz hisobida

Ko'rsatkichlar	2012 yil haqiqat	2013 yil prognoz	2014 yil prognoz	2015 yil prognoz
Yalpi hududiy mahsulotda kichik biznesning ulushi	x	x	x	x
shundan:				
kichik korxonalarda	x	x	x	x
mikrofirmalarda	x	x	x	x
yakka tartibdagi tadbirkorlikda	x	x	x	x
kichik biznesda band bo'lganlar	41,2	42,0	43,3	44,6
sanoatda	6,1	6,2	6,4	6,6
qishloq xo'jaligida	100	100	100	100
asosiy kapital mablag'larda	76,9	78,0	80,8	83,2
qurilishda	86,9	89	91,3	94,0
chakana savdo aylanmasida	44	45	46,2	47,6
pullik xizmatda	74,7	76	78,5	80,8
yuk tashishda	75,5	77,0	79,3	81,7
yuk aylanmasida	85,0	87,0	89,3	92,0
yo'lovchi tashishda	78,7	80,0	82,7	85,2
Jami ro'yxatdan o'tgan songa nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes korxonalari ulushi	94,0	95,0	96,1	96,2

Manba: *Kasbi tuman Iqtisodiyot bo'limi ma'lumotlari*

Tumanda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, unda band bo'lganlar sonini oshirish, sanoatda, qishloq xo'jaligida, xizmat ko'rsatish sohasida, qurilishda, asosiy kapital mablag'larda, yuk va yo'lovchi tashish sohalarida uning ulushini ko'paytirish uni imtiyozli kreditlar bilan ta'minlash,

tadbirkorlarning huquqiy muhofazasini kuchaytirish tuman ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining kelgusi dasturlarida ham muhim ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi. 2013-2015 yillar davomida ushbu sohani kreditlash hajmi qariyb 2 barobarga ortadi. Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ushbu sohada band bo'lganlar ulushi 2012 yilda 41,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2015 yilga borib 44,6 foizga yetkazilishi rejalashtirilmoqda. Bu esa aholini ish bilan bandligini oshirishda, turmush farovonligini yaxshilashda va eng muhimi tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan daromadlarning yuqori bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda aholi daromadlarining oshib borishi bilan uning tarkibi o'zgarib, tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan daromad barqaror o'sib borayotgani alohida e'tiborga molikdir. O'tgan 2012 yilda ushbu ko'rsatkich 51 foizni tashkil qildi, boshqacha aytganda, odamlarimiz daromadining yarmidan ko'pi birinchi navbatda tadbirkorlik, kichik va xususiy biznes hisobidan shakllanmoqda.[13] 2012 yilda kichik biznesning sanoatdagi ulushi 6,1 foiz, qishloq xo'jaligida 100 foiz, asosiy kapital mablag'larda 76,9 foiz, qurilishda 86,9 foiz, chakana savdo aylanmasida 44 foiz, pullik xizmatda 74,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2015 yilda bu ko'rsatkichlarni tegishli ravishda sanoatda 6,6 foizga, qishloq xo'jaligida 100 foizga, asosiy kapital mablag'larda 83,2 foizga, qurilishda 94 foizga, chakana savdo aylanmasida 47,6 foizga, pullik xizmatda 80,8 foizga oshirilishi ta'minlanadi. Shuningdek, jami ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlik subyektlarida faoliyat ko'rasatayotgan korxonalar ulushi 2012 yilda 94 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2015 yilda bu ko'rsatkich 96,2 foizga yetishi ta'minlanadi.

Fuqarolarni kichik biznes va xususiy tadbikorlikka keng jalb etish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, soliqlardan turli imtiyozlar yaratib berish, yangi loyihalarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish hisobidan yuqoridagi maqsadlarga erishish ko'zda tutilmoqda.

---

[13] I.A.Karimov Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza/ Xalq so'zi, 2013 yil 19 yanvar.

Tumanda Dasturda belgilangan tadbirlarni amalga tatbiq etish jarayonida mahalliy hokimlik, korxona, tashkilot va muassasalar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar aniq va ravshan belgilab beriladi.Belgilangan tadbirlarni amalga oshirish yaxlit bir tizimni hosil qilgan holda o'zaro hamkorlikda, bir-birini qo'llab-quvvatlash prinsiplari asosida olib boriladi.

Tumanda 2013-2015 yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish Dasturi quyidagi asosiy mexanizmlar asosida tatbiq etiladi:


– Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning ustuvor sohalari, qurilish materiallari, yengil sanoat, oziq-ovqat sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini oshirish evaziga mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga qaratilgan "Tumanda sanoatni rivojlantirish dasturi"ni amalga oshiriladi hamda maxsus ishchi guruhlar tashkil etilib, dastur ijrosi bo'yicha doimiy monitoring yo'lga qo'yiladi;

– Sanoatni samarali rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 15 dekabrdagi "2011-2015 yillarda sanoatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PQ-1442-sonli qarori ijrosini ta'minlash borasidagi tadbirlar davom ettiriladi;

– Aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini kengroq qondirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 31 oktabrdagi "Respublikaning oziq-ovqat sanoatini boshqarishni yanada takomillashtirish va 2012-2015 yillarda rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1633-sonli qarori ijrosi yuzasidan doimiy monitoring olib boriladi;

– Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan tuman dasturi ijrosi ta'minlanadi;

– Tuman iqtisodiyotining barcha tarmoq va sohalarida 2013-2015 yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar amaldagi Hukumat qarorlari asosida amalga oshiriladi hamda Dastur ijrosi yuzasidan doimiy va qatiy monitoring tizimi yaratiladi.



3.2.1-rasm. 2013 yilda Kasbi tumanida yaratiladigan yangi ish o'rinlarining sohalar bo'yicha taqsimlanishi.

Manba: *Kasbi tumani BK va AIMQ markazi ma'lumotlari*

Aholini ish bilan ta'minlash, uning daromadlarini oshirish va turmush farovonligini yuksaltirishning muhim omilidir. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "Yangi ish o'rinlari tashkil etish va mamlakatimiz aholisi bandligini ta'minlash 2013-yil va undan keyingi yillarga mo'ljallangan maqsadli vazifalarni hal qilishning eng muhim ustuvor yo'nalishi bo'lib qoladi"[14] Shu boisdan Kasbi tumanida yangi ish o'rinlari yaratishning 2013 yilga mo'ljallangan maqsadli parametrlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi hamda Senatining 2012 yil 5 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2013 yilda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturi to'g'risida"gi

[14] I.A.Karimov Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza/ Xalq so'zi, 2013 yil 19 yanvar.

qo'shma qaroriga asosan ishlab chiqilgan. 2013 yilda tumanda jami 5462 ta yangi ish o'rinlari yaratish belgilanmoqda. Yaratiladigan ish o'rinlarining 1835 tasi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etish, 1459 tasi uy mehnatining barcha shakllarini tashkil etish, 808 tasi fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, 655 tasi yakka tadbirkorlikni rivojlantirish, 370 tasi mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish va kengaytirish, 315 tasi ishlab chiqarish, ijtimoiy va bozor infratuzilmasini rivojlantirish hamda 20 tasi ishlamayotgan korxonalar faoliyatini qayta tiklash hisobidan shakllantiriladi(3.2.1-rasm).

Yuqoridagi tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturidan kelib chiqib, shuni aytishimiz mumkinki, tuman iqtisodiyotini yuksaltirishda bugungi kunda mamlakatimizni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish sharoitida mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanilgan holda, strategik ahamiyatga ega tarmoqlarni rivojlantirish, aholini ish bilan ta'minlash va turmush farovonligini oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va ushbu sohaga investitsiyalarni keng jalb etish, ushbu soha uchun infratuzilma sharoitlarini yaxshilash muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda iqtisodiyotimiz va uning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik hamda texnologik yangilashni jadallashtirish va uning ko'lamini kengaytirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish sharoitida hududlarimizni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari bitiruv malakaviy ishimizning asosiy mohiyatini kasb etdi. Bitiruv malkaviy oldi amaliyotida to'plangan ma'lumotlar asosida tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi kompleks baholandi. Bitiruv malakaviy ishi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

1. Umuman olganda tuman iqtisodiyotining yuksalishida sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo va xizmat ko'rsatish, qurilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tarmoqlarining ahamiyati yuqori bo'lib bormoqda. Birgina iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i hisoblangan sanoat sohasida tumanda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2008 yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 42598,6 mln.so'mni tashkil qilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib bu ko'rsatkich 56173,1 mln.so'mga yoki 132 foizga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

2. Tadqiqot davomida amin bo'ldikki, tuman iqtisodiyoti asosan qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan va tumanda bu sohada ijobiy yutuqlarga erishilgan. Jumladan, tumanda 2008 yilda 87389 mln.so'mlik qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2012 yilga kelib, 166548 mln.so'mga yoki qariyb 2 barobarga ko'paygan. Tumanda qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish uchun, ushbu sohaga xorijiy va mahalliy dehqonchilik va chorvachilikning eng ilg'or tajriba va usullarini olib kirishni rag'batlantirish, qishloq xo'jaligida istiqbolli hisoblangan fermer va dehqon xo'jaliklarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, qishloq xo'jaligi tarmog'ini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan infratuzilma obyektlarini vujudga keltirish asos bo'lib xizmat qiladi.

3. Tumanda aholiga zamonaviy va sifatli xizmat turlarini ko'rsatish, qishloq joylarda aholining bandligini ta'minlashda xizmat ko'rsatish va servis sohasining

ahamiyati yuqori bo'lib bormoqda. Tumanda 2008-2012 yillar davomida bozor xizmatlari ko'rsatish 3,2 barobarga va pulli xizmatlar ko'rsatish 6,7 barobarga oshganligi fikrimizning dalilidir. Tumanning keyingi dasturlarida ushbu sohani yanada rivojlantirish uchun, oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari bilan savdo qiluvchi chakana savdo korxonalari tarmoqlarini kengaytirish, ayniqsa qishloq joylarda chakana savdo bilan shug'ullanuvchilar sonini ko'paytirish, umumiy ovqatlanish korxonalarini maktablar va kasb-hunar kollejlari tizimidagi oshxona va bufetlar xizmati orqali kengaytirish o'ylaymizki, tumanda xizmat ko'rsatish sohasining istiqbolda rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

4. Tuman iqtisodiyotining yuqori suratlar bilan rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati yuqori bo'lmoqda. Birgina 2008 yilda tumanda faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari soni 4726 tani tashkil qilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib ushbu ko'rsatkich 5091 tani tashkil qilmoqda. Ushbu sohada band bo'lganlar soni ham yildan-yilga ortib, bugungi kunda iqtisodiyotda band aholining 72,5 foizi aynan shu sohada mehnat qilmoqda.

5. Tumanda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni huquqiy va iqtisodiy asoslarini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagilarni qo'llash foydadan holi bo'lmaydi:

— tumanda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi bozor va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish uchun rag'batlantiruvchi mexanizm barpo etish;

— tuman "Savdo va sanoat palatasi" bo'limi tadbirkorlarga biznes reja tayyorlashda ko'maklashishi hamda muntazam ravishda tadbirkorlarga maslahatlar berish tizimini takomillashtirishi zarur;

— kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun malakali kadrlarni tayyorlash, ularni huquqiy va iqtisodiy madaniyatini oshirish maqsadida biznes va kasbiy mahorat maktablarida o'qib kelishlari uchun yetarli shart-sharoitlar yaratib berish;

— joylarda tadbirkorlar ishtirokida biznesga oid mavzularda o'quv seminarlar, treninglar tashkil etilishiga e'tibor berish;

— tumanda kichik biznesni kreditlash tizimini yanada takomillashtirish, chunki tumanda 2012 yilda ushbu sohaga 7,5 mlrd.so'm miqdoridagi kreditlar ajratilgan bo'lsa, bu ko'rsatkichni 2015 yilga borib 19,3 mlrd.so'mga yetkazish mo'ljallanmoqda. Ushbu maqsadlarga erishish uchun tumanda tijorat banklari tomonidan berilayotgan kredit muddatlarini uzaytirish, foiz stavkalarini pasaytirish hamda kredit olishdagi byuroratik to'siqlarga barham berish, tadbirkorlarga turli bank xizmatlarini taklif etish, zarur hollarda kreditni naqd pulda berilishini yo'lga qo'yish va ushbular yuzasidan doimiy nazorat o'rnatish;

— tumanda hech bo'lmaganda bitta eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqaruvchi kichik biznes korxonasi faoliyatini yo'lga qo'yish va buning uchun bor kuch imkoniyatlarni ishga solish zarur;

— lizing, audit, konsalting, injiniring va boshqa xizmat ko'rsatish muassasalaridan foydalanishni yo'lga qo'yish;

— kichik biznes subyektlarining huquqiy muhofazasini kuchaytirish va ular faoliyatiga boshqaruv organlarining asossiz aralashuviga chek qo'yish.

6. Tumanda aholi bandligi va eksport salohiyatini oshirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb bilamiz:

— tumanda mavjud mehnat va xom-ashyo resurslarini hisobga olgan holda, tumanning iloji boricha qishloq joylarida xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi hech bo'lmasa ikkita korxona faoliyatini yo'lga qo'yish;

— qo'shma korxonalar tashkil etishda xorijiy sarmoyalarni jalb qilish uchun, tuman salohiyatini viloyat va respublika OAVlari va yarmarkalarida, kerak bo'lsa xorijda keng namoyish etish, xorijiy sarmoyalar uchun tumanda qulay investitsion muhit yaratish;

— tuman iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy sarmoyalarni qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, qurilish materiallari ishlab chiqarish, paxtani qayta ishlash, oziq-ovqat va yengil sanoat sohalariga yo'naltirish;

— tuman tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish uchun zarur infratuzilma obyektlarini barpo etish, ular faoliyatini jahon andozalariga moslashtirish;

— mehnat bozoriga kirib kelayotgan mehnat resurslari va yaratilayotgan yangi ish joylari o'rtasidagi nomutanosibliklarni tumanda yaratilayotgan yangi ish joylari orqali bartaraf etish;

— tumanda yaratilayotgan yangi ish o'rinlari tarkibida muqim ish joylari salmog'ini ko'paytirish;

— aholini ish bilan bandligini oshirishda ularni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etish;

— bugungi kunda eng dolzarb masalalardan hisoblangan kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ish bilan bandligini ta'minlash borasidagi chora-tadbirlarni davom ettirish. Negaki, tumanda 2012-2013 o'quv yilida 2228 nafar yigit-qiz kasb-hunar kollejlarini tamomlaydi. Ularni muqim ish joylari bilan ta'minlash birinchi galda hal qilinishi kerak bo'lgan ustuvor vazifadir;

— tashkil etilishi mo'ljallanayotgan qo'shma korxonalarda asosan tumandagi kasb-hunar bitiruvchilarini ishga olish;

— tumanda oilaviy tadbirkorlik va kasanachilikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish va shu asosda qishloqlarda xotin-qizlarning ish bilan bandligini ta'minlash. Bu borada tumanda 2012 yilda ushbu sohani qo'llab-quvvatlash uchun 605,4 mln.so'mlik imtiyozli kredit mablag'lari ajratilib, natijada 1451 ta yangi ish o'rinlari yaratilgan. 2013 yilda bu boradagi islohotlar davom ettirilib, bu sohaga 672,0 mln.so'm miqdoridagi kredit mablag'lari yo'naltirilib, 1459 ta yangi ish o'rinlari yaratiladi;

Bizning fikrimizcha, yuqorida bayon etilgan xulosa va takliflarning amalda tatbiq qilinishi tumanning istiqbolda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, qolaversa viloyatda tutgan o'rnining yuksalishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi T.: "O'zbekiston" , 2010 yil.

2. O'zbekiston Respublikasining "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida" gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 1995 yil, 6-son.

3. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. 2011 yil, 16-son.

4. O'zbekiston Respublikasining "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2013 yil, 18-son.

5. O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2007 yil, 90-son.

6. O'zbekiston Respublikasining "Investitsion faoliyat to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2008 yil, 197-son.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 apreldagi "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-4434-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2013 yil, 12-son.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 24 avgustdagi "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4354-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2012 yil, 52-son.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 28 iyuldagi "Ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4232-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2010 yil, 30-son.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 noyabrdagi "Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4058-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2012 yil, 8-9- son.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 14 fevraldagi "Obod turmush yili" davlat Dasturi to'g'risidagi PQ-1920-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2013 yil, 8-son.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 25 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining 2013 yil uchun asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va parametrlarining prognozi to'g'risida"gi PQ-1887-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2012 yil, 52-son.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 21 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2013 yilga mo'ljallangan Investitsiya dasturi to'g'risida"gi PQ-1855-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalarining axborotnomasi. 2012 yil, 11-son.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 maydagi "2012-2016 yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi PQ-1754-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2013 yil, 16 son.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 fevraldagi "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" davlat Dasturi to'g'risidagi PQ-1474-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2011 yil, 6-son.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 15 dekabrdagi "2011-2015 yillarda sanoatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PQ-1442-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2011 yil, 50-son.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 3 avgustdagi "Qishloq joylarda uy-joy qurilishi ko'lamini kengaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar

to'g'risida" gi PQ-1167-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2013 yil, 2-son.

III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari

18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 20 apreldagi "Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida ishbilarmonlik muhitining holati va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish indikatorlarini har chorakda baholash tizimini tasdiqlash to'g'risida"gi 117-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2012 yil, 17-son.

19. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 12 dekabrdagi "Ijtimoiy nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 350-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2012 yil, 50-son.

IV. O'zbekiton Respublikasi Prezidenti asarlari

20. Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qatiyat bilan davom ettirish". 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruza. Xalq so'zi, 2013 yil 19 yanvar.

21 . Karimov I.A. "Zamonaviy uy-joy qurilishi – qishloq joylarini kompleks rivojlantirish va qiyofasini o'zgartirish hamda aholi hayotining sifatini yaxshilash omili" mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi ma'ruza. Xalq so'zi, 2013 yil 17 aprel.

22. Karimov I.A. 2012- yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. T.: O'zbekiston, 2012.

23. Karimov I.A. "Bizning yo'limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir" O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. Xalq so'zi, 2011 yil 8 dekabr.

24. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. T.: O'zbekiston, 2011.

25. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: O'zbekiston,2009.

26. Karimov I.A. "Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modenizatsiya va isloh etishdir". –T.: O'zbekiston, 2005.

27. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O'zbekiston, 1997.

28. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.: O'zbekiston, 1995.

V. Darsliklar va o'quv qo'llanmalar

29. Abdurahmonov Q. X., Shoyusupova N. T. "Mehnat iqtisodiyoti: ijtimoiy mehnat munosabatlari" – TDIU. Toshkent, 2011.

30. Ishmuhamedov A.E., Raximova M.R. "Mintaqaviy iqtisodiyot". Darslik. – TDIU. Toshkent, 2010.

31. Ishmuhamedov A.E., Jumayev Z.A. va boshqalar. "Makroiqtisodiyot". Darslik. – TDIU. Toshkent, 2005.

32. Ishmuhamedov A.E. "O'zbekiston milliy iqtisodiyoti". TDIU. Toshkent,2005.

33. Jumayev T., Hakimov N., Abirqulov Q., Islomov A. "Iqtisodiy geografiya" TDIU. Toshkent, 2005.

34. Qayumov A.A., Nazarova X.M., Egamberdiyev F.T., Yakubov O'.Sh. "Mintaqaviy iqtisodiyot". – T.: Universitet, 2004.

35. Yakubov I.O., Ochilov K.T., Abdusattarova H.M., Sitdikova L.A. "Strategik rejalashtirish" TDIU. Toshkent, 2004.

36. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining majlisidagi “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko’taradigan yil bo’ladi” mavzusidagi ma’ruzasini o’rganish bo’yicha o’quv qo’llanma. – T.: Iqtisodiyot.- 2012.

37. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2010 yilning asosiy yakunlari va 2011 yilda O’zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi” mavzusidagi ma’ruzasini o’rganish bo’yicha o’quv qo’llanma. – T.: Iqtisodiyot.-2011.

VI. Statistik to’plamlar va jurnallar

38. O’zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendensiya va ko’rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo’ljallangan prognozlari: statistik to’plam. – T.: “O’zbekiston”, 2011.

39. O’zbekiston iqtisodiyoti. Axborot-tahliliy byulleten. 2012 yil yanvar-sentabr. Toshkent 2012.

40. Ozbekiston iqtisodiy axborotnomasi. Tahliliy jurnal. 2012 yil 1 son.

41. O’zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. Tahliliy jurnal. 2012 yil 5 son.

VII. Internet sahifalari

40. **www.gov.uz**

41. **www.stat.uz**

42. **www.mfer.uz**

43. **www.lex.uz**

44. **www.mineconomy.uz**

45. **www.uza.uz**

Ўзбекистон Республикасининг Қонуни
Оилавий тадбиркорлик тўғрисида

(Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2012 й., 17-сон, 188-модда)

Қонунчилик палатаси томонидан 2012 йил 16 мартда қабул қилинган

Сенат томонидан 2012 йил 23 мартда маъқулланган

1-боб. Умумий қоидалар

1-модда. Ушбу Қонуннинг мақсади

Ушбу Қонуннинг мақсади оилавий тадбиркорлик соҳасидаги муносабатларни тартибга солишдан иборат.

2-модда. Оилавий тадбиркорлик тўғрисидаги қонун ҳужжатлари

Оилавий тадбиркорлик тўғрисидаги қонун ҳужжатлари ушбу Қонун ва бошқа қонун ҳужжатларидан иборатдир.

Агар Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномасида Ўзбекистон Республикасининг оилавий тадбиркорлик тўғрисидаги қонун ҳужжатларида назарда тутилганидан бошқача қоидалар белгиланган бўлса, халқаро шартнома қоидалари қўлланилади.

3-модда. Оилавий тадбиркорлик

Оилавий тадбиркорлик оила аъзолари томонидан тааккал қилиб ва ўз мулкий жавобгарлиги остида даромад (фойда) олиш мақсадида амалга ошириладиган ташаббускорлик фаолиятидир.

Оилавий тадбиркорлик ўз иштирокчиларининг ихтиёрийлигига асосланади.

Оилавий тадбиркорлик юридик шахс ташкил этган ёки ташкил этмаган ҳолда амалга оширилиши мумкин.

Юридик шахс ташкил этган ҳолда амалга ошириладиган оилавий тадбиркорликнинг ташкилий-ҳуқуқий шакли оилавий корхонадир.

Юридик шахс ташкил этмаган ҳолда оилавий тадбиркорлик қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда амалга оширилади.

4-модда. Оилавий корхона

Оилавий корхона унинг иштирокчилари томонидан товарлар ишлаб чиқариш (ишлар бажариш, хизматлар кўрсатиш) ва реализация қилишни амалга ошириш учун ихтиёрий асосда, оилавий корхона иштирокчиларининг улушли ёки биргаликдаги мулкида бўлган умумий мол-мулк, шунингдек оилавий корхона иштирокчиларидан ҳар бирининг мол-мулки негизида ташкил этиладиган кичик тадбиркорлик субъектидир. Оилавий корхона

фаолияти унинг иштирокчиларининг шахсий меҳнатига асосланади. Оилавий корхона тадбиркорлик субъектларининг ташкилий-ҳуқуқий шаклларидан биридир.

Оилавий корхона фаолиятни фақат юридик шахс ташкил этган ҳолда амалга ошириши мумкин. Оилавий корхона ўз мулкида алоҳида мол-мулкка эга бўлиши, ўз номидан мулкий ва шахсий номулкий ҳуқуқларни олиши ҳамда амалга ошириши, зиммасига мажбуриятлар олиши, судда даъвогар ва жавобгар бўлиши мумкин.

Оилавий корхона ўз мажбуриятлари бўйича қонунга мувофиқ ундирув қаратилиши мумкин бўлган ўзига тегишли барча мол-мулк билан жавоб беради.

Оилавий корхона иштирокчилари корхона мол-мулки етарли бўлмаганда оилавий корхонанинг мажбуриятлари бўйича ўзига тегишли мол-мулк билан қонун ҳужжатларига мувофиқ субсидиар жавобгар бўлади.

Оилавий корхона қонун ҳужжатларига мувофиқ ходимларни ёллашни амалга ошириши мумкин.

Оилавий корхона иштирокчиларининг ва унинг ёлланма ходимларининг умумий сони кичик тадбиркорлик субъектлари ходимларининг қонун ҳужжатларида белгиланган ўртача йиллик сонидан кўп бўлиши мумкин эмас. Бунда оилавий корхона иштирокчиларининг энг кам сони икки кишидан оз бўлмаслиги керак.

Оилавий корхона тўлиқ фирма номига эга бўлиши лозим ва қисқартирилган фирма номига эга бўлишга ҳақли. Оилавий корхонанинг тўлиқ фирма номи унинг тўлиқ номини ва «oilaviy korxona» деган сўзларни ўз ичига олиши керак. Оилавий корхонанинг қисқартирилган фирма номи унинг қисқартирилган номини ва «oilaviy korxona» деган сўзларни ёки «ОК» аббревиатурасини ўз ичига олиши керак.

5-модда. Оилавий корхона иштирокчилари

Оила бошлиғи, унинг хотини (эри), болалари ва набиралари, ота-онаси, меҳнатга қобилиятли ёшга тўлган бошқа қариндошлари (болалари ва набираларининг эрлари (хотинлари), туғишган ҳамда ўгай ака-ука ва опа-сингиллари, уларнинг эрлари (хотинлари) ҳамда болалари, тоға ва амаки ҳамда амма ва холалари) оилавий корхона иштирокчилари бўлиши мумкин. Фақат муомалага лаёқатли шахслар оилавий корхона иштирокчилари бўлиши мумкин.

Давлат органларининг мансабдор шахслари, шунингдек қонун ҳужжатларида тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланиши тақиқланган бошқа шахслар оилавий корхона иштирокчилари бўлиши мумкин эмас.

Бир оилавий корхона иштирокчиси бир вақтнинг ўзида бошқа оилавий корхона иштирокчиси бўлиши мумкин эмас.

6-модда. Оилавий корхона бошлиғи

Юридик ва жисмоний шахслар билан ўзаро муносабатларда оилавий корхона номидан унинг бошлиғи иш кўради.

Оилавий корхона иштирокчиларидан бири унинг бошлиғи бўлиши мумкин, унга оилавий корхонанинг барча иштирокчилари бир овоздан иш муомаласида ўз номларидан иштирок этиш ҳуқуқини беради.

Оилавий корхона бошлиғи вақтинчалик меҳнат қобилиятини йўқотган ёки узоқ вақт бўлмаган тақдирда, у ўз вазифасини вақтинча бажариб туриш ваколатини оилавий корхонанинг қолган иштирокчилари билан келишган ҳолда улардан бирига беришга ҳақли.

2-боб. Оилавий корхонани ташкил этиш ва давлат рўйхатидан ўтказиш

7-модда. Оилавий корхонани ташкил этиш тартиби

Оилавий корхона унинг иштирокчилари томонидан ташкил этилади.

Оилавий корхона, агар унинг таъсис шартномасида бошқача қоида назарда тутилган бўлмаса, номуайян муддатга ташкил этилади.

8-модда. Оилавий корхона иштирокчиларининг умумий йиғилиши

Оилавий корхона иштирокчиларининг умумий йиғилиши оилавий корхонанинг юқори бошқарув органидир.

Оилавий корхона иштирокчилари умумий йиғилишининг ваколатларига қуйидагилар киради:

оилавий корхонанинг таъсис шартномасига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш;

оилавий корхона бошлиғини сайлаш;

оилавий корхона фаолиятининг турларини белгилаш;

оилавий корхонанинг устав фондини белгилаш ва унинг миқдорига ўзгартишлар киритиш;

оилавий корхона бошлиғининг оилавий корхона молия-хўжалик фаолияти тўғрисидаги йиллик ҳисоботини кўриб чиқиш;

таъсис шартномасига мувофиқ оилавий корхонанинг фойдасини тақсимлаш тўғрисида қарор қабул қилиш;

оилавий корхонанинг мол-мулкига доир йирик битимлар тузиш тўғрисида қарор қабул қилиш.

Оилавий корхона иштирокчилари умумий йиғилишининг ваколатларига таъсис шартномасида назарда тутилган бошқа масалаларни ҳал этиш ҳам киритилиши мумкин.

9-модда. Оилавий корхонанинг таъсис шартномаси

Оилавий корхонанинг таъсис ҳужжати мазкур корхонанинг барча иштирокчилари томонидан тузиладиган таъсис шартномасидир.

Оилавий корхонанинг таъсис шартномасида қуйидагилар кўрсатилади:

оилавий корхона бошлиғининг ва оилавий корхона бошқа иштирокчиларининг фамилияси, исми, отасининг исми ҳамда яшаш жойи (манзили);

оилавий корхона устав фондининг миқдори;

оилавий корхона иштирокчилари томонидан унинг устав фондига киритиладиган мол-мулкни белгилаш тартиби;

оилавий корхонанинг фирма номи ва жойлашган ери (почта манзили) тўғрисидаги маълумотлар;

оилавий корхона иштирокчилари ўртасида тадбиркорлик фаолиятидан олинган фойдани, шунингдек оилавий корхона тугатилганда мол-мулкни тақсимлаш тартиби;

оилавий корхона иштирокчиларининг оилавий корхона фойдаланишига берилаётган мол-мулки рўйхати;

оилавий корхонанинг мол-мулкига доир йирик битимнинг миқдори;

оилавий корхона иштирокчиларининг умумий йиғилиши томонидан қарорлар қабул қилиш тартиби;

оилавий корхона иштирокчилари муҳим деб ҳисоблайдиган бошқа шартлар.

Таъсис шартномаси оилавий корхонанинг барча иштирокчилари томонидан имзоланади.

Оилавий корхона бошлиғи ўзгарган, иштирокчи оилавий корхона таркибига ихтиёрий равишда кирган (ундан чиқиб кетган), эр ва хотин ўртасидаги никоҳ бекор қилинган ёки оилавий корхона иштирокчиси вафот этган ва бу ҳоллар оилавий корхона балансига берилган оилавий корхона иштирокчиларининг мол-мулки рўйхатида ўзгаришларга сабаб бўлган тақдирда, таъсис шартномасига тегишли ўзгартиш ва қўшимчалар киритилади. Бунда оилавий корхонани қайта давлат рўйхатидан ўтказиш талаб қилинмайди.

10-модда. Оилавий корхонани давлат рўйхатидан ўтказиш

Оилавий корхона кичик тадбиркорлик субъектлари учун назарда тутилган соддалаштирилган тартибда давлат рўйхатидан ўтказилган санадан эътиборан юридик шахс мақомига эга бўлади.

Рўйхатдан ўтказувчи органлар ариза берувчини оилавий корхона сифатида давлат рўйхатидан ўтказишни уни ташкил этиш мақсадга мувофиқ эмас деган важлар билан рад этишга ёки қонун ҳужжатларида назарда тутилмаган қўшимча талаблар белгилашга ҳақли эмас.

Ариза берувчини оилавий корхона сифатида давлат рўйхатидан ўтказишни рад этганлик, шунингдек рўйхатдан ўтказиш муддатини бузганлик устидан судга шикоят қилиниши мумкин. Рўйхатдан ўтказувчи органнинг қарори, шунингдек мазкур орган мансабдор шахсларининг ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) суд томонидан қонунга хилоф деб топилган тақдирда, улар ариза берувчига оилавий корхонани рўйхатдан ўтказишни рад этганлик ёки рўйхатдан ўтказиш муддатини бузганлик туфайли етказилган зарарнинг ўрнини қоплайди ва маънавий зарар учун компенсация тўлайди.

11-модда. Оилавий корхонанинг устав фонди

Оилавий корхонанинг устав фонди пул маблағлари, қимматли қоғозлар, бошқа мол-мулк, шу жумладан пул билан баҳоланадиган мулкий ҳуқуқлар ёки ўзга шахсга ўтказиладиган бошқа ҳуқуқлар ҳисобидан шакллантирилади. Ягона уй (квартира) оилавий корхонанинг устав фондига киритилиши мумкин эмас.

Оилавий корхона иштирокчилари оилавий корхонанинг устав фондига корхона таъсис шартномасида назарда тутилган тартибда ўзлари киритадиган мол-мулкни мустақил равишда белгилайди.

Оилавий корхонанинг устав фонди корхонани давлат рўйхатидан ўтказиш учун ҳужжатлар тақдим этиладиган санадаги қонун ҳужжатларида белгиланган энг кам иш ҳақининг ўн баравари миқдоридан кам бўлмаслиги керак.

3-боб. Оилавий корхонанинг ҳамда унинг иштирокчиларининг ҳуқуқ ва мажбуриятлари

12-модда. Оилавий корхонанинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари

Оилавий корхона қуйидаги ҳуқуқларга эга:

мустақил равишда товарлар ишлаб чиқаришга (ишлар бажаришга, хизматлар кўрсатишга) доир фаолиятни ташкил этиш, ишлаб чиқарилган товарларни (ишларни, хизматларни) тасарруф этиш ва уларга нарх белгилаш;

мустақил равишда ўз молиявий маблағларини шакллантириш ва қарз маблағларини жалб этиш, шу жумладан дастлабки (бошланғич) капитални шакллантириш учун кредитлар олиш;

лизинг ва суғурта хизматларидан фойдаланиш;

шартномалар тузиш, шу жумладан товарларни (ишларни, хизматларни) харид қилиш ва реализация қилиш учун шартномалар тузиш;

тадбиркорликдан чекланмаган миқдорда даромад (фойда) олиш;

ўз фирма номи ёзилган муҳрлардан, бланкалардан ва штамплардан фойдаланиш ҳамда товар белгисига (хизмат кўрсатиш белгисига) эга бўлиш;

ташқи иқтисодий фаолиятни амалга ошириш.

Оилавий корхона:

тузилган шартномалар бўйича зиммасига олган мажбуриятларни ўз вақтида ва тегишли тартибда бажариши;

оилавий корхонанинг иштирокчилари ва ёлланма ходимлари меҳнатига ҳақ тўлаш миқдорини белгилаши, улар билан ўз вақтида ҳисоб-китоб қилиши, шунингдек иш берувчи сифатида ўз фуқаролик жавобгарлигини суғурта қилиши;

солиқлар ва бошқа мажбурий тўловларни тўлаши;

меҳнатни муҳофаза қилиш ҳамда хавфсизлик техникаси, экология, санитария ва гигиена соҳасидаги норматив ҳужжатлар талабларига риоя этиши;

реализация қилинадиган маҳсулот ва хизматлар учун қонун ҳужжатларига мувофиқ сертификатларга эга бўлиши; .

жойлашган ери (почта манзили) ва бошқа реквизитлари ўзгарганлиги ҳақида тегишли давлат органларини ўз вақтида хабардор қилиши шарт.

Оилавий корхона қонунга мувофиқ бошқа ҳуқуқларга эга бўлиши ва унинг зиммасида ўзга мажбуриятлар бўлиши мумкин.

13-модда. Оилавий корхона бошлиғининг ҳуқуқ ва мажбуриятлари

Оилавий корхона бошлиғи қуйидаги ҳуқуқларга эга:

оилавий корхона номидан ишончномасиз иш кўриш;

юридик ва жисмоний шахслар билан оилавий корхона фаолиятига боғлиқ бўлган шартномалар тузиш;

меҳнат шартномалари (контрактлар) тузиш ва штатларни тасдиқлаш;

ишончномалар бериш.

Оилавий корхона бошлиғи:

оилавий корхонани шахсан бошқариши ва унинг кундалик фаолиятини ташкил этиши;

оилавий корхонанинг мол-мулки билан боғлиқ йирик битимлар тузишда иштирокчиларнинг розилигини олиши;

меҳнат тўғрисидаги қонун ҳужжатлари нормаларига риоя этилишини таъминлаши;

бухгалтерия ҳисоби юритилишини таъминлаши шарт.

Оилавий корхона бошлиғи қонунга мувофиқ бошқа ҳуқуқларга эга бўлиши ва унинг зиммасида ўзга мажбуриятлар бўлиши мумкин.

14-модда. Оилавий корхона иштирокчиларининг ҳуқуқ ва мажбуриятлари

Оилавий корхона иштирокчилари қуйидаги ҳуқуқларга эга:

оилавий корхонани бошқаришда, қарорлар қабул қилишда, молия-хўжалик фаолиятини назорат қилишда иштирок этиш;

оилавий корхона таъсис шартномасининг шартларига боғлиқ ҳолда фойдадан ўз улушини олиш;

оилавий корхона таркибидан ихтиёрий равишда чиқиш;

агар оилавий корхонанинг таъсис шартномасида бошқача қоида назарда тутилган бўлмаса, оилавий корхона таркибидан чиқишда оилавий корхона мол-мулки қийматининг бир қисми устав фондига ўзи киритган мол-мулк миқдорига мутаносиб равишда қайтариб берилиши ёки шундай қийматдаги мол-мулк натурал ҳолда ўзига ажратиб берилиши.

Оилавий корхона иштирокчилари оилавий корхонанинг фаолиятида шахсий меҳнати билан иштирок этиши шарт.

Оилавий корхона иштирокчилари қонун ҳужжатларига мувофиқ бошқа ҳуқуқларга эга бўлиши ва уларнинг зиммасида ўзга мажбуриятлар бўлиши мумкин.

4-боб. Оилавий корхонанинг фаолияти

15-модда. Оилавий корхонанинг мол-мулки

Оилавий корхонанинг мол-мулки:

оилавий корхона иштирокчилари томонидан унинг устав фондига киритиладиган мол-мулкдан;

қарз маблағлари ва кредитлар ҳисобига олинган мол-мулкдан;

товарларни реализация қилишдан, ишлар бажаришдан, хизматлар кўрсатишдан олинган ва оилавий корхонани ривожлантиришга йўналтирилган даромадлардан, шунингдек бу даромадлар ҳисобига олинган мол-мулкдан;

қонун ҳужжатларида тақиқланмаган бошқа маблағлардан таркиб топади.

16-модда. Оилавий корхонанинг фаолияти амалга ошириладиган жой

Оилавий корхона иштирокчиларига мулк ҳуқуқи асосида ёки бошқа қонуний асосда тегишли бўлган турар жойлар ва яшаш учун мўлжалланмаган жойлар, шу жумладан ишлаб чиқариш, хўжалик бинолари ва бошқа иморатлар оилавий корхона фаолияти амалга ошириладиган жойдир.

Оилавий корхона иштирокчиларига мулк ҳуқуқи асосида тегишли бўлган турар жойларни улардан оилавий корхона фаолиятида фойдаланиш мақсадида яшаш учун мўлжалланмаган жойларга айлантириш талаб қилинмайди, бундан фаолиятнинг айрим турлари учун қонун ҳужжатларида назарда тутилган ҳоллар мустасно.

17-модда. Оилавий корхона фаолиятини амалга ошириш шартлари

Оилавий корхона фаолиятнинг айрим турларини фақат махсус рухсатнома (лицензия) мавжуд бўлганда амалга ошириши мумкин.

Оилавий корхона акциз солиғи тўланадиган маҳсулотни ишлаб чиқаришни ва ер қаъридан фойдаланганлик учун солиқ солинадиган фойдали

қазилмалар кавлаб олишни, шунингдек юридик шахслар учун қатъий белгиланган солиқ ёки ягона ер солиғи тўлаш назарда тутилган фаолиятни амалга ошириши мумкин эмас.

Оилавий корхона фаолиятида заҳарли, радиоактив моддалар ва материаллардан, юқори босимли асбоб-ускуналардан ҳамда инсон ва атроф-муҳит учун катта хавф туғдирадиган бошқа асбоб-ускуналардан фойдаланишга йўл қўйилмайди. Оилавий корхона фойдаланиши мумкин бўлмаган моддалар, материаллар ва асбоб-ускуналарнинг рўйхати Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан белгиланади.

Оилавий корхона томонидан саноат тусидаги фаолиятни кўп квартирали уйнинг турар жойларида амалга оширишга йўл қўйилмайди.

Оилавий корхона фаолияти қонун ҳужжатларида белгиланган нормалар ва қоидаларга риоя этилган ҳолда амалга оширилиши керак.

18-модда. Оилавий корхона маҳсулотини реализация қилиш

Оилавий корхона ўзи ишлаб чиқарган маҳсулотни нақд пулли ва (ёки) нақд пулсиз ҳисоб-китоб бўйича реализация қилиши мумкин. Оилавий корхона маҳсулотини реализация қилиш у ишлаб чиқарилган жойда амалга оширилиши мумкин.

19-модда. Оилавий корхонада ҳисоб ва ҳисобот

Оилавий корхонада ҳисоб ва ҳисобот, шунингдек унинг фаолияти устидан статистика кузатувлари кичик тадбиркорлик субъектлари учун назарда тутилган тартибда юритилади.

5-боб. Оилавий корхонада меҳнат. Оилавий корхона иштирокчилари ва ёлланма ходимларининг ижтимоий муҳофазаси

20-модда. Оилавий корхонада меҳнатга оид муносабатлар

Оилавий корхона иштирокчиларининг шахсий меҳнатини амалга ошириш шартлари улар ўртасидаги келишувга кўра белгиланади.

Оилавий корхона (иш берувчи) ва оилавий корхонанинг ёлланма ходими ўртасидаги меҳнатга оид муносабатлар меҳнат тўғрисидаги қонун ҳужжатларига мувофиқ меҳнат шартномаси (контракт) билан тартибга солинади.

21-модда. Оилавий корхонада меҳнатга ҳақ тўлаш

Оилавий корхона оилавий корхонанинг иштирокчилари ва ёлланма ходимлари учун меҳнат ҳақи, мукофотлар ҳамда компенсацияларнинг шаклларини, тизимини ва миқдорини қонун ҳужжатларига мувофиқ мустақил равишда белгилайди.

Оилавий корхона иштирокчилари ва ёлланма ходимларининг меҳнат ҳақи тарафларнинг келишувига кўра, лекин қонун ҳужжатларида белгиланган энг кам миқдордан оз бўлмаган миқдорда белгиланади.

22-модда. Оилавий корхона иштирокчиларининг ва ёлланма ходимларининг ижтимоий муҳофазаси

Оилавий корхона корхонанинг иштирокчилари ва ёлланма ходимларига хавфсиз меҳнат шароитларини, ижтимоий муҳофаза чораларини таъминлаши шарт ҳамда уларнинг ҳаётига ёки соғлиғига етказилган зарар учун жавобгар бўлади.

Оилавий корхона корхонанинг иштирокчилари ва ёлланма ходимлари учун қонун ҳужжатларида белгиланганига нисбатан имтиёзлироқ меҳнат ва ижтимоий-иқтисодий шарт-шароитларни мустақил равишда белгилашга ҳақли.

Оилавий корхонада иштирокчилар ва ёлланма ходимларнинг ишлаган вақти давлат ижтимоий суғуртаси бўйича бадаллар тўланганлигини тасдиқловчи ҳужжатлар ва қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда юритиладиган меҳнат дафтарчасидаги ёзувлар асосида меҳнат стажига қўшилади.

Оилавий корхона оилавий корхонанинг иштирокчилари ва ёлланма ходимлари ҳаётига ёки соғлиғига меҳнатда майиб бўлиши, касб касаллигига чалиниши ёки улар ўз меҳнат вазифаларини бажариши билан боғлиқ ҳолда соғлиғининг бошқача тарзда шикастланиши сабабли етказилган зарарнинг ўрнини қоплаш бўйича ўз фуқаролик жавобгарлигини иш берувчи сифатида қонун ҳужжатларида белгиланган шартлар ва тартиб асосида суғурталаши шарт.

6-боб. Оилавий корхона фаолияти эркинлигининг кафолатлари

23-модда. Оилавий корхонани давлат томонидан қўллаб-қувватлаш

Давлат оилавий корхонанинг ҳуқуқларига риоя этилишини ва қонуний манфаатлари ҳимоя қилинишини кафолатлайди.

Давлат органлари оилавий корхонани ривожлантириш ва мустаҳкамлашга кўмаклашиши шарт.

Давлат органлари қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда:

фойдаланилмаётган яшаш учун мўлжалланмаган жойлар уларда товарлар ишлаб чиқаришни (ишлар бажаришни, хизматлар кўрсатишни) ташкил этиш учун оилавий корхонага ижарага берилишини;

ишлаб чиқариш майдонлари қуриш учун оилавий корхонага ер ажратилишини;

оилавий корхона ишлаб чиқариш объектларининг муҳандислик-коммуникация тармоқларига уланишини;

оилавий корхона томонидан ишлаб чиқарилган маҳсулотни реализация қилиш учун махсус жойлар берилишини таъминлайди.

24-модда. Оилавий корхона мол-мулкининг национализация, мусодара ва реквизиция қилинишига йўл қўйилмаслиги

Оилавий корхонанинг мол-мулки национализация, мусодара ва реквизиция қилинмайди, қонунда назарда тутилган ҳоллар бундан мустасно.

25-модда. Оилавий корхона фаолиятининг эркинлиги

Оилавий корхона қонун ҳужжатларига мувофиқ ҳар қандай фаолият тури билан шуғулланиши мумкин.

Оилавий корхона битимлар тузишда эркиндир.

Оилавий корхона фаолиятини амалга оширишда, шу жумладан унинг томонидан технологияларни, ишлаб чиқариладиган маҳсулотнинг ассортиментини танлашда, маҳсулот нархини ҳамда уни реализация қилиш йўналишларини белгилашда давлат органларининг ва улар мансабдор шахсларининг аралашувига йўл қўйилмайди.

26-модда. Оилавий корхонага солиқ солиш хусусиятлари

Оилавий корхона қонун ҳужжатларида белгиланадиган тартибда ягона солиқ тўловини тўловчидир.

Оилавий корхонанинг фойдаси солиқлар ва бошқа мажбурий тўловлар тўланганидан кейин унинг иштирокчилари тасарруфига ўтади ҳамда унга солиқ солинмайди.

Оилавий корхона меҳнат ҳақи фондидан ижтимоий фондларга қонун ҳужжатларида назарда тутилган тартибда мажбурий тўловлар тўлайди. Оилавий корхона ўзи ишлаб чиқарган халқ бадиий ҳунармандчилиги ва амалий санъати буюмларини реализация қилишдан олинган тушум бўйича ягона солиқ тўловини тўлашдан қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда озод қилинади. Бундай буюмларнинг рўйхати Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан тасдиқланади.

Оилавий корхонага кичик тадбиркорлик субъектлари учун қонун ҳужжатларида назарда тутилган имтиёзлар, преференциялар ва кафолатлар татбиқ этилади.

27-модда. Оилавий корхона фаолиятини текширишларнинг чекланиши

Оилавий корхонанинг молия-хўжалик фаолиятини режали текширишлар кўпи билан тўрт йилда бир марта амалга оширилади.

Янги ташкил этилган оилавий корхонанинг молия-хўжалик фаолияти у давлат рўйхатидан ўтказилган пайтдан эътиборан дастлабки уч йил мобайнида режали текширувлардан ўтказилмайди, бундан бюджет маблағларидан ва марказлаштирилган маблағлардан ҳамда ресурслардан мақсадли фойдаланиш билан боғлиқ текширишлар мустасно.

28-модда. Оилавий корхонанинг коммунал инфратузилма объектларидан фойдаланишини таъминлаш

Оилавий корхона турар жойдан бир вақтнинг ўзида унда истиқомат қилган ҳолда товарлар ишлаб чиқариш (ишлар бажариш, хизматлар кўрсатиш) учун фойдаланган тақдирда, коммунал инфратузилма хизматлари (электр энергияси, сув таъминоти, канализация, газ таъминоти ва иссиқлик таъминоти) ҳақини тўлаш аҳоли учун белгиланган тарифлар бўйича ва шартлар асосида амалга оширилади.

Коммунал хизмат кўрсатиш, электр ва газ таъминоти корхоналари зарур коммуникация тармоқларининг оилавий корхона фаолияти амалга оширилаётган жойгача етказилишини ҳамда уланишини аҳоли учун белгиланган тарифлар бўйича ва шартлар асосида таъминлайди.

29-модда. Оилавий корхонага банк хизмати кўрсатиш ва уни кредитлаш

Оилавий корхонага банк хизмати кўрсатиш қонун ҳужжатларига мувофиқ банк билан тузилган шартномалар асосида амалга оширилади.

Банклар белгиланган тартибда оилавий корхонанинг миллий ва хорижий валютадаги ҳисобварақларини очади ҳамда уларга хизмат кўрсатади.

Оилавий корхонани кредитлаш банк ёки бошқа кредит ташкилоти билан тузиладиган кредит шартномаси асосида амалга оширилади. Оилавий корхонага кредитлар беришда банклар, бошқа кредит ёки суғурта ташкилотлари кафолат берувчи бўлиши мумкин. Тўловга қобилиятли юридик ва жисмоний шахслар, шунингдек фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда кафил бўлиши мумкин.

7-боб. Якунловчи қоидалар

30-модда. Оилавий корхонани қайта ташкил этиш ва тугатиш

Оилавий корхонани қайта ташкил этиш қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда унинг иштирокчилари томонидан амалга оширилиши мумкин.

Оилавий корхонани тугатиш унинг иштирокчиларининг ёки суднинг қарорига кўра, шунингдек агар унда оилавий корхонанинг ягона иштирокчиси қолган бўлса, амалга оширилади.

Оилавий корхона тугатилаётганда бўшатилаётган иштирокчилар ва ёлланма ходимларга қонун ҳужжатларига мувофиқ уларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларига риоя этилиши кафолатланади.

Оилавий корхона унинг тугатилиши ҳақидаги ёзув юридик шахсларнинг ягона давлат реестрига киритилганидан кейин тугатилган ҳисобланади.

Оилавий корхонани тугатиш қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда амалга оширилади.

31-модда. Оилавий корхоналарнинг бирлашмалари

Оилавий корхоналар ўз ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш мақсадида қонун ҳужжатларига мувофиқ ассоциацияларга (уюшмаларга) ва бошқа бирлашмаларга бирлашиши мумкин.

32-модда. Низоларни ҳал этиш

Оилавий тадбиркорлик соҳасидаги низолар қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда ҳал этилади.

33-модда. Оилавий тадбиркорлик тўғрисидаги қонун ҳужжатларини бузганлик учун жавобгарлик

Оилавий тадбиркорлик тўғрисидаги қонун ҳужжатларини бузганликда айбдор шахслар белгиланган тартибда жавобгар бўлади.

34-модда. Қонун ҳужжатларини ушбу Қонунга мувофиқлаштириш

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси:

ҳукумат қарорларини ушбу Қонунга мувофиқлаштирсин;

давлат бошқаруви органлари ушбу Қонунга зид бўлган ўз норматив-ҳуқуқий ҳужжатларини қайта кўриб чиқишлари ва бекор қилишларини таъминласин.

35-модда. Ушбу Қонуннинг кучга кириши

Ушбу Қонун расмий эълон қилинган кундан эътиборан кучга киради.

Ўзбекистон Республикасининг
Президенти И. КАРИМОВ

2012 йил 26 апрель
327- сон

Касби туманининг 2009 йилдаги асосий ижтимоий-иктисодий ривожланиш курсаткичлари

Асосий курсаткичлар	Улчов бирлиги	Январ-декабр	
		2008 йил хакикатда	2009 йил хакикатда
Саноат махсулоти хажми			
Солиштирма нархда	**млн.сум**	**42598,6**	**47419,3**
Усиш суръати утган йилга нисбатан	*%*	*100,7*	*111,3*
Амалдаги нархда	**млн.сум**	**42265,0**	**47745,2**
Усиш суръати утган йилга нисбатан	*%*	*105,1*	*113,0*
Халк истеъмоли моллари харакатдаги бахода	**млн.сум**	**2008,4**	**2065,9**
Усиш суръати утган йилга нисбатан	*%*	*119,3*	*102,9*
Халк истеъмоли моллари ишлаб чикариш ахоли жон бошига	сум	13644	13764
Усиш суръати утган йилга нисбатан	*%*	*116,8*	*100,9*
янги саноат корхоналарини ишга тушириш	бирликда	7	11
модернизация	бирликда	0	5
Капитал курилиш			
Капитал маблағларни ўзлаштириш	**млн.сум**	**15973,5**	**19604**
Усиш суръати утган йилга нисбатан	%	*174,7*	*101,5*
Пудратчилар томонидан бажарилган курилиш монтаж ишлари	**млн.сум**	**12642**	**14702,7**
Усиш суръати утган йилга нисбатан	%	*183,7*	*105,1*
Чет эл инвестицияси	млн.сум	7276,8	1138,2
Усиш суръати утган йилга нисбатан	%		
Инфраструктура			
Газ билан таъминланиш даражаси	%	83,1	81,9
Сув кувурлари	км		5,4
Йиллик топширикка нисбатан, %	*%*		*108,0*
Сув билан таъминланиш даражаси	%	69,7	70,2
Уй-жойлар	минг кв.м	60,2	60,8
Йиллик топширикка нисбатан, %	*%*	*100,3*	*101,3*
Касб-хунар коллежлари курилиши	ук,ур/ёток		1020/50
Йиллик топширикка нисбатан, %	*%*		*100*
Мактабларни фойдаланишга топшириш	сони/укув урни	8/3888	9/4939
Йиллик топширикка нисбатан, %	*%*	*100,0*	*100*
- янги мактаблар	сони/укув урни	1/315	1/216
- капитал реконструкция	сони/укув урни	2/850	2/980
- капитал таъмирлаш	сони/укув урни	5/2733	6/3743
Кишлок врачлик пунктлари	сони/катнов		1/75
Йиллик топширикка нисбатан, %	*%*		*100*
Савдо			

Асосий курсаткичлар	Улчов бирлиги	Январ-декабр	
		2008 йил хакикатда	2009 йил хакикатда
Чакана савдо	**млн. сум**	**15548,5**	**17910,4**
Усиш сураъти утган йилга нисбатан	%	107,8	103,8
Жами хизматлар хажми	**млн. сум**	**18100**	**21115,9**
Усиш сураъти утган йилга нисбатан	%	115,7	115,3
Шундан			
Пулли хизмат	млн. сум	4305,8	5709,5
Усиш сураъти утган йилга нисбатан	%	114,3	110,9
Кишлок хужалик махсулотлари ишлаб чикариш			
Ялпи кишлок хужалиги махсулоти ишлаб чикариш	**млн. сум**	**71726**	**99033,9**
Усиш сураъти утган йилга нисбатан	%	*109,7*	*102,2*
шундан:			
Усимликчилкда	**млн. сум**	**43649,3**	**58175,3**
Чорвачиликда	**млн. сум**	**28076,7**	**40858,7**
Кишлок хужалик махсулотлари ишлаб чикариш			
Дон	тонна	97337,2	97598,5
Картошка	тонна	2400,6	1586
Сабзавот	тонна	8538,5	12253,5
Полиз	тонна	5245	4792,9
Мева	тонна	3211,5	3749,5
Узум	тонна	992	1010
Гушт	тонна	10296	12211
Сут	тонна	56119	61205
Тухум	минг д	8468	9710
Жун	центнер	2460	2927
Коракул тери	дона	9050	9220
Пилла	тонна	220,1	229,6
Чорва моллари ва паррандалар бош сони			
Корамоллар	бош	65575	75534
ш.ж: жамоатчилик секторида	бош	1172	1817
Сигирлар	бош	27092	29581
ш.ж: жамоатчилик секторида	бош	400	410
Чучкалар	бош	67	30
ш.ж: жамоатчилик секторида	бош	32	0
Куй ва эчкилар	бош	110130	116047
ш.ж: жамоатчилик секторида	бош	53	85
Паррандалар	бош	91460	99350
ш.ж: жамоатчилик секторида	бош	0	0
Отлар	бош	1123	1123
ш.ж: жамоатчилик секторида	бош	0	0
Янги иш уринлари яратиш	**урин**	**3172**	**4711**
Дастурга нисбатан бажарилиши	%	*104,4*	*100,1*
Махаллий бюджет			
даромад режа	млн.сум	7891,0	9030,0

Асосий курсаткичлар	Улчов бирлиги	Январ-декабр	
		2008 йил хакикатда	2009 йил хакикатда
хакикатда	млн.сум	8184,6	9469,5
бажарилиши	%	103,7	104,9
харажат режа	млн.сум	16523,1	22523,3
хакикатда	млн.сум	16757,3	22569,1
бажарилиши	%	101,4	100,2
Кичик бизнес субъектлари			
Кичик бизнес корхоналари	**сони**	4726	4872
Усиш сураъти утган йилга нисбатан	%	*102,6*	*103,1*
Кичик бизнес корхоналарига ажратилган	млн.сум	2021	2462
Усиш сураъти утган йилга нисбатан	%	*397,8*	*121,8*
Экспорт ва импорт			
Ташки савдо айланмаси	**млн.АКШ долл.**	**22,9**	**23,9**
Усиш сураъти утган йилга нисбатан	%	*115,1*	*104,4*
Экспорт	**млн. АКШ долл.**	**22,9**	**23,7**
Усиш сураъти утган йилга нисбатан	%	*115,1*	*103,5*
Шундан худудий экспорт прогнози	минг. АКШ долл.	0	
Прогнозни бажарилиши	%	*0*	
Импорт	**млн. АКШ долл.**		**0,2**
Усиш сураъти утган йилга нисбатан	%		
Кушма корхоналар фаолияти			
Кушма корхоналар	**сони**	**2**	**2**
Усиш сураъти утган йилга нисбатан	%	*66,7*	*100,0*
шундан: фаолият курсатаётганлари	*сони*	1	1
Махсулот (иш,хизмат) хажми	млн. сум	52,0	
Усиш сураъти утган йилга нисбатан	%		
Янги ташкил этилган кушма корхона	сони		
Усиш сураъти утган йилга нисбатан	%		

Касби туманини ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг 2010 йилда бажарилиши ва 2011 йилдаги прогноз кўрсаткичлари тўғрисида маълумот

(Усиш суръати таққослама бахода)

Асосий кўрсаткичлар	Ўлчов бирлиги	январ-июн		
		2010 йил хақиқат	2011 йил прогноз	2011 йил хақиқат
Саноат				
Амалдаги нархда	**млн.сўм**	**27213,7**	**28764,9**	**28828,7**
Усиш суръати ўтган йилга нисбатан	*%*	*104,6*	*103,4*	*102,7*
Халк истеъмоли моллари харакатдаги бахода	**млн.сўм**	**1168,5**	**1281,8**	**1323,2**
Усиш суръати ўтган йилга нисбатан	*%*	*113,5*	*109,7*	*113,6*
Халк истеъмоли моллари ишлаб чикариш ахоли жон бошига	**сум**	**23090,9**	**25246,1**	**25788,1**
Усиш суръати ўтган йилга нисбатан	*%*	*105,6*	*109,3*	*111,7*
янги саноат корхоналарини ишга тушириш	**бирликда**	**8**	**15**	**10**
модернизация	**бирликда**	**1**	**3**	2
Капитал курилиш				
Капитал маблағларни узлаштириш	**млн.сўм**	**14152,5**	**16323,4**	**19658,7**
Усиш суръати утган йилга нисбатан	*%*	*121,7*	*100*	*120,4*
Пудратчилар томонидан бажарилган қурилиш монтаж ишлари	**млн.сўм**	**10397**	**13400**	**20547**
Усиш суръати утган йилга нисбатан	*%*	*146,3*	*118,7*	*187,2*
Инфраструктура				
Газ кувурлари	км	1		
Сув кувурлари	км	1		-
Марказлашган сув таъминоти	%	69,6		68,8
Табиий газ таъминоти	%	81,2		80
Уй-жойлар	**минг кв.м**	**33,4**	**32**	**33,7**
Мактаблар	**сони/ук,ур**	-	-	-
янги курилиш	сони/ук,ур	-	-	-
реконструкция	сони/ук,ур	-	-	-
капитал таъмир	сони/ук,ур	-	-	-
Касб-хунар коллежлари курилиши	**сони/ук,ур**	-	-	-
Касб-хунар коллежлари реконструкция		-	-	-
янги курилиш	сони/ўқ.ўрни	-	-	-
капитал таъмир	сони/ўқ.ўрни	-	-	-
Коллежларга ётоқхона қурилиши	сони/ётоқ	-	-	-
Касалхона	сони/урин	-	-	-
Болалар спорти иншоати	сони	-	-	-
Болалар мусика ва санъат мактаби	сони	-	-	-
Чақирув пункти	сони	**1**	-	-
Йул қурилиши	км	-	-	**3,8**
- халқаро ахамиятдаги	км	-	-	-
- давлат ахамиятидаги	км	-	-	-
- вилоят ахамиятидаги	км	-	-	-

Асосий кўрсаткичлар	Ўлчов бирлиги	2010 йил хақиқат	2011 йил прогноз	2011 йил хақиқат
- ички хужалик йуллар	км	-	-	**3,8**
Кишлок хужалик махсулотлари ишлаб чикариш				
Ялпи кишлок хужалиги махсулоти ишлаб чикариш	**млн.сўм**	**47537,7**	**50235,9**	**50131,7**
Ўсиш суръати ўтган йилга нисбатан	*%*	*102,2*	*101,5*	*86,7*
шундан:				
Усимликчиликда	млн.сўм	**28687,4**	**30598,7**	**26160,5**
Чорвачиликда	млн.сўм	**18850,3**	**19637,3**	**23971,3**
Кишлок хужалик махсулотлари ишлаб чикариш				
Дон	тонна	87908	87950	52426
Картошка	тонна	1260	1270	1302
Сабзавот	тонна	5050	5100	5270
Полиз	тонна	1830	1850	2242
Мева	тонна	2688	3745	4020
Узум	тонна	17	30	18
Гушт	тонна	5262	5545	5611
Сут	тонна	26495	27900	26696
Тухум	минг д	4598	5150	5079
Жун	центнер	368	380	380
Коракул тери	дона	6225	6590	6255
Пилла	тонна	240	240	248,6
Чорва моллари ва паррандалар бош сони				
Корамоллар	бош	74818	78000	83834
Сигирлар	бош	30312	32650	31759
Чучкалар	бош	30	30	32
Куй ва эчкилар	бош	116050	121800	117225
Паррандалар	бош	99400	113000	103800
Отлар	бош	1123	1175	1125
Савдо				
Чакана савдо айланмаси	**млн.сўм**	**10008**	**11550**	**18104,7**
Усиш суръати утган йилга нисбатан	*%*	*111,8*	*118,5*	*122,3*
Бозор хизматлари	**млн.сўм**	**15063,5**	**21038,0**	**24839,3**
Усиш суръати утган йилга нисбатан	%	118,9	113,6	145,2
Савдо ва умумий овкатланиш хизмат	%	105,7	112,2	2,9м
Транспорт хизматлари	%	139,1	115,6	119,9
Алока ва ахборотлаштириш хизмат	%	114,8	107,9	1,6м
Молия ва банк хизматлари	%	92,9	110,2	118,3
Коммунал хизматлар	%	112,1	100	92,9
Маиший хизматлар	%	125,3	114,7	118,1
Автомобилларни таъмирлаш	%	126,3	116,3	112,6
Бошка хизматлар	%	122,4	116,5	102,2
Пулли хизматлар	**млн.сўм**	**3810,9**	**6850**	**6721,7**
Усиш суръати утган йилга нисбатан	*%*	*102,4*	*113,4*	*109,4*
Янги иш уринлар яратиш	**урин**	**2861**	**2650**	2996
Йиллик дастурнинг бажарилиши	*%*	*101,7*	*100,0*	113,1

Асосий кўрсаткичлар	Ўлчов бирлиги	январ-июн		
		2010 йил хақиқат	2011 йил прогноз	2011 йил хақиқат
Махаллий бюджет				
даромад	**млн.сўм**	**5380,4**	**6950,7**	**6617,4**
бажарилиши	*%*	*103,9*	*100*	*95,2*
харажат	**млн.сўм**	**14944,0**	**18332,4**	**18023,5**
бажарилиши	*%*	*97,8*	*100,0*	*98,3*
Кичик бизнес субъектлари				
Кичик бизнес корхоналари	сони	4956	5141	5037
Ўсиш суръати ўтган йилга нисбатан	*%*	*103,2*	*103,7*	*101,6*
Кичик бизнес корхоналарига ажратилган кредитлар	млн.сўм	1923	2689,6	2756
Ўсиш суръати ўтган йилга нисбатан	*%*	*150,6*	*139,9*	*143,3*
Экспорт ва импорт				
Ташқи савдо айланмаси	**млн.АҚШ долл.**	**13,0**	**14,3**	**16,8**
Ўсиш суръати ўтган йилга нисбатан	*%*	*87,2*	*110,0*	*129,2*
Экспорт	млн.АҚШ долл.	13,0	14,3	16,8
Ўсиш суръати ўтган йилга нисбатан	*%*	*88,4*	*110,0*	*129,2*
Шундан, Худудий экспорт прогнози	млн.АҚШ долл.			
Йиллик прогнозни бажарилиши	*%*			
Импорт	млн.АҚШ долл.			0,01
Ўсиш суръати ўтган йилга нисбатан	*%*			
Қўшма корхоналар фаолияти				
Қўшма корхоналар	сони	2	2	2
Ўсиш суръати ўтган йилга нисбатан	*%*	*100,0*	*100,0*	*100,0*
Янги ташкил этилган қўшма корхона	сони			
Маҳсулот (иш,хизмат) ҳажми	млн.сўм	54,6	55,3	82,0
Ўсиш суръати ўтган йилга нисбатан	*%*	*103,6*	*101,3*	*150,2*

4-ilova

Касби туманининг ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш кўрсаткичларининг 2012 йил январ-декабр ойларида бажарилиши тўғрисида маълумот

(Усиш суръати таққослама баҳода)

Асосий кўрсаткичлар	Ўлчов бирлиги	январ-декабр		
		2011 йил хақиқат	2012 йил прогноз	2012 йил хақиқат
Саноат				
солиштирма нархда	**млн.сўм**	**52966,3**	**56515,0**	**56109,0**
Усиш суръати ўтган йилга нисбатан	%	105,7	106,7	105,9
Халк истеъмоли моллари				
харакатдаги бахода	**млн.сўм**	**3070,3**	**3474,1**	**3538,3**
Усиш суръати ўтган йилга нисбатан	%	119,9	113,2	115,2
янги саноат корхоналарини ишга туширишш	**бирликда**	**14**	**20**	**22**
модернизация	**бирликда**	**2**	**6**	**1**
Капитал қурилиш				
Капитал маблағларни узлаштириш	**млн.сўм**	**30743,4**	**27700**	**27732,6**
Усиш суръати утган йилга нисбатан	%	*111,1*	*77*	77,8
Пудратчилар томонидан бажарилган				
қурилиш монтаж ишлари	**млн.сўм**	**32966,6**	**41600**	**41621**
Усиш суръати утган йилга нисбатан	%	*151,2*	*117*	117,5
Инфраструктура				
Газ кувурлари	км	-		
Сув кувурлари	км	-	13,1	13,1
Марказлашган сув таъминоти	%	70	69,6	69,6
Табиий газ таъминоти	%	80,7	78,6	78,6
Уй-жойлар	**минг кв.м**	**60,4**	**55**	**55**
йиллик топшириққа нисбатан бажарилиши	%			
Мактаблар	**сони/ук,ур**		**1/214**	**1/214**
янги курилиш	сони/ук,ур			
реконструкция	сони/ук,ур			
капитал таъмир	сони/ук,ур		1/214	1/214
Касб-хунар коллежлари курилиши	**сони/ук,ур**		**1/180**	1/180
Касб-хунар коллежлари реконструкция				
янги курилиш	сони/ўқ.ўрни		**1/180**	1/180
капитал таъмир	сони/ўқ.ўрни			
Коллежларга ётоқхона қурилиши	сони/ёток			
Касалхона	сони/урин			
Поликлиника	сони/қатнов			
ҚВП	сони/қатнов			
Болалар спорти иншоати	сони	**1**		
Болалар мусиқа ва санъат мактаби	сони	**1**		
Чақирув пункти	сони			
Йул қурилиши	км	**15,2**	**13,4**	**13,4**
- халқаро ахамиятдаги	км			
- давлат ахамиятидаги	км			
- вилоят ахамиятидаги	км	**3**		
- ички хужалик йуллар	км	**12,2**	**13,4**	**13,4**
Кишлок хужалиги				

Ялпи қишлоқ хўжалги махсулоти ишлаб чиқариш	**млрд.сўм**	**130146,9**	**135416,2**	**166448,2**
Ўсиш суръати утган йилга нисбатан	%	***99,6***	*103*	***100,7***
Ўсимчиликда	млн.сўм	**68748,3**	**72890,1**	**92550,2**
Чорвачиликда	млн.сўм	**61398,6**	**62526,1**	**73898,0**
Кишлок хужалик махсулотлари ишлаб чикариш				
Пахта	тонна	64141	65400	61714
Жами дон	тонна	86425	87000	87290
ш.ж Бошоқли дон	тонна	86425	87000	87290
Картошка	тонна	1862	2500	2081
Сабзавот	тонна	13205	13300	13449
Полиз	тонна	6312	6000	6506
Мева	тонна	4739	4700	4909
Узум	тонна	1146	1370	1176
Гушт	тонна	13436	15850	13927
Сут	тонна	68685	79600	69646
Тухум	минг дона	10175	12800	10484
Жун	центнер	306	326	314
Коракул тери	дона	9350	9350	10423
Пилла	тонна	249	240	240
Чорва моллари ва паррандалар бош сони				
Корамоллар	бош	93110	95000	97904
Сигирлар	бош	35155	35300	35324
Куй ва эчкилар	бош	127465	135000	137753
Чўчқалар	бош	32	32	32
Паррандалар	бош	105970	110000	113313
Отлар	бош	1125	1140	1151
Савдо ва хизмат кўрсатиш				
Чакана савдо айланмаси	**млн.сўм**	**55049,6**	**82666,1**	**81692,7**
Усиш суръати утган йилга нисбатан	%	130,6	118,9	117,5
Бозор хизматлари	**млн.сўм**	**51917,6**	**60116,2**	**58328,7**
Усиш суръати утган йилга нисбатан	%	124,8	118,0	105,7
алоқа ва ахборотлаштириш хизматлари	%	144	116	121,1
компьютерли программалаштириш хизматлари консультацион хизматлар билан бирга	%			
транспорт хизматлари логистик хизматлар билан бирга	%	115,6	118	123,3
молия хизматлари, банк, лизинг ва суғурта хизматлари билан бирга	%	113,5	115,2	119
қурилиш хизматлари	%		112	150
ускуналарни таъмирлаш ва техник хизмат кўрсатиш хизматлари	%		104,2	105,2
қишлоқ хўжалиги техникаларини таъмирлаш ва техник хизмат кўрсатиш хизматлари	%			
туристик хизматлар (меҳмонхона хизматлари билан бирга)	%			
савдо ва умумий овқатланиш хизматлари	%	143,5	119,6	117,1

маиший хизматлар, маиший техникани таъмирлашни кўшганда	%	116,5	117,5	110,5
таълим хизматлари	%		109,5	46,7
соғликни сақлаш хизматлари	%		113,4	65,1
бошка хизматлар	%	141	111,6	82,3
Пулли хизматлар	**млн.сўм**	**19778,1**	**29056,0**	**28957,2**
Усиш суръати утган йилга нисбатан	%	104,0	114,1	107,4
Янги иш уринлар яратиш	**урин**	**5350**	**5407**	**5461**
Йиллик эҳтурнинг бажарилиши	%	*101,0*	*100*	*101,0*
Кичик бизнес субъектлари				
Кичик бизнес корхоналари	сони	5052	5137	5091
Ўсиш суръати ўтган йилга нисбатан	%	*101,9*	*101,7*	*100,8*
Кичик бизнес корхоналарига ажратилган кредитлар	**млн.сўм**	5670,4	7000,3	7484,9
Ўсиш суръати ўтган йилга нисбатан	%	*258,2*	*123,5*	*132,0*
Экспорт ва импорт				
Ташки савдо айланмаси	**млн.АҚШ долл.**	**43,8**	**27,3**	**24,8**
Ўсиш суръати ўтган йилга нисбатан	%	*129,6*	*62,3*	*56,6*
Экспорт	**млн.АҚШ долл.**	43,8	27,3	24,4
Ўсиш суръати ўтган йилга нисбатан	%	*129,6*	*62,3*	*55,7*
Шундан худудий экспорт прогнози	млн. АКШ долл.			
Прогнозни бажарилиши	%			
Импорт	**млн.АҚШ долл.**	0,01		0,4
Ўсиш суръати ўтган йилга нисбатан	%			*40 м*
Қўшма корхоналар фаолияти				
Қўшма корхоналар	**сони**	2	2	2
Ўсиш суръати ўтган йилга нисбатан	%	*100,0*	*100,0*	*100,0*
Янги ташкил этилган қўшма корхона	*сони*		1	
Маҳсулот (иш,хизмат) ҳажми	млрд. сўм	0,1	0,1	
Ўсиш суръати ўтган йилга нисбатан	%	*103,7*	*104,5*	